

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo‘lyozma huquqida
UO‘K:657.371.1:631.11(575.1)**

RUZIYEVA DILAFRUZ FAXRIDINOVNA

**QISHLOQ XO‘JALIK KORXONALARIDA INVENTARIZATSIYA
O‘TKAZISH VA UNING NATIJALARI TAHLILINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. B. A. Xasanov

Toshkent - 2025

MUNDARIJA

Kirish	3
I BOB. INVENTARIZATSIYA O‘TKAZISH VA UNING NATIJALARI TAHLILINING NAZARIY VA TASHKILY ASOSLARI	
1.1. Inventarizatsiyaning mohiyati va uning korxona samaradorligini ta‘minlashdagi o‘rni	12
1.2. Inventarizatsiya o‘tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirishning normativ-huquqiy asoslari.....	26
1.3. Inventarizatsiya natijalari tahlilining nazariy jihatlarini	36
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	44
II BOB. QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA INVENTARIZATSIYA O‘TKAZISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	
2.1. Tarmoq korxonalarida uzoq muddatli aktivlar inventarizatsiyasini takomillashtirish	46
2.2. Joriy aktivlar inventarizatsiyasini o‘tkazish va uni natijalarini rasmiylashtirish xususiyatlari	63
2.3. Qishloq xo‘jalik korxonalarida inventarizatsiya o‘tkazish va uni natijalarini rasmiylashtirishning xorij tajribasi.....	74
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	92
III BOB. QISHLOQ XO‘JALIK KORXONALARIDA INVENTARIZATSIYA NATIJALARI TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH	
3.1. Buxgalteriya hisobida inventarizatsiya natijalari bo‘yicha axborotlarni umumlashtirish va uning tahlili	94
3.2. Qishloq xo‘jalik korxonalarida inventarizatsiya natijalari samaradorligini aniqlovchi omillar ta‘sirini prognozlashtirish.	107
3.3. Inventarizatsiya natijalari tahlili axborotlarini umumlashtirish yo‘llari va boshqaruv qarorlari qabul qilishda foydalanish samaradorligi	122
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	134
XULOSA.....	136
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	139
ILOVALAR.....	148

KIRISH

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. “Jahon iqtisodiyotining taraqqiyoti o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi va baliqchilik bozorlarini diversifikatsiya qilinishini taqozo etmoqda. Bunday tendensiya keyingi yillarda ham davom etishi kutilmoqda. Keyingi o‘n yillikda qishloq xo‘jaligi va baliqchilik mahsulotlarini iste‘mol qilishning umumiy hajmi yiliga 1,0 foizga o‘sishi prognoz qilinmoqda. Jahon oziq-ovqat iste‘moli aholi soni va daromadlarning o‘sishi tufayli yiliga 1,2 foizga ko‘payishi tahmin qilinmoqda”¹. Agrar sektorida bozor munosabatlari va umuman iqtisodiyotning rivojlanishi qishloq xo‘jaligi tashkilotlari faoliyatini boshqarishning samarali tizimini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bunga erishishning asosiy vositasi tashkilotlarni rivojlantirish strategiyasiga muvofiqlashtirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirishdir. Bu esa, “o‘z navbatida, quyidagi muhim ilmiy-amaliy va tashkiliy-uslubiy masalalarni hal etishni taqozo etadi: boshqaruv funksiyalarini kengaytirish va xo‘jalik yuritishning iqtisodiy usullarini qo‘llash orqali boshqaruvni takomillashtirish; ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi, tadbirkorlik faoliyati xususiyatlari va raqobatbardoshligini oshirish; tashkilotlarning moliyaviy ahvoli va to‘lov qobiliyatini yaxshilash”².

Jahon miqyosida qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya o‘tkazish va uning natijalarini tahlilini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar ustuvor yo‘nalishlari, avvalo, resurslarning aniq hisobini ta‘minlash va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Zamonaviy ilmiy izlanishlarda raqamli texnologiyalar va geoaxborot tizimlari (GIS) asosida aktivlarni monitoring qilish, dronlar va sensorlar yordamida zaxiralarni baholash, shuningdek, big data tahlili orqali inventarizatsiya jarayonlarini avtomatlashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, inventarizatsiya natijalarini iqtisodiy tahlil qilishning matematik-statistik modellarini joriy etish, xavf-xatarlarni baholash

¹ OECD/FAO (2024), OECD-FAO Agricultural Outlook 2024-2033, OECD Publishing, Paris/FAO, Rome, <https://doi.org/10.1787/4c5d2cfb-en>.

² Рузиева Д. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНВЕНТАРИЗАЦИИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 10. – С. 183-196.

va prognoz ko'rsatkichlarini shakllantirish yo'nalishlari ham dolzarb hisoblanadi. Ustuvor tadqiqotlar qatorida qishloq xo'jaligi korxonalarida moddiy aktivlar bilan bir qatorda biologik aktivlar va yer resurslarini baholash metodologiyasini takomillashtirish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishning eng optimal variantlarini izlab topish orqali takomillashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini oshirishning barcha imkoniyatlaridan maksimal foydalanish shart-sharoitlarini yaratish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasini kamida 4/1 qismigacha yetkazish choralarini ko'rish, asosiy ekin turlari bo'lgan paxta va g'alla hosildorligini rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligidagi ko'rsatkichlar darajasiga qadar yyetkazish, urug'chilik tizimini mahalliyashtirish, agrologistika markazlarini barpo etish, mavjudlari faoliyatini yaxshilash, sohani bozor munosabatlari talablariga javob beradigan moliyalashtirishga o'tish hamda xavf-xatarlarni sug'urtlash tizimini takomillashtirish, qishloq hududlarini infratuzilmasini izchil yaxshilab borish kabi yo'nalishlarda izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to'g'risida", 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son ««O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida», 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2021 yil 3 fevraldagi PF-6159-son "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 24 fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yil 20 iyundagi PQ-227-son "Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari” doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Buxgalteriya hisobining muhim unsuri va korxona aktivlaridan samarali foydalanishning asosiy dastaklaridan biri sifatida inventarizatsiya masalalariga xorijiy va mahalliy mutaxassislar tomonidan yetarlicha katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Rossiyalik mutaxassislar K. Yashenko, Ye. Moiseenko va S. Agafonovalar “Inventarizatsiya - bu tashkilotning mol-mulki mavjudligi va uning moliyaviy majburiyatlari holatini ma’lum bir sanada tekshirish bo‘lib, bunda haqiqiy ma’lumotlar buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan taqqoslanadi...inventarizatsiya korxona moliyaviy barqarorligini ta’minlashning asosiy sharti”³, deb ta’kidlaydilar. Yana bir Rossiyalik mutaxassislar guruhi A. Alekseeva va G. Zolotareva o‘z tadqiqotlarida inventarizatsiyaning katta mehnat va vaqt talab qilishiga qaramasdan, korxona faoliyatida muhim o‘rin egallashini ta’kidlaydilar, ularning fikricha “inventarizatsiya jarayonlarini raqamlashtirish mavjud muammolarni bartaraf etish”⁴ imkonini beradi.

L. V. Krisanova Ye. V Stishkovalarning izlanishlarida qishloq xo‘jaligi korxonalarining mol-mulki va moliyaviy majburiyatlarini inventarizatsiyalash masalalari o‘z aksini topgan.⁵

Belorussiya Qishloq xo‘jaligi akademiyasining mutaxassisi T. Kurulenkoning fikricha “qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiyani tashkil qilish, korxona ichki nazorat tizimining samarali vositalaridan biridir”⁶. O. Lavrina Qishloq

³ Яценко К. С., Моисеенко Е. С., Агафонова М. С. Инвентаризация как метод экономического контроля // Научное обозрение. Экономические науки. – 2016. – №. 5. – С. 61-65.

⁴ Alekseeva A. V., Zolotareva G. I. Problems of inventory of fixed assets // Social and economic systems management. 2018, No. 2, Pp. 40–45. (In Russ., abstr. in Engl.)

⁵ Крысанова Л. В., Стишкова Е. В. Инвентаризация имущества и финансовых обязательств в сельском хозяйстве // Потребительский рынок: качество и безопасность товаров и услуг. Материалы национальной научно-практической конференции. -Рязань. – 2019. – С. 128.

⁶ Курулenco Т. А. КОНТРОЛЬ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ КАК ИНСТРУМЕНТ УПРАВЛЕНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ОРГАНИЗАЦИЕЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ // Вестник Белорусской государственной сельскохозяйственной академии. 2023. №1. URL:

xo'jaligi korxonalarida inventarizatsiya o'tkazishni "soha samaradorligini oshirishning muhim manbai"⁷ sifatida baholaydi.

D.M.Vander, P.Chan, A.Silvestrini Qishloq xo'jaligi asosiy fondlarini baholashning muhim manbai sifatida inventarizatsiyalashga alohida e'tibor qaratadi va 1995-2017-yillar mobaynida jahonning 189 ta mamlakati bo'yicha to'plangan ma'lumotlar asosida tahlillarni amalga oshiradi va "qishloq xo'jaligida investitsiyalarning samaradorligi inventarizatsiyaga ko'p jihatdan bog'liq"⁸, degan xulosaga keladi.

N.Panichpongpan "qishloq xo'jaligi korxonalarda zaxiralarni boshqarishning asosiy vositasi sifatida inventarizatsiyadan"⁹ foydalanishni taklif qiladi. Dimitris Folinas va Chia-Yi Shen "inventarizatsiya va qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy natijalari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud"¹⁰ ekanligini ta'kidlashadi. Murray F. Foss, Gary Fromm, Irving Rottenberg "qishloq xo'jaligida o'simchilik va chorvachilikda inventarizatsiya o'tkazishning umumiy va farqli jihatlarini"¹¹ ko'rsatib o'tadi.

Taneja, Bxatnagar, Kumar Hindiston "qishloq xo'jaligi korxonalari misolida aktivlardan foydalanish samaradorligi borasida tadqiqotlar olib borishgan, tadqiqot natijalariga ko'ra, qishloq xo'jaligi aktivlari va yakuniy moliyaviy natijalar o'rtasidagi bog'liqlik"¹² ekonometrik modellashtirish yordamida tushuntirib berilgan.

O'zbekistonda ham qishloq xo'jaligi korxonalarida inventarizatsiyani takomillashtirish masalalari borasida bir qator o'rganishlar olib borilganligini va bu tadqiqotlar davom etayotganligini ta'kidlash lozim. Xususan, tadqiqotchi A.

<https://cyberleninka.ru/article/n/kontrol-osnovnyh-sredstv-kak-instrument-upravleniya-selskohozyaystvennoy-organizatsiyey-i-napravleniya-ego-sovershenstvovaniya> (дата обращения: 17.04.2025).

⁷ Lavrina O. et al. Fixed assets as an element of the production potential of the agricultural sector in regions. – 2022.

⁸ Vander Donckt M., Chan P., Silvestrini A. A new global database on agriculture investment and capital stock //Food Policy. – 2021. – T. 100. – C. 101961.

⁹ Panichpongpan N. Inventory management for uncertain demand of wholesale agriculture spare parts. – 2015.

¹⁰ Folinas D., Shen C. Y. Exploring links among inventory and financial performance in the agricultural machinery //International Journal of Food and Agricultural Economics (IJFAEC). – 2014. – T. 2. – №. 4. – C. 1-12.

¹¹ Foss M. F., Fromm G., Rottenberg I. Inventories in Agriculture, Public Utilities and Construction //Measurement of Business Inventories. – US Census Bureau, 1981. – C. 132-141.

¹² Taneja S. et al. A panel analysis of the effectiveness of the asset management in Indian agricultural companies //International Journal of Sustainable Development and Planning. – 2023. – T. 18. – №. 3. – C. 653-660.

Eraliyev “chorvachilik korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirishda inventarizatsiyaning ahamiyati borasida o‘z qarashlarini ilgari suradi, uning fikricha, chorvachilik korxonalarida inventarizatsiyani o‘tkazish masalalari korxona hisob siyosatida qat’iy aks ettirilishi lozim”¹³. Alimxanovanning fikricha, “tovar-moddiy zaxiralarning saqlanishi va ularning butligini ta’minlashda audit va ichki nazoratning dastagi sifatida inventarizatsiyaning o‘rnini bee’tibor qoldirmaslik lozim”¹⁴. Qurbonboyev, Rizayevlar tomonidan “moliyaviy hisobotning xalqaror standartlari asosida hisob siyosatini tashkillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan, bunda ular tomonidan 41-sonli MHXSdan amalda foydalanish borasida tavsiyalar ishlab chiqilgan”¹⁵.

Amalga oshirilgan ko‘p sonli tadqiqotlarga qaramasdan, qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiyani tashkil etish uslubiyotini takomillashtirish bo‘yicha o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalarning yetarlicha ekanligi tadqiqot mavzusi borasida izlanishlarni chuqurlashtirishni taqozo etadi.

Dissertatsiyaning dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya o‘tkazish amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish tadqiqotning maqsadi hisoblanadi

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

inventarizatsiya o‘tkazishning tarmoq xususiyatlarini ochib berish;

qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya o‘tkazishning xalqaro tajribasini umumlashtirish va mahalliy sharoitda qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish;

¹³ Эралиев А. К. Чорвачилик корхоналарида бухгалтерия ҳисоби ва аудитининг методологиясини такомиллаштириш //Экономика и социум. – 2022. – №. 6-2 (97). – С. 842-846.

¹⁴ Alimkhanova N. Товар-моддий захиралар аудитида таҳлилий амалларни қўллаш //Economics and Innovative Technologies. – 2024. – Т. 12. – №. 3. – С. 29-38.

¹⁵ Курбанбаев Ж., Ризаев Н. ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕТНОЙ ПОЛИТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ //Экономическое развитие и анализ. – 2025. – Т. 3. – №. 1. – С. 341-352.

qishloq xo'jaligi korxonalarida uzoq muddatli va joriy aktivlar inventarizatsiyasini takomillashtirish;

qishloq xo'jaligi korxonalarida inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish va hisob siyosatini takomillashtirish;

qishloq xo'jaligi korxonalarida inventarizatsiya o'tkazishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan foydalanishni uyg'unlashtirish;

boshqaruv qarorlari qabul qilishda inventarizatsiya natijalaridan foydalanish samaradorligini oshirish.

Tadqiqot ishining obyekti bo'lib O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini qishloq xo'jaligi korxonalarida inventarizatsiya o'tkazish va uning natijalarini takomillashtirish jarayonida vujudga keluvchi xo'jaliklararo va subyektlararo munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. . Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez; tizimli yondashuv; induksiya va deduktsiya; taqqoslash, guruhlash, tanlanma kuzatish; iqtisodiy va statistik usullar; grafik usul; mantiqiy, shuningdek matematik modellashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Taqqoslash, guruhlash va tanlanma kuzatish usullari orqali Mahalliy Hisob-Kitob Sistemasi (MHKS) va Bozor Hisob-Kitob Sistemasi (BHKS) o'rtasida uyg'unlik ta'minlandi. Iqtisodiy va statistik usullar yordamida korxonalarning iqtisodiy hamda moliyaviy ko'rsatkichlari batafsil o'rganildi. Natijalar grafik usullar — chizma va diagrammalar yordamida vizual tarzda ifodalandi.

Mantiqiy umumlashtirish usuli orqali ilmiy xulosalar chiqarildi. Bundan tashqari, matematik modellashtirish usuli qo'llanilib, uzoq muddatli prognozlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

buxgalteriya balansini MHXSga transformatsiya qilish jarayonida inflyasiyani hisobga olgan holda uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash natijalarini hisob va hisobot registrlarida aks ettirish operatsiyalarini korxonaning hisob

siyosatiga kiritish orqali asosiy vositalarning balans qiymati aniqlashtirish hamda amortizatsiya xarajatlarining haqqoniyligini ta'minlash taklifi asoslangan;

inventarizatsiya hisobi natijalarini moliyaviy tahlilga integratsiyalashda raqamli ma'lumotlar tahlili, avtomatlashtirilgan hisoblash algoritmlari va vizualizatsiya vositalaridan foydalanishga asoslangan innovatsion usulni ishlab chiqish orqali inventarizatsiya ma'lumotlarini qayta ishlash vaqtini qisqartirish, tahliliy hisobotlar aniqligi va tahliliy qaror qabul qilish tezligini oshirish asoslangan;

xo'jalik yurituvchi subyektlarda inventarizatsiya yakunlarini ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlari bo'yicha moliyaviy tahlil ko'rsatkichlari tizimi va ularni baholashning analitik usulini ishlab chiqish orqali moliyaviy tahlil ko'rsatkichlari qamrovini kengaytirish, jarayonlar bo'yicha ma'lumotlarni integratsiyalash darajasi va tahliliy baholash natijasida zaxiralarni optimallashtirish samaradorligini oshirish asoslangan;

O'zbekiston qishloq xo'jaligi korxonalarining aktivlari, kapitali va majburiyatlaridan samarali foydalanishning optimal ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Inventarizatsiya jarayonida korxona mulki, xususiy kapitali va majburiyatlarini hisob registrlari hamda hisobot yuritish shakllarida aks ettirish bo'yicha buxgalteriya yozuvlari takomillashtirilgan;

majburiyatlar va qarzlarni baholashda inventarizatsiya hujjatlari hamda tezkor hisobot shaklidan foydalanishni joriy etish taklif qilingan;

iqtisodiy tahlil jarayonida inventarizatsiya samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida qayta ishlash variantlari asoslangan;

korxona aktivlari kapitali va majburiyatlarining retrospektiv joriy va istiqbolli tahlilini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyani tayyorlashda foydalanilgan statistik va boshqa ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning ishonchliligi, ilgari surilgan taklif va

tavsiyalarning buxgalteriya hisobini xalqaro andozalarga moslashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiqligi hamda tegishli xulosalarni mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etishga qabul qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy ahamiyati qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya o‘tkazish amaliyoti va tahlilini takomillashtirishga oid ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlarning buxgalteriya hisobining ilmiy apparatini boyitish, buxgalteriya hisobi milliy standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga uyg‘unlashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot muallifi tomonidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya o‘tkazish amaliyotini yaxshilash, qishloq xo‘jaligi korxonalarining hisob siyosatini takomillashtirish, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida “Buxgalteriya hisobi nazariyasi”, “ASM korxonalarida buxgalteriya hisobi”, “Iqtisodiy tahlil” kabi iqtisodiy fanlarni o‘qitish uslubiyotini boyitishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya o‘tkazish va uning natijalari tahlilini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy va amaliy tavsiyalar asosida:

buxgalteriya balansini MHXSga transformatsiya qilish jarayonida inflyasiyani hisobga olgan holda uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash natijalarini hisob va hisobot registrlarida aks ettirish operatsiyalarini korxonaning hisob siyosatiga kiritish orqali asosiy vositalarning balans qiymati aniqlashtirish hamda amortizatsiya xarajatlarining haqqoniyligini ta‘minlash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2025-yil 2-maydagi 02/24-113-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida moliyaviy hisobotlarda aktivlarning

infllyasion ta'sirini hisobga olgan holda adolatli qiymatni aks ettirish va korxona moliyaviy ahvolining real ko'rsatkichlarini ta'minlash imkoni yaratilgan;

inventarizatsiya hisobi natijalarini moliyaviy tahlilga integratsiyalashda raqamli ma'lumotlar tahlili, avtomatlashtirilgan hisoblash algoritmlari va vizualizatsiya vositalaridan foydalanishga asoslangan innovatsion usulni ishlab chiqish orqali inventarizatsiya ma'lumotlarini qayta ishlash vaqtini qisqartirish, tahliliy hisobotlar aniqligi va tahliliy qaror qabul qilish tezligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 2-maydagi 02/24-113-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida inventarizatsiya jarayonlarida aniqlik va tezlik oshirildi hamda moliyaviy tahlilning vizual va raqamli asosda samarali olib borilishi ta'minlangan;

xo'jalik yurituvchi subyektlarda inventarizatsiya yakunlarini ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlari bo'yicha moliyaviy tahlil ko'rsatkichlari tizimi va ularni baholashning analitik usulini ishlab chiqish orqali moliyaviy tahlil ko'rsatkichlari qamrovini kengaytirish, jarayonlar bo'yicha ma'lumotlarni integratsiyalash darajasi va tahliliy baholash natijasida zaxiralarni optimallashtirish samaradorligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 2-maydagi 02/24-113-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida ishlab chiqarish va mahsulot sotish jarayonlarining moliyaviy natijalari tahlili yaxshilanib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun analitik ko'rsatkichlar tizimi shakllantirilgan;

O'zbekiston qishloq xo'jaligi korxonalarining aktivlari, kapitali va majburiyatlaridan samarali foydalanishning optimal ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish taklifi

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 2-maydagi 02/24-113-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida qishloq xo'jaligi korxonalarining aktiv va kapitaldan foydalanish samaradorligini baholash va rivojlanishni 2030-yilgacha ilmiy asosda prognoz qilish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Ilmiy izlanish natijalari amaldagi tartib asosida 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan, muhokama jarayonida ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda hamda 5 ta tezis nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya OAK talablari asosida tizimlashtirilgan, tadqiqot ishi jami 150 betdan iborat.

I BOB. INVENTARIZATSIYA O‘TKAZISH VA UNING NATIJALARI TAHLILINING NAZARIY VA TASHKILIY ASOSLARI

1.1. Inventarizatsiyaning mohiyati va uning korxona samaradorligini ta’minlashdagi o‘rni


“O‘zbekiston-2030” strategiyasida 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish, mamlakatda kambag‘allik darajasini qisqartirish, aholini daromadli mehnat bilan band qilish”¹⁶ kabi ustuvor maqsadlar belgilab berilgan. Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 33-yillik bayram tantanalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan marosimda so‘zlagan nutqida Yangi O‘zbekistonni barpo etishdagi beshta ustuvor yo‘nalishdan biri – bu biznesni rivojlantirish ekanligi ta’kidlandi, ma’ruzada qayd etilganidek, “yana bir dolzarb masala – aholini, ayniqsa qishloq aholisini munosib ish o‘rinlari bilan ta’minlashdir, Biz bu borada tadbirkorlarimizga tayanamiz. Shu bois, ularni qo‘llab-quvvatlashni yanada kengaytiramiz”¹⁷.

O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YaIM)tarmoq tuzilmasini tahlil qilish asnosida, qishloq xo‘jaligi ishlab etarlicha katta salmoqqa ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin, chunonchi 2024-yilda YaIMda qishloq xo‘jaligining ulushi qariyb 20 foizni tashkil qilgan, shu bilan bir qatorda, 2025-yil 1-yanvar holatiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) soni – 30952 birlikni, shundan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlarda – 28109 birlikni, o‘rmon xo‘jaligida – 228 birlikni hamda baliqchilik xo‘jaligida – 2615 birlikni tashkil etdi. 2024-yil yanvar-dekabr oyida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) soni – 9117 birlikni tashkil etdi. (1.1-rasm). Ko‘rinib turibdiki, qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutgani

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 33-yillik bayram tantanalariga bag‘ishlangan marosimda so‘zlagan nutqi, <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-ozbekiston-mustaqilligini>

holda, qishloq tadbirkorligini rivojlantirish aholi daromadlarini oshirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, moliya-xo‘jalik faoliyati tahlilini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.



1.1-rasm. O‘zbekistonda 2019-2024-yillarda itisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaIM tuzilmasi, %¹⁸

Qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarish jarayoni o‘z hayotiylik tsikliga ega bo‘lgan tirik organizmlarning rivojlanishi bilan bog‘liq. “O‘simlikchilik va chorvachilikdagi biologik omil qishloq xo‘jaligi korxonalari va tashkilotlarining barcha ishlab chiqarish, iqtisodiy va moliyaviy faoliyat ko‘rsatkichlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi”¹⁹.

Qishloq xo‘jaligi tashkilotlarida asosiy va aylanma mablag‘larning o‘ziga xos xususiyati ularning tarkibida tirik organizmlarning mavjudligidir. Bu o‘z navbatida, ishlab chiqarish va aylanma mablag‘larning aylanishiga ta’sir qilib, sekin aylanadigan aktivlar zaxirasining ko‘payishiga olib keladi. Natijada, qishloq xo‘jaligi tashkilotlarida aktivlarning aylanish tezligi odatda bir muncha past bo‘ladi.

“O‘simlik organizmlari uchun yashash sharoitlarining to‘liq majmuasi o‘zaro ta’sirlashuvchi ikki tabiiy tizim: tuproq va iqlim bilan ifodalanadi. Qishloq xo‘jaligida yer eng muhim ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Tuproq o‘ziga xos


¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2024 yil yanvar-dekabr) // T. 2025.

¹⁹ Abduvohidov A., Rasulov S. Sug‘oriladigan yerlardan foydalanishni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari // Iqtisodiyot va ta’lim. – 2023. – T. 24. – №. 4. – S. 366-376.

quvvatlantiruvchi manba sifatida yordamchi materiallar va mehnat kuchi manbai vazifasini bajaradi”²⁰.

Iqlim va tuproq sharoitlarining turlicha ekanligi hududiy tavsifga ega bo‘lib, bir holatda ayrim ekinlarni, boshqa holatda esa boshqa ekinlarni yetishtirish uchun qulay sharoit tug‘diradi. Natijada, tashkilotlarning ishlab chiqarish va moliyaviy ko‘rsatkichlari ham hududlar bo‘yicha farqlanadi.

Hududiy tafovutlar qishloq xo‘jaligi korxonalari moliyasini tashkil etish usullariga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi va turli hududlardagi ishlab chiqarish tarmoqlarining faoliyat sharoitlari o‘rtasidagi farqlanishlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Hududiy omillarni hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligi korxonalari moliyaviy holatining iqtisodiy tahlili tarkibi 1.2-rasmda keltirib o‘tilgan.



1.2.-rasm. Qishloq xo‘jaligi korxonalari moliyaviy holati tahlili tuzilmasi²¹

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish faoliyatni amalga oshirishning davriyligi bilan ajralib turadi. Qishloq xo‘jaligida, xususan, dehqonchilik sohasida ishlab chiqarish bosqichlari aniq tartibda va ma‘lum vaqt oralig‘ida sodir bo‘ladi. Dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish uchun xarajatlar-yilning birinchi yarmida

²⁰ Pirnazarovich, Abulqosimov Hasan. "O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi yerlaridan unumli foydalanish masalalari." *Ekonomika i finansi (Uzbekistan)* 9 (2015): 10-16.

²¹ Muallif tomonidan shakllantirilgan.

to'planib, hosilni yig'ib olish uchinchi chorakda amalga oshiriladi. Bundan farqli o'laroq, chorvachilik xarajatlarning bir tekis taqsimlanishi bilan ajralib turadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mavsumiy xususiyati tashkilotlarning pul oqimiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu daromadlarning notekis shakllanishi va to'lovlarni olish muddatining cho'zilishida namoyon bo'ladi, natijada korxonalar qisqa muddatli moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishi va kreditlarga tayanib qolishi mumkin.²²

Qishloq xo'jalik korxonalariga davlat yordami chora-tadbirlari muhim ahamiyatga ega, chunki ular ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va aylanma mablag'larning vaqtinchalik tanqisligini engillashtirishga yordam beradi. Bu chora-tadbirlarga mahsulotlarni subsidiyalash, xarajatlarni qisman qoplash, soliq imtiyozlari va kredit ko'magi kabi choralar kiradi.

Shu sababli, "qishloq xo'jaligi tashkilotlarining moliyaviy holatini tahlil qilishda nafaqat o'rtacha-yillik ko'rsatkichlarni, balki-yilning har bir choragi va oyi bo'yicha ko'rsatkichlarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, yil davomida tashqi manbalardan olingan moliyaviy mablag'larni ham e'tiborga olish muhim. O'simlik va hayvonlar hayot faoliyati uchun suv, oziq moddalar, issiqlik, quyosh nuri kabi muayyan unsurlar zarur. Shu bois, iqlim sharoiti qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini rivojlantirishda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Iqlim omillari inson nazoratidan tashqarida va ko'pincha oldindan aytib bo'lmaydi. Ekstremal ob-havo sharoiti ekinlarning ko'plab nobud bo'lishiga olib kelishi mumkin, natijada ishlab chiqarish xarajatlari sotishdan olingan daromadlardan ustun bo'lganda qishloq xo'jaligi faoliyati norentabel bo'ladi. Shuning uchun qishloq xo'jaligida hosilni sug'urtalash talab etiladi, chunki sug'urtalash bunday salbiy hodisalarning moliyaviy ta'sirini kamaytirishga yordam beradi. Ekinlarni sug'urtalashning rivojlanishi, o'z navbatida, ushbu tashkilotlarning xarajatlari ta'sir ko'rsatadi"²³.

²² Bonuedi I., Kornher L., Gerber N. Agricultural seasonality, market access, and food security in Sierra Leone //Food Security. – 2022. – T. 14. – №. 2. – C. 471-494.

²³ Hazell P., Varangis P. Best practices for subsidizing agricultural insurance //Global Food Security. – 2020. – T. 25. – C. 100326.

Qishloq xo‘jaligida “o‘simlik va hayvonlardan foydalanish ikki muhim va o‘zaro bog‘liq sohani yuzaga keltiradi: dehqonchilik va chorvachilik. Bu sohalarning o‘z quyi tarmoqlari mavjud, masalan, g‘allachilik, sut chorvachiligi, go‘sht yetishtirish, asalarichilik va boshqalar”²⁴. Ushbu sohalar o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlanish yo‘nalishlari, xarajatlar tuzilmasi, ishlab chiqarish va sotish muddatlari bo‘yicha farqlanadi. Bularning barchasi korxonalarning joriy moliyaviy ko‘rsatkichlari va holatiga ta’sir ko‘rsatadi.

“Qishloq xo‘jaligida mahsulotning bir qismi ichki ehtiyojlar (ozuqa, urug‘lik, chorvachilik mahsulotlari) uchun ishlatilishi sababli, uning tovarlilik darajasi pastroq bo‘ladi. Bu esa qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi asosiy omil - sotishdan tushumlarni oshirishni cheklovchi omil hisoblanadi”²⁵.

Qishloq xo‘jalik tashkilotlari o‘z faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa tovar ishlab chiqaruvchilardan farq qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlarning katta qismini qo‘l mehnati uchun sarflanadigan mablag‘lar tashkil etadi. Mehnat xususiyati xodimlarning malaka darajasiga ta’sir ko‘rsatadi: qo‘l mehnati yuqori malaka talab qilmaydi.

Natijada, qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi past darajada bo‘lib, bu o‘z navbatida korxonalarning iqtisodiy va moliyaviy faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi.

“Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i turli mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakllarga ega bo‘lgan ishlab chiqaruvchilardan tashkil topadi. Qishloq xo‘jaligi faoliyatida uch toifadagi ishlab chiqaruvchilar ishtirok etadi: qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, fermer xo‘jaliklari, dehqon va shaxsiy tomorqa xo‘jaliklari. Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 63,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 29,7 % i fermer xo‘jaliklariga, 7,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga

²⁴ Lal R. Integrating animal husbandry with crops and trees //Frontiers in Sustainable Food Systems. – 2020. – T. 4. – C. 113.

²⁵ Zhao B., Zhao F., Wang L. Optimizing Growth in the Agriculture Commodity Exchange Market: A Game-Theoretic Analysis of Transformation Strategies for Chinese Enterprises //Journal of Agricultural Science and Technology. – C. 0-0.

to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda"²⁶. Bu tashkilotlarning boshqaruv tuzilmalari ularning davlat bilan munosabatlariga, sarmoya jalb qilishiga va foyda taqsimotiga ta'sir etadi.

“Moliyaviy-iqtisodiy tahlil ham hududiy, ham dinamik jihatdan amalga oshirilishi lozim. Hududiy tahlil mintaqalar va guruhlar bo'yicha tashkilotlarning moliyaviy holatidagi o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadigan farqlarni aniqlaydi. Unda eng muvaffaqiyatli va moliyaviy jihatdan qiynalgan hududlar va tashkilot turlari ko'rsatiladi. Shuningdek, moliyaviy holatning turli sifatini keltirib chiqaruvchi omillar, shuningdek, investorlar va kreditorlar uchun eng jozibador hududlar aniqlanadi”²⁷. Tahlil natijalariga ko'ra, moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan hududlardagi boshqaruv organlari inqirozga qarshi strategiyani, shu jumladan moliyaviy ahvolni yaxshilash choralarini ishlab chiqishi kerak.

Dinamik tahlil moliyaviy holatning asosiy ko'rsatkichlaridagi mutlaq va nisbiy o'zgarishlarni, shuningdek, ushbu o'zgarishlarning asosiy tendentsiyalari va qonuniyatlarini, -yil davomida mavsumiy o'zgarishlarni va ko'rsatkichlarning barqarorligini aniqlaydi. Dinamik qatorlarning omilli tahlili va trend tahlili hududlar va tashkilotlar guruhlarining moliyaviy holati to'g'risida prognoz qilish imkonini beradi.

“Qishloq xo'jaligi tashkilotlarining moliyaviy ahvolini kompleks tahlil qilish ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili bilan birgalikda olib borilishi kerak. Bu moliyaviy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi, shuningdek, tashkilotning moliyaviy holati sifatini belgilovchi omillarni aniqlaydi”²⁸.

Tadqiqot mavzusi va predmetining murakkabligi tahliliy ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishni taqozo etadi. Ushbu tizim ham mutloq, ham nisbiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Mutlaq ko'rsatkichlar statistik to'plamlar


²⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2024 yil yanvar-dekabr) // T. 2025.

²⁷ Lakhtionova L. Financial analysis of agricultural enterprises // Kyiv, KNEU. – 2004.

²⁸ Tomchuk Olena, Tomchuk Victor APPROACHES TO THE IMPROVEMENT OF THE FINANCIAL CONDITION ANALYSIS AT THE AGRICULTURAL ENTERPRISES // Colloquium-journal. 2021. №12 (99). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/approaches-to-the-improvement-of-the-financial-condition-analysis-at-the-agricultural-enterprises> (дата обращения: 31.03.2025).

birliklarining o'rganiladigan umumlashtiruvchi xususiyatlarining ko'lamini ifodalaydi. Mutloq ko'rsatkichlarni tabiiy o'lchov birliklari va shartli tabiiy baholash usullari yordamida tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini har tomonlama o'rganish qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish, boshqaruv amaliyotini takomillashtirish, moliyaviy natijalarni yaxshilash va sohaning iqtisodiy asoslarini mustahkamlash uchun qishloq xo'jaligining iqtisodiy asoslarini mustahkamlash uchun ilmiy asoslangan platformani ta'minlashga yordam beradi. Barcha iqtisodiy jarayonlar o'rtasida murakkab o'zaro bog'lanishlar mavjud bo'lganligi sababli, ularni tahlil qilishga turli omillarning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda yaxlit holda yondashish muhimdir. Barcha tilga olib o'tilgan omillarni to'rtta guruhga birlashtirishni taklif qilamiz (1.3-rasm).




1.3-rasm. Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyati samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar tasnifi²⁹

²⁹ Muallif ishlanmasi.

Tahlil davomida har bir omilning ta'siri alohida aniqlandi. Korxonaning moliyaviy-xo'jalik va investitsion faoliyati ko'rsatkichlari boshqa korxonalarning faoliyatiga bevosita bog'liqligi yoritildi. Bu esa kompaniyaning iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun tashqi omillarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Shu bois, moddiy-texnik ta'minotning sifat va miqdori, shuningdek, xarid jarayonlari va narx o'zgarishlari kompaniyaning moliyaviy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mazkur bog'liqlikni chuqur tahlil qilish kompaniyaning investitsion siyosatini yanada samarali rejalashtirish va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Shu tariqa, xo'jalik faoliyati natijalarini belgilaydigan ichki subyektiv va tashqi obyektiv sabablarni aniqlashga erishiladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari moliyaviy-iqtisodiy faoliyati samaradorligining kompleks tahlili



1.4-rasm. Qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiy-moliyaviy faoliyatini kompleks tahlil qilish uslubiyoti³⁰

³⁰ Muallif ishlanmasi.

“Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga yo‘naltirilgan investitsiyalar tez sur‘atdagi rivojlanish va kengayishni ta‘minlash, shuningdek, qishloq xo‘jaligi korxonalarining moddiy-texnik bazasini yaratish va mustahkamlash uchun juda muhimdir. Moliyaviy resurslar cheklangan sharoitda, investitsiyalardan olinadigan foyda darajasini oshirish va mablag‘lardan samarali foydalanish uchun eng maqbul sohalarni aniqlash hal qiluvchi ahamiyatga ega”³¹.

Investitsiya tahlili ishlab chiqilgan loyihalarning iqtisodiy samaradorligini omillar ta‘sirini hisobga olgan holda baholashni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon eng yuqori daromad keltiradigan sohalarga mablag‘ yo‘naltirilishini ta‘minlashga, shu bilan birga xatarlarni kamaytirib, samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini takomillashtirish uchun ularning muvaffaqiyatini ta‘minlovchi omillarni chuqur o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bunday tahlil korxonaning moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyatini baholaydigan ko‘rsatkichlar tizimiga asoslanishi lozim. Ushbu yondashuv asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi va qo‘shimcha sarmoya yoki yordam talab etiladigan sohalarni aniqlashga ko‘maklashadi (1.3-rasm).

“Inventarizatsiya azaldan (miloddan avvalgi 3400-2980-yillar) beri buxgalteriya hisobi jarayonining ajralmas qismi bo‘lib kelganligi va uni amalga oshirishning huquqiy asoslari hamda usullari uzluksiz takomillashtirilganiga qaramay, inventarizatsiyalashni boshqarish va ularning ta‘sirini buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish bilan bog‘liq muammolar hanuz saqlanib qolmoqda”³². Bu masalaga oid qonunchilik va me‘yoriy hujjatlardagi qoidalar ko‘pincha bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, inventarizatsiyaga uslubiy yondashuvlarning o‘zgarishi shundan iboratki, u shunchaki inventarizatsiya qilinayotgan obyektlarning haqiqiy mavjudligini ma‘lum bir sanadagi hisob registrlari bilan solishtirishdan iborat bo‘lmasligi lozim. Inventarizatsiya jarayonida obyektlarni hisobga olishda tan olish va ular haqidagi

³¹ Davydenko N., Skryphyk H. Evaluation methods of investment attractiveness of Ukrainian agricultural enterprises //Baltic Journal of Economic Studies. – 2017. – T. 3. – №. 5. – С. 103-107.

³² Мустафина А. Ф., Хусаинова А. М. Инвентаризация и документация как элемент метода бухгалтерского учета //Хроноэкономика. – 2018. – №. 5 (13). – С. 34-41.

ma'lumotlarni hisobotda yoritish mezonlariga muvofiqligini baholash, shuningdek ularning holatini inobatga olgan holda inventarizatsiya o'tkazish sanasidagi pul (qiymat) bahosini aniqlash ham amalga oshirilishi lozim. Fikrimizcha, "barcha belgilangan talablar bajarilganda, inventarizatsiya nafaqat to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita tasdiqlash kabi tekshirish xususiyatlariga, balki hisobot uchun zarur bo'lgan boshqa muhim sifatlarga ham javob beradigan buxgalteriya hisobotlarini tuzish imkonini beradi. Bu sifatlar qatoriga dolzarblik, ahamiyatlilik, ishonchlilik, taqqoslanuvchanlik, o'z vaqtidalik va tushunarlik kiradi. Mazkur sifatlar axborotning foydalanish darajasini oshiradi, uni qabul qilish maqsadidan qat'i nazar, foydalanuvchilarning barcha guruhlar uchun qiymatini oshiradi"³³.

Har qanday obyektни o'rganish, avvalo uning tarkibi va mazmuniga oydinlik kiritishdan boshlanadi. "O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasiga muvofiq, Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ma'lumotlarining to'g'riligi hamda ishonchliligi aktivlar va majburiyatlarni majburiy tarzda inventarizatsiyadan o'tkazish orqali tasdiqlanadi"³⁴. Inventarizatsiya paytida tegishli obyektlarning haqiqatda mavjudligi aniqlanadi, ular buxgalteriya hisobi registrlari ma'lumotlari bilan taqqoslanadi. Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 19-sonli BHMS "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish", shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14 iyundagi 131-sonli buyrug'ining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun Kontseptual asos"³⁵da ham inventarizatsiya ta'riflanmagan.

Tor ma'noda inventarizatsiyani mol-mulk inventarizatsiyasi yoki ro'yxatini olish deb ta'riflash mumkin. Bu ta'rif lotinchada "inventarium", ya'ni "xo'jalik buyumlari" degan ma'noni anglatadi. Biroq, bu yondashuv etarli emas, chunki u mavjud amaliyot va cheklovlarni hisobga olmaydi. Birinchidan, shunchaki ro'yxat

³³ Ruziyeva D. Qishloq xo'jaligi korxonalarida inventarizatsiya natijalari tahlilining nazariy asoslari //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 2. – №. 7.

³⁴ O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/2931253#2931578>

³⁵ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 131-sonli buyrug'ining 1-ilovasi, <https://lex.uz/acts/7015916>

tuzish uni buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha tekshirishni anglatmaydi. Ikkinchidan, inventarizatsiya qilinishi lozim bo'lgan buyumlar ro'yxati moddiy boyliklar bilan cheklanmaydi.

O'zbek tilining izohli lug'atida ham, "Inventarizatsiya- korxona, muassasa, xo'jalik va shu kabilarning balansida turgan ashyolarning mavjudligini, ularning qanday saqlanayotganligini, shuningdek, ombor xo'jaligi bo'yicha ma'lumotlarni davriy tekshirishdan o'tkazish, yo'qlama qilish"³⁶ sifatida ta'riflanadi.

Inventarizatsiya buxgalteriya hisobining ajralmas qismi bo'lib, u hujjatlashtirish, baholash, hisob-kitoblar, hisob-fakturalar, ikki yoqlama yozuv, balans va moliyaviy hisobot kabi boshqa unsurlar bilan uzviy bog'liq. Bu unsurlarning barchasi aniq va ishonchli moliyaviy ma'lumotlarni ta'minlash uchun o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Shu sababli, "inventarizatsiyani buxgalteriya hisobining boshqa tartib-qoidalariga qat'iy amal qilgan holda o'tkazish muhim ahamiyatga ega"³⁷. Qishloq xo'jaligi korxonalarida inventarizatsiyani tashkil qilish va boshqarishning yuqorida keltirilgan buxgalteriya hisobi unsurlari bilan o'zaro aloqasini batafsil ko'rib chiqamiz.

1. **Hujjatlashtirish** - ma'lum bir shaklda tuzilgan va zarur ma'lumotlarni o'z ichiga olgan rasmiy tan olingan hujjatlar to'plami sifatida - inventarizatsiya natijalarini qayd etishni talab etadi. Xo'jalik faoliyatining ayrim holatlari, masalan, mol-mulkning eskirishi, obyektlarning shikastlanishi, o'g'irlanishi, qayta navlarga ajratilishi va ortiqcha miqdorlar har doim ham ular sodir bo'lishi bilan darhol qayd etilmasligi mumkin. Biroq, bu xo'jalik faktlari inventarizatsiya jarayonida aniqlanadi va ular buxgalteriya hisobi hamda hisobot tizimlarida hujjatlashtirilishi va qayd etilishi shart.

2. **Baholash va kalkulyatsiya.** Baholash buxgalteriya hisobi usulining asosiy unsuri hisoblanadi. U usulning boshqa barcha unsurlarini amalga oshirishga imkon beradi va buxgalteriya hisobining barcha obyektlari hamda ularning o'zgarishlarini yagona qiymatda – pul miqdorida aks ettirilishini ta'minlaydi.

³⁶https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20I.pdf

³⁷ Арбатская Т. Г. Роль инвентаризации в обеспечении достоверности бухгалтерской отчетности организаций бюджетной сферы // Финансовый журнал. – 2020. – Т. 12. – №. 2. – С. 96-110.

Inventarizatsiya jarayonida obyektlar ularning holati asosida baholanadi. Bu esa buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchilarga hisobning to'liqligini, mol-mulkdan foydalanishning xavfsizligi va samaradorligini, qabul qilingan majburiyatlar va olingan moliyaviy natijalarni tahlil qilish hamda nazorat qilish imkonini beradi. Shuningdek, subyektga nisbatan iqtisodiy qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Kalkulyatsiya aktivlarning haqiqiy tannarxini aniqlash, turli hisob davrlari o'rtasidagi xarajatlar va daromadlarni farqlash imkonini beradi. U inventarizatsiyada tugallanmagan ishlab chiqarish va qurilish ishlarining tannarxini aniqlashda, kelgusi davr xarajatlari, daromadlari va xarajatlari uchun zaxiralarning asoslanganligini belgilashda hamda boshqa ko'plab hollarda keng qo'llaniladi.

3. Inventarizatsiya jarayoni natijasida aniqlangan ortiqchalik, kamomad va qayta tasniflashlar, inventarizatsiya o'tkazilgan hisobot davrida buxgalteriya kitoblarida **ikkiyoqlama yozuv** usuli orqali qayd etiladi.

4. **Balans va hisobot.**-yillik buxgalteriya hisobotini tuzishdan oldin o'tkazilgan inventarizatsiya natijalari tegishli hisobot-yilining balansi va-yillik buxgalteriya hisobotida aks ettirilishi lozim.

5. Buxgalteriya hisobi usulining ko'rib chiqilayotgan unsuri - inventarizatsiya, har qanday buxgalteriya subyektiga nisbatan qo'llaniladigan quyidagi **buxgalteriya tartib-qoidalari** bilan chambarchas bog'liq:

1) Dastlabki tan olish va baholash.

2) Baholashni qayta ko'rib chiqish (keyingi baholash).

3) Moliyaviy hisobotlarda subyekt haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish va ochib berish.

4) Moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini tasdiqlash.

Yuqorida sanab o'tilgan amaliyotlarning har biri inventarizatsiya bilan o'zaro bog'liqligini tahlil qilishga urinib ko'ramiz.

1) Obyektni tan olish va dastlabki tan olishda baholash.

Agar biror obyekt buxgalteriya hisobida qayd qilingan bo'lsa, inventarizatsiya uning to'g'ri tan olinishi, tasniflanishi va baholanishini tasdiqlaydi. Inventarizatsiyaning asosiy maqsadlaridan biri aktivlarni hisobga olishdagi xatolarni

tuzatishdir. Agar aktiv buxgalteriya hisobida tan olinmagan, noto'g'ri tasniflangan yoki uning qiymati noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa, bunday xatoni inventarizatsiya natijasida tuzatish lozim. Misol uchun, inventarizatsiya baholanishi va buxgalteriya hisobiga kiritilishi kerak bo'lgan hisobga olinmagan mulkni aniqlashga yordam beradi. Shu qatorda, inventarizatsiyalash jarayonida tovar-moddiy boyliklar sifatida hisobga olingan, aslida esa asosiy vosita bo'lgan aktivlarni ham aniqlash mumkin. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini inventarizatsiya qilishda nafaqat ularning mavjudligi (haqiqiyliigi), hisobvaraqlarda to'g'ri aks ettirilganligi va summalarining asoslanganligi, balki ularning vujudga kelish va so'ndirish muddatlarini ham tekshirish maqsadga muvofiq.

2) Baholashni tuzatish (keyingi baholash) hisobot ma'lumotlarining foydaliligi uchun eng muhim omillardan biridir. U foydalanuvchilarning turli guruhlarini ehtiyojlarini qondirishda va doimiy o'zgaruvchan tashqi va ichki sharoitlarni hisobga olishda axborotning barqarorligini ta'minlaydi.

Buxgalteriya hisobi obyektlarining qiymati ular tashkilotda bo'lgan davrda turli omillar, masalan, inflyatsiya, amortizatsiya va bozor kon'yunkturasi ta'sirida sezilarli darajada O'zgarishi mumkin. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan haqiqiy ma'lumotlar o'rtasida katta tafovutlar bo'lmasligi uchun bu obyektlarning baholarini ularning hozirgi holatiga qarab muntazam ravishda tuzatib borish zarur. Inventarizatsiya o'tkazish yoki barcha talab qilinadigan sifat xususiyatlariga mos keladigan hisobotlarni tayyorlash uchun, obyektning mavjudligini tasdiqlash etarli emas. Buning uchun uning joriy holati va yangilangan qiymatini baholash ham zarur. Baholashsiz inventarizatsiya o'zining nazorat vazifasini yo'qotadi va shunchaki buxgalteriya hisobi obyektlarining ro'yxatini tuzishga aylanib qoladi.

3) Buxgalteriya hisobi obyektlari haqidagi ma'lumotni taqdim etish va oshkor qilish, shu jumladan buxgalteriya axborotini shakllantirish hamda ushbu ma'lumot qanday maqsadda olinishidan qat'iy nazar, cheklanmagan miqdordagi foydalanuvchilarning undan foydalanishini ta'minlash.

“Kontseptual asosda buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarni tuzish borasida bir qator tamoyil va talablar, 1-ilovada foydalanuvchilar uchun manfaatli

bo'lgan hisob va hisobot ma'lumotlarining sifat xususiyatlari va bu xususiyatlarga erishishda inventarizatsiyaning ta'siri keltirib o'tilgan"³⁸.

Olingan xulosalar qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi obyektlarini inventarizatsiya qilish bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalarni yanada takomillashtirishga hissa qo'shishi mumkin.

1.2. Inventarizatsiya o'tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirishning normativ-huquqiy asoslari

Qishloq xo'jaligi korxonalari o'ziga xos jihatlari va faoliyatining mavsumiyligi tufayli boshqaruv jarayonlarida aniq va ishonchli ma'lumotlarga ehtiyoj sezadi. Mol-mulk, aktivlar va majburiyatlarning to'g'ri hisob-kitobi korxonalar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu ma'noda inventarizatsiya jarayoni qishloq xo'jaligi korxonalarida alohida o'ringa ega bo'lib, resurslarning real holatini aniqlash va hisobotning to'g'ri tuzilishiga yordam beradi.

“Inventarizatsiya bu korxonadagi barcha moddiy va nomoddiy aktivlarning, pul mablag'larining, qarz majburiyatlarining hamda boshqa mulk shakllarining real holatini aniqlash jarayonidir. U tashkilotning moliyaviy hisobotlarida aks etgan ko'rsatkichlarni amaldagi holat bilan solishtirish va aniqlik kiritish maqsadida amalga oshiriladi. Inventarizatsiyaning asosiy vazifasi – korxona balansida mavjud bo'lgan barcha mulklar va majburiyatlar bo'yicha real, haqqoniy va to'liq ma'lumotlarni ta'minlashdir. Shuningdek, inventarizatsiya natijasida mablag'lar, resurslar va mol-mulklarning samarasiz foydalanilishi, yo'qotilishi yoki ortiqcha bo'lishi kabi holatlar aniqlanadi. Bu jarayon orqali korxonadagi moliyaviy holatning barqarorligi, resurslardan samarali foydalanish va mablag'larning maqsadga muvofiqligini nazorat qilish mumkin.

³⁸ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 131-sonli buyrug'ining 1-ilovasi, <https://lex.uz/acts/7015916>

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya o‘tkazish korxonaning mol-mulklarini aniq hisobga olish, ularning haqiqiy mavjudligini aniqlash va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Inventarizatsiya orqali korxona resurslari to‘liq nazorat qilinadi, ortiqcha yoki yo‘qotilgan mablag‘lar aniqlanadi, bu esa moliyaviy barqarorlikni saqlash va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatining mavsumiyliги va resurslarning katta hajmi inventarizatsiya jarayonining o‘z vaqtida va to‘g‘ri tashkil etilishini talab qiladi. Shuningdek, inventarizatsiyaning to‘g‘ri o‘tkazilishi korxonaning ichki nazorat tizimini mustahkamlaydi va moliyaviy boshqaruvni takomillashtiradi”³⁹.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, buxgalteriya hisobi va buxgalteriya hisoboti ma’lumotlarining ishonchliligini ta’minlash uchun qishloq xo‘jaligi tashkilotlari belgilangan hollarda mol-mulk va majburiyatlarni majburiy tartibda, boshqa hollarda esa o‘z ixtiyoriga ko‘ra inventarizatsiya qilishlari kerak⁴⁰, bu har bir tashkilotning hisob siyosatida mustahkamlanishi lozim. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (1-son BHMS) “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati”da Hisob siyosati tashkilot moliyaviy hisobotni tayyorlash va tuzish uchun foydalanadigan maxsus printsiplarni, konventsionalarni, tartib va amaliy yondashuvlarni ifodalaydi. Hisob siyosati barcha tegishli BHMSlarni qo‘llash asosida moliyaviy hisobot tuzilishini ta’minlashi”⁴¹ lozimligi belgilab qo‘yilgan. Shu bilan bir qatorda, BHMSlarda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, moliyaviy hisobot quyidagi talablarga javob berishi ko‘zda tutilgan:

- a) foydalanuvchilar ehtiyoji uchun ahamiyatlilik;
- b) ishonchlilik;
- v) taqqoslanuvchanlik;
- g) tushunarlilik.

³⁹ Ruziyeva D. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya natijalari tahlilining nazariy asoslari //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 2. – №. 7.


⁴⁰ O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/2931253#2931578>

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (1-son BHMS) "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati", <https://lex.uz/acts/7050497>

Inventarizatsiya jarayoni korxonaning ma'lum bir vaqtdagi aktivlari va majburiyatlarini baholashning tizimli usulidir. Bu tashkilotning qoidalari va ichki siyosatiga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi kerak bo'lgan muhim nazorat vositasidir.

Inventarizatsiyaning maqsadi tashkilotning aktivlarini aniqlash, ularning joriy holatini baholash, saqlash va foydalanish standartlariga rioya etilishini ta'minlash, moliyaviy majburiyatlarni tahlil qilishdan iborat.

Inventarizatsiya turli mezonlarga ko'ra tasniflanadi. Tekshirilayotgan obyektlarning ko'lamiga qarab, to'liq va qisman inventarizatsiya farqlanadi. Uslubiy jihatdan inventarizatsiya dalilli (faktik) va hujjatli bo'lishi mumkin. Rejai va rejadan tashqari inventarizatsiya ham mavjud. (1.5-rasm).



1.5-rasm. Inventarizatsiyalash natijalari⁴²

Reja asosidagi inventarizatsiya qishloq xo'jaligi tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlangan, oldindan belgilangan muddatlarda o'tkaziladi. Rejali inventarizatsiyalarga, xususan, tashkilot-yillik hisobotni tayyorlashdan oldin amalga oshiradigan inventarizatsiya kiradi.

⁴² Muallif tomonidan 19-sonli BHMS asosida shakllantirilgan.

Inventarizatsiya natural yoki hujjatli usulda o'tkazilishi mumkin. Natural inventarizatsiyasini o'tkazishda buyumlarning haqiqatda mavjudligi sanash, o'lchash yoki tortish yo'li bilan aniqlanadi. Hujjatli inventarizatsiya o'tkazishda buyumlar bilan bog'liq hujjatlar ko'rib chiqiladi.

“O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish”da inventarizatsiyani o'tkazishning asosiy qoidalari (2-bob), Alohida turlardagi aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiyadan o'tkazish (3-bob), Inventarizatsiya bo'yicha solishtirish qaydnomalarini tuzish (4-bob), Inventarizatsiyadagi farqlarni tartibga solish va inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish (5-bob) batafsil ko'rsatib o'tilgan”⁴³.

Aktivlar, majburiyatlar va boshqa moliyaviy hisoblarning haqiqiy qiymatlari bilan korxona kitoblarida qayd etilgan qiymatlari o'rtasidagi farqni bir necha bosqichlar orqali bartaraf etish mumkin. Aktivlar, mol-mulk, pul mablag'lari va majburiyatlardagi tafovutlar sabablarini o'rganib chiqqandan so'ng, biz aybdorlarni aniqlaymiz va bu muammolarni tashkilotning moliyaviy faoliyati yoki byudjetidagi o'zgarishlar bilan bog'laymiz. Keyin biz ushbu farqlarni hisobga olish uchun yozuvlarimizni moslashtiramiz.

“Qimmatliklarning belgilangan limitlari doirasidagi yo'qotishlar esa tashkilot rahbarlari tomonidan ishlab chiqarish va davr xarajatlari hisobidan yoki byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlashni qisqartirish yo'li bilan hisobdan chiqariladi. Kamomad faqat haqiqatan aniqlangan taqdirda zarar sifatida qabul qilinishi mumkin”⁴⁴.

Shu bilan birga, belgilangan me'yorlar doirasida qimmatli buyumlarning yo'qotilishi qayta tasniflash ortiqchaligini hisobga olgan holda aniqlanadi. Agar qayta hisobga olishdan keyin qimmatli buyumlar kamomadi yuzaga kelsa, tabiiy

⁴³ O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish”, <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

⁴⁴ Рузиева Д. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНВЕНТАРИЗАЦИИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 10. – С. 183-196.

kamayish me'yorlari faqat kamomad aniqlangan buyumlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Qimmatbaho buyumlar yo'qolishining belgilangan me'yorlari mavjud bo'lmaganda, bu yo'qotish kamomad deb hisoblanadi.

Kamomadlar va zararlar uchun javobgar bo'lgan aniq shaxslarni aniqlash imkoni bo'lmagan taqdirda, tashkilotlar "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq, kutilayotgan yo'qotish normasidan ortiqcha bo'lgan qimmatli buyumlar kamomadini va qimmatli buyumlarning shikastlanishi natijasidagi yo'qotishlarni ishlab chiqarish yoki davr xarajatlari sifatida hisobdan chiqarishi yoxud ularni moliyalashtirish (mablag'lar) ni kamaytirish uchun tashkilot smetasida aks ettirishi mumkin"⁴⁵.

Mazkur vaziyatda qimmatli ashyolarni yo'qotish belgilangan me'yordan ortiq bo'lganda va ularga zarar yetkazilgan taqdirda, ularni "hisobdan chiqarishni rasmiylashtirish uchun taqdim etiladigan hujjatlarda yetishmovchilik va yo'qotishlarning oldini olish bo'yicha ko'rilgan choralar albatta ko'rsatilishi"⁴⁶ lozim.

Bunday hujjatlarda, shuningdek, hodisaning sabablari, aybdor shaxslar (agar aniqlangan bo'lsa) va yo'qotilgan yoki zararlangan mulkning qiymati asoslantirilgan holda bayon etilishi talab etiladi.

Qimmatli ashyolarning buzilishi bilan bog'liq holatlar bo'yicha xulosa texnik nazorat bo'limi yoki tegishli sifat nazorati inspeksiyalari tomonidan taqdim etilishi mumkin. Ushbu xulosalar hisobdan chiqarish jarayonining qonuniyligi va asoslanganligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizom, <https://lex.uz/docs/264422#264462>

⁴⁶ Ruziyeva D. F. Qishloq xo'jaligi korxonalarida tayyor mahsulotlar inventarizatsiyasi natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish xususiyatlari //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – T. 4. – №. Maxsus son. – C. 334-343.


Inventarizatsiya natijalari u o'tkazilgan oy uchun buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirilishi, yillik inventarizatsiya natijalari esa korxonaning yillik moliyaviy hisobotiga kiritilishi lozim.

Hisobot yilida o'tkazilgan inventarizatsiya jarayoni natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu hujjatga 5-ilova sifatida ilova qilinadigan inventarizatsiya natijalari to'g'risidagi hisobotdan olish mumkin.

Inventarizatsiya va buxgalteriya hisobi ma'lumotlarida aniqlangan qiymatlar o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar tashkilot rahbariga ko'rib chiqish uchun taqdim etilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish"da inventarizatsiya o'tkazishning umumiy qoidalari belgilab berilgan bo'lsada, inventarizatsiya o'tkazishning soha va tarmoqqa oid xususiyatlari o'z aksini topmagan, shu bois, qishloq xo'jaligi korxonalari aktivlar va majburiyatlar bo'yicha inventarizatsiyani quyidagi muddatlarda o'tkazishlarini tavsiya qilamiz:

- Urug' va yem-xashak (ozuqa) --yilda kamida ikki marta;
- Yoqilg'i – har oyda;
- Veterinariya dori-darmonlari, xomashyo va boshqa moddiy boyliklar--yilda bir marta;
- Qimmatbaho buyumlar va o'z vazifasini o'tab bo'lgan detallar-yilda ikki marta (1.6-rasm).



1.6-rasm. Qishloq xo‘jalik korxonalarida inventarizatsiyani o‘tkazish muddatlari bo‘yicha tavsiyalar⁴⁷

O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS)ga ko‘ra, “voyaga etgan mahsuldor va ishchi hayvonlar inventarizatsiya ro‘yxatlariga kiritiladi. Bu ro‘yxatlarda hayvonning identifikatsiya raqami (tamg‘a yoki belgi), laqabi, tug‘ilgan-yili, zoti, jismoniy holati, tirik vazni va birlamchi qiymati aks ettiriladi. Hayvonning zoti uning veterinariya pasporti ma’lumotlari asosida aniqlanadi. Alohida qimmatli hayvonlar, masalan, nasldor hayvonlar, ish hayvonlari va cho‘chqalar (urg‘ochi va erkak cho‘chqalar ham) alohida-alohida ro‘yxatga olinadi. Asosiy podaning boshqa a‘zolari yoshi va jinsi bo‘yicha guruhlariga ajratiladi, har bir guruhda hayvonlar soni va ularning tirik vazni ko‘rsatiladi. Yosh qoramollar, nasldor otlar va ish hayvonlari ham ro‘yxatlarga alohida-alohida kiritiladi. Ularning identifikatsion raqamlari, laqablari, jinsi va zoti ham qayd etiladi. Bo‘rdoqiga boqilayotgan hayvonlar, jumladan yosh cho‘chqalar, qo‘ylar, echkilar, parrandalar va boshqa turlar ro‘yxatlarga buxgalteriya hisobida qo‘llaniladigan nomenklatura bo‘yicha kiritiladi. Ro‘yxatlarda har bir guruhdagi hayvonlar soni va ularning tirik vazni ko‘rsatiladi. Ro‘yxatlar hayvon turlari, tsexlar, xo‘jaliklar, bo‘limlar, brigadalar va moddiy javobgar shaxslar bo‘yicha tuziladi”⁴⁸. Bizning fikrimizcha chorvachilik korxonalarida hayvonlarni har chorakda inventarizatsiyadan o‘tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya o‘tkazish tartibini quyidagi ketma-ketlikda tushuntirish o‘rinli hisoblanadi, Inventarizatsiya o‘tkazishda dastlab, xo‘jalikdagi mavjud vaziyat o‘rganilsa, so‘ngra ombor va bo‘limlarda hisobning yuritilishi tahlil qilinadi, oxirgi bosqichda hujjatlarda aks ettirilgan ma’lumotlar fonida zaxiralarning amalda mavjudligi tekshiriladi (1.7-rasm).

⁴⁷ Muallif tomonidan taklif qilingan.

⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”, <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>



1.7-rasm. Qishloq xo'jaligi korxonalarida inventarizatsiya o'tkazish ketma-ketligi⁴⁹

“TMZ quyidagi hollarda inventarlashdan o'tkazilishi shart:

-yillik moliyaviy hisobotni tuzish oldidan, inventarlash hisobot-yilining 1 oktyabridan kechiktirmay o'tkaziladigan mol-mulkdan tashqari.

Ayrim joylar va mavsumiy tusda ishlaydigan korxonalarda ishlab chiqarish zaxiralari ular eng kam miqdorda qolganda quyidagi hollarda inventarlanadi:


- asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklar qayta baholanganda;
- moddiy javobgar shaxslar almashganda (ishlarni qabul qilish – topshirish kunida);
- o'g'irlik yoki suiiste'mol, shuningdek, boyliklarni ishdan chiqarish faktlari aniqlanganda;
- tabiiy ofatlar, yong'inlar, falokatlar yoki g'ayritabiiy sharoitlar yuzaga keltirgan boshqa favqulodda vaziyatlar yuz berganda;
- xo'jalik yurituvchi subyekt tugatilganda (qayta tashkil etilganda) tugatish (ajratish) balansini tuzish oldidan va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda”⁵⁰.

Zarurat tug'ilganda, qishloq xo'jaligi tashkiloti rahbarining qaroriga ko'ra, yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, chorva mollarini qishlatish, bahorgi dala ishlari va kuzgi hosil yig'imi yakunlangandan so'ng hamda boshqa hollarda ham inventarizatsiya o'tkazilishi mumkin.

⁴⁹ Muallif ishlanmasi.

⁵⁰ Ruziyeva D. Qishloq xo'jaligi korxonalarida inventarizatsiya natijalari tahlilining nazariy asoslari //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 2. – №. 7.

“Inventarizatsiya jarayonida turli usullar qo‘llanilib, ular korxona faoliyatining turiga, mulk hajmiga va tashkilotning boshqa xususiyatlariga bog‘liq”⁵¹ (1.8-rasm).




1.8-rasm. Inventarizatsiya usullari⁵²

Inventarizatsiya bir nechta usullar orqali amalga oshiriladi. To‘liq inventarizatsiyada barcha aktiv va majburiyatlar batafsil tekshiriladi, bu eng aniq natija beradi, biroq ko‘p vaqt talab qiladi. Tanlanma usulda faqat ayrim obyektlar nazorat qilinadi, bu tezkor va samarali hisoblanadi. Qisqa muddatli inventarizatsiya tez-tez o‘tkazilib, o‘zgaruvchan resurslar ustidan doimiy nazoratni ta’minlaydi. Hujjatli usulda mol-mulk bevosita emas, balki hujjatlar orqali tekshiriladi. Moddiy aktivlarni o‘lchash usuli asosiy vositalarning real holatini aniqlaydi. Vizual tekshiruvda mahsulotlar ko‘zdan kechiriladi, texnik tekshiruvda esa murakkab uskunalarning ish holati baholanadi.

⁵¹ Ruziyeva D. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya natijalari tahlilining nazariy asoslari //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 2. – №. 7.

⁵² Muallif tomonidan 19-sonli BHMS asosida ishlangan.



1.9-rasm. Inventarizatsiya natijalarining aks etishi⁵³

“Birinchii navbatda, korxonalar resurslarining katta hajmi va geografik joylashuvi sababli inventarizatsiya jarayoni uzoq vaqt talab qilishi mumkin. Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligi faoliyatining mavsumiyliigi va resurslarning harakatlanishi jarayonida zaxiralarning aniqligi kamayadi, bu esa mol-mulklarni hisobga olishni qiyinlashtiradi. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun maxsus texnologik vositalardan foydalanish”⁵⁴.

“Qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya o‘tkazishni takomillashtirish bo‘yicha quyidagilar taklif etiladi:

- Qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishni joriy etish lozim.

- Korxonalarda inventarizatsiyani to‘g‘ri va samarali o‘tkazish uchun xodimlarga maxsus o‘quv dasturlari joriy etilishi kerak. Ushbu dasturlar inventarizatsiya qoidalari, texnologiyalari va usullarini o‘rgatish bilan birga, xodimlar malakasini oshirish va inventarizatsiya natijalarining ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi”⁵⁵.

⁵³ Muallif ishlanmasi.

⁵⁴ Baboyevich M. A., Ismailovna M. S. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini tahlil qilish //Miasto Przyszłości. – 2024. – T. 49. – S. 597-611.

⁵⁵ Рузиева Д. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНВЕНТАРИЗАЦИИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 10. – С. 183-196.

1.3. Inventarizatsiya natijalari tahlilining nazariy jihatlari

Inventarlash jarayonining eng muhim vazifasi — mol-mulkning asl holatda mavjudligini aniqlashdir. Ushbu jarayonda aktivlar va majburiyatlar buxgalteriya hisoboti bilan taqqoslanib, ularning to‘g‘ri qayd etilganligi tekshiriladi. Shunday qilib, korxonaning moliyaviy hisoboti va amaliy holati o‘rtasida muvofiqlik ta‘minlanadi.

Har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektning barcha mol-mulki, u qayerda joylashganidan va turli moliyaviy majburiyatlarga bog‘liq bo‘lishidan qat‘iy nazar, doimiy ravishda inventarizatsiya qilinishi zarur. Bu, korxona aktivlarining aniq holatini bilish va ularni samarali boshqarishga imkon beradi.

Bundan tashqari, korxona hisobida qayd etilgan, lekin to‘liq egalik huquqi mavjud bo‘lmagan mol-mulklar ham inventarizatsiyadan o‘tkazilishi kerak. Masalan, mas‘uliyatli saqlashga berilgan buyumlar, ijara asosida olingan aktivlar yoki qayta ishlash uchun qabul qilingan mahsulotlar. Shuningdek, turli sabablarga ko‘ra hisobga olinmagan yoki e‘tibordan chetda qolgan mol-mulklar ham alohida ko‘rib chiqilishi va ro‘yxatga olinishi shart.

Inventarizatsiya jarayonida mol-mulklar, ularning joylashgan joylari hamda ular uchun javobgar shaxslar aniq belgilanib, har bir aktivning holati tekshiriladi. Bu usul aktivlarni to‘g‘ri nazorat qilish va mas‘uliyatni taqsimlash uchun muhim ahamiyatga ega.


Tovar-moddiy zahiralarning haqiqiy holatini aniqlash, ularning sof sotish qiymatini tasdiqlash va zahiralarni buzilmasligini ta‘minlash maqsadida, korxonalar yiliga kamida bir marotaba majburiy ravishda inventarizatsiya o‘tkazishlari kerak. Bu jarayon korxonaning moliyaviy va operatsion faoliyatini samarali boshqarishda muhim vositadir.

“Tovar-moddiy zaxiralarni inventarlash O‘zR 19-son BHMS “Inventarlashni tashkil etish va o‘tkazish” bilan belgilangan tartibda o‘tkaziladi”⁵⁶.

“Inventarlash chog‘ida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralarning

⁵⁶ O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”, <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

qiymatini kirim qilish boshqa operatsion daromadlar sifatida aks ettiriladi. Kamomadi inventarlash vaqtida aniqlangan yetishmaydigan tovar-moddiy zaxiralarning balans qiymati aybdor shaxslar aniqlanishiga qadar kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlarni hisobga olish hisobvarag‘ida aks ettiriladi”⁵⁷.



1.10-rasm. “Inventarizatsiya o‘tkazishni asoslovchi holatlar”⁵⁸

“Inventarizatsiya natijasida aniqlangan tovar-moddiy zaxiralar kamomadi summasi qonun hujjatlarida belgilangan hollarda, tabiiy kamayish normalari doirasida, shuningdek kamomadning aniq aybdorlari aniqlanmagan yoki uni moddiy javobgar shaxslardan undirish mumkin bo‘lmagan hollarda uni hisobdan chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilingan hisobot davridagi moliya-xo‘jalik faoliyati natijalariga kiritiladi.

Aniq aybdor shaxslar aniqlangan taqdirda inventarizatsiya natijasida aniqlangan tovar-moddiy boyliklar kamomadi summasi moddiy javobgar shaxsdan yoki aybdor shaxsdan undiriladi”⁵⁹.

⁵⁷ Ruziyeva D. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya natijalari tahlilining nazariy asoslari //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 2. – №. 7.

⁵⁸ 19-sonli BHMS asosida tuzilgan.

⁵⁹ Ruziyeva D. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya natijalari tahlilining nazariy asoslari //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 2. – №. 7.

Inventarlash jarayonida komissiyaning kamida bitta a'zosi ishtirok etmasa, bu holat inventarlash natijalarining haqiqiy emasligi sabab qilib olinadi.

Doimiy faoliyat yurituvchi inventarlash komissiyalarining vazifalari:

boyliklar saqlanishini ta'minlash uchun profilaktika ishlarini tashkil etish, zarurat tug'ilganda tsex, bo'lim, shu'ba rahbarlarining hisobotlarini tinglash;

inventarlash jarayonlarini tashkil etish va ishchi komissiya a'zolariga ko'rsatmalar berish;

agar inventarlash qoidalari buzilganligi aniqlansa yoki boshqa sabablar mavjud bo'lsa, rahbar topshirig'i bilan takroriy yalpi inventarlash o'tkazish;

boyliklar kamomadi, shikastlanishi yoki boshqa buzilishlarga sababchi bo'lgan shaxslardan tushuntirish olish va aniqlangan muammolar bo'yicha jarayonlarni tartibga solish bo'yicha tavsiyalar berish.

Ishchi inventarlash komissiyalari mol-mulk va pul mablag'larini saqlash joylarida tekshiradi, ularning mavjudligini aniqlaydi hamda buxgalteriya bilan birgalikda natijalarni tahlil qiladi. Ular kamomadlar va ortiqchalarni hisobga olib, tabiiy yo'qotishlarni chiqarib tashlash bo'yicha takliflar ishlab chiqadi. Bundan tashqari, tovarlarni qabul qilish, saqlash va taqsimlash jarayonlarini yaxshilash hamda ortiqcha yoki ishlatilmaydigan boyliklarni sotish bo'yicha tavsiyalar beradi. Komissiya rahbarining buyrug'i asosida inventarlashni o'z vaqtida o'tkazib, hisob-kitobdagi aktivlarning haqiqiy qoldiqlarini to'liq va aniq ro'yxatga oladi, tovarlarning identifikatsiya ma'lumotlarini to'g'ri kiritishni ta'minlaydi va inventarlash hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtiradi. Komissiya a'zolari ma'lumotlarni buzib ko'rsatganlik uchun javobgar bo'lib, jarayon boshlanishidan oldin oxirgi kirim-chiqim hujjatlarini olishlari shart. Komissiya raisi hujjatlarga "inventarlashgacha..." deb viza qo'yib, inventarlashni boshlash uchun asos yaratadi. Mol-mulk javobgar shaxslar esa kirim-chiqim hujjatlarini topshirganliklari va mol-mulkni qabul qilib olganliklari haqida tilxat beradi.

"Inventarlashni o'tkazish oldidan ishchi inventarlash komissiyalari a'zolariga buyruq, komissiya raislariga esa plombir topshiriladi (inventarlash komissiyasi ishlaydigan butun ish vaqtida plombir komissiya raisida saqlanadi). Buyruqda

inventarlashni o'tkazishga doir ishni boshlash va tugatish muddatlari belgilanadi.

Agar mol-mulkni inventarlash bir necha kun mobaynida o'tkazilsa, moddiy boyliklar saqlanayotgan xona inventarlash komissiyasi ketayotganida muhrlanishi kerak. Inventarlash komissiyalari ishida tanaffus bo'lganda (tushlik vaqti, tunda, boshqa sabablarga ko'ra) ro'yxatlar inventarlash o'tkazilayotgan yopiq xonadagi yashikda (javon, seyfda) saqlanishi shart.

Buyruqlarni buxgalteriya inventarlashni o'tkazish to'g'risidagi buyruqlar bajarilishini nazorat qilish daftarida ro'yxatga oladi" (19-son BHMS 2-ilova).

Ishchi inventarlash komissiyasi tovar-moddiy boyliklarni tekshirishdan oldin yordamchi binolar va saqlash joylarini plombalab, og'irlik o'lchov asboblari sozlanganini va belgilangan muddatlarga rioya qilinishini ta'minlaydi. To'satdan inventarlashlarda barcha boyliklar komissiya nazoratida sanaladi, boshqalarda esa oldindan tayyorlanadi. Boyliklar guruhlariga bo'linib, nomi, navi va hajmi bo'yicha tartib bilan joylashtiriladi.

Qadoqlanmagan mahsulotlarning og'irligi (yoki hajmi) o'lchash va texnik hisob-kitoblar yordamida aniqlanadi. O'lchash bayonnomalari va hisob-kitoblar inventarizatsiya ro'yxatiga ilova qilinadi.

"Inventarizatsiya qilingan mol-mulk va obyektlarning nomlari, ularning miqdori belgilangan nomenklatura va o'lchov birliklari asosida ro'yxatga kiritiladi.

Ro'yxatlar inventarizatsiya ishchi guruhining barcha a'zolari va moddiy boyliklar uchun mas'ul shaxslar tomonidan imzolandi. Inventarizatsiya yakunida moddiy boyliklar uchun javobgar shaxslar quyidagilarni tasdiqlovchi tilxatga imzo qo'yadilar: inventarizatsiya guruhi tekshiruvni ularning ishtirokida o'tkazganligi, inventarizatsiya guruhi bilan hech qanday kelishmovchilik yo'qligi va ro'yxatga kiritilgan boyliklar saqlash uchun qabul qilinganligi.

Boyliklarning haqiqatda mavjudligini tekshirish paytida moddiy javobgar shaxslar o'zgargan taqdirda boyliklarni qabul qilgan shaxs inventarlash ro'yxatlariga ularni olganligi, topshirgan shaxslar esa ularni topshirganligi xususida imzo chekadilar.

Xo'jalikka tegishli bo'lmagan, biroq unda joylashgan boyliklarga alohida

ro'yxatlar tuziladi.

Inventarlash paytida inventarlash bo'yicha birlamchi hisob hujjatlarining tasdiqlangan namunaviy shakllari qo'llanilishi kerak.

Ish hayvonlari va mahsuldor mollar, parranda va asalari oilalari, ko'p-yillik o'simliklar, ko'chatzorlar inventarlanganda qishloq xo'jalik korxonalari uchun tasdiqlangan ro'yxat shakllari qo'llaniladi"⁶⁰.

Inventarlash ro'yxatlari mexanik yoki qo'l bilan to'ldiriladi, qo'l bilan yozilganda esa aniq, ravshan bo'lib, o'chirish va tuzatishlarga yo'l qo'yilmaydi. Har bir sahifada tartib raqami so'z bilan ifodalanadi va barcha boyliklarning umumiy miqdori ko'rsatiladi, o'lchov birligidan qat'iy nazar. Barcha tuzatishlar inventarizatsiya komissiyasi a'zolari va moddiy javobgarlar tomonidan imzolanadi. Agar moddiy javobgarlar inventarizatsiyadan keyin nomuvofiqliklarni topsalar, bu haqda imkon qadar tez, obyekt ochilishidan oldin, komissiyaga yozma xabar berishlari zarur. Xatolar, kamomad yoki ortiqchalar bo'yicha tushuntirishlar belgilangan muddatda taqdim etilishi shart.

"Inventarlash tugaganidan so'ng inventarlash to'g'ri o'tkazilganini nazorat tariqasida tekshirishlar o'tkazilishi mumkin. Ularni inventarlash komissiyalari a'zolari va moddiy javobgar shaxslar ishtirokida albatta inventarlash o'tkazilgan ombor, omborxona, shu'ba va hokazolar ochilishiga qadar o'tkazish kerak. Inventarlashlar to'g'ri o'tkazilganini nazorat tariqasida tekshirish natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi (BHMS 19-son 3-ilova) va inventarlash to'g'ri o'tkazilganligini nazorat tariqasida tekshirishlarni hisobga olish daftarida ro'yxatga olinadi" (BHMS 19-son 4-ilova).

Tovar-moddiy boyliklarni xatlovdan o'tkazish, umumiy qoidaga ko'ra, ular xonada joylashgan tartibda, ketma-ketlik asosida amalga oshirilishi lozim. Inventarizatsiya jarayonida bir turdagi tovar-moddiy zaxiralardan boshqasiga tartibsiz o'tishga qat'iyon yo'l qo'yilmaydi, chunki bu hisob-kitobda chalkashliklarga olib kelishi mumkin.

⁶⁰ Менгликулов Б. Совершенствование организационно-методических аспектов учета и аудита сельскохозяйственных животных // Экономика и инновационные технологии. – 2018. – №. 4. – С. 162-172.

Agar tovar-moddiy boyliklar bir moddiy javobgar shaxs tomonidan boshqarilsa-yu, ular turli alohida xonalarda joylashgan bo'lsa, inventarizatsiya ularning joylashgan o'rniga ko'ra, ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Qimmatbaho buyumlar to'liq xatlovdan o'tkazilgach, u joy saqlanishini ta'minlash maqsadida xonaning eshigi plombalanadi. Shundan so'ng, inventarizatsiya guruhi ishni davom ettirish uchun navbatdagi joyga o'tadi.

“Ishchi inventarizatsiya komissiyasi raisi yoki uning topshirig'iga binoan komissiya a'zolari ombor mudiri va boshqa moddiy javobgar shaxslar ishtirokida inventarizatsiyadagi buyumlarning haqiqatda mavjudligini majburiy sanash, tortish yoki qayta tortish yo'li bilan tekshiradilar. Tovar-moddiy boyliklar qoldig'i to'g'risidagi ma'lumotlarni moddiy javobgar shaxslar og'zidan yoki buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida ularning haqiqatda mavjudligini tekshirmasdan turib ro'yxatga olish qat'iyan taqiqlanadi”⁶¹.

Ana shu hisobvaraqlar (talabnomalar) boshqa korrespondentsiyalanuvchi hisobvaraqlar bilan oldindan solishtirilishi kerak.

Masalan, 4010 “Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan hisobvaraqlar” hisobvarag'i bo'yicha inventarizatsiya vaqtida ushbu hisobvaraqqa tegishli, ammo negadir boshqa hisobvaraqlarda, xususan 4890 “Boshqa debitorlar qarzlari” hisobvarag'ida aks ettirilgan summalarining mavjudligi yoki yo'qligi aniqlanishi lozim.

Agar xaridorlar yoki buyurtmachilar tomonidan tovarlar, xizmatlar yoki bajarilgan ishlar uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan bo'lsa, bu kechikish sabablari inventarizatsiya komissiyasi tomonidan tuziladigan bayonnomada albatta ko'rsatilishi kerak.

Tovar-moddiy boyliklarni ro'yxatga olish hujjatlarida tafovutlar aniqlangan taqdirda, mazkur boyliklarni qabul qilish yoki saqlash uchun mas'ul bo'lgan moddiy javobgar shaxslar bu holatlar yuzasidan yozma tushuntirishlar berishlari shart. Agar

⁶¹ Рузиева Д. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНВЕНТАРИЗАЦИИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 10. – С. 183-196.

noto'g'ri foydalanish yoki suiiste'mol holatlari aniqlansa, bu materiallar tergov organlariga yuborilishi belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Komissiya qimmatbaho buyumlarning saqlanishi uchun mas'ul xo'jalik yurituvchi subyektlardan inventarizatsiya ro'yxatlarining nusxalarini olgach, ushbu buyumlarning haqiqiy mavjudligini (ro'yxatdagi ma'lumotlarga asosan) hisob-kitob qilingan summalar bilan solishtiradi.

Inventarizatsiyada har bir buyumning boshlang'ich qiymati ham ko'rsatiladi.

Agar buyumlar eskirgan bo'lsa, ularning hozirgi holati hisobga olinadi. Ishchi inventarizatsiya qo'mitasi tomonidan belgilangan eskirish darajasi bir xil bo'lgan har bir buyum yoki buyumlar guruhi uchun eskirish foizi alohida ko'rsatiladi. Shu bilan birga, nomi bir xil bo'lsa-da, eskirish darajasi farq qiluvchi buyumlar alohida qayd etiladi.

Tozalash va ta'mirlash uchun yuborilgan maxsus kiyimlar (xalatlar) hamda dasturxonlar maishiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning hisob-fakturalari yoki kvitansiyalari asosida ro'yxatga olinadi.

Yaroqsiz holga kelgan yoki hisobdan chiqarilmagan buyumlar uchun ishchi inventarizatsiya qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda dalolatnoma tuziladi. Unda buyumlarning foydalanish muddati, yaroqsiz holga kelish sabablari va ularni xo'jalik maqsadlarida qayta ishlatish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

Idishlar turlari, ularning vazifasi va holatiga qarab (yangi, ishlatilgan, ta'mirtalab va hokazo) ro'yxatga olinadi. Tekshirishdan oldin idishlar quyidagi guruhlarga ajratilishi zarur:

- yog'ochdan yasalgan idishlar (yashiklar, bochkalar);
- kartondan tayyorlangan idishlar;
- metall idishlar (flyagalar, barabanlar);
- to'qimachilik mahsulotlari sifatidagi idishlar (qoplar).

Nuqsonli idishlar aniqlanganda, inventarizatsiya ishchi komissiyasi dalolatnoma tuzadi va unda nuqson sabablarini hamda javobgar shaxslarni ko'rsatadi.

Nasl berish qobiliyatiga ega, faol hayot kechirayotgan voyaga yetgan hayvonlar ro'yxatga olinadi. Bu ro'yxatlarda hayvonning identifikatsiya raqami (markasi, tamg'asi), nomi, tug'ilgan yili, zoti, semizligi, tirik vazni (ot, tuya, xachir va bug'ulardan tashqari, ular uchun vazn ko'rsatilmaydi), shuningdek, boshlang'ich qiymati qayd etiladi.

Hayvonning zoti tasniflash ma'lumotlariga asosan aniqlanadi.

Inventarizatsiya jarayonida buxgalteriya hisobidagi ma'lumotlar bilan real holatdagi tafovutlar aniqlansa, tegishli aktivlar bo'yicha solishtirish dalolatnomalari tayyorlanadi.

Taqqoslash vedomostlarida inventarizatsiya natijalari va buxgalteriya hisobi hamda inventarizatsiya ro'yxatlari (dalolatnomalari) o'rtasidagi farqlar batafsil ko'rsatiladi.

Tovar-moddiy zaxiralarning ortiqcha yoki kamligi, ularning buxgalteriya hisobidagi qiymati asosida solishtirish dalolatnomalarida aks ettiriladi.

Inventarlash va boshqa tekshiruvlar jarayonida aniqlangan boyliklarning amalda mavjudligi bilan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari o'rtasidagi tafovutlar quyidagi tartibda hal qilinadi:

Ortib qolgan moddiy boyliklar hisobga olinib, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijalarida kirim sifatida qayd etiladi. Keyinchalik ortiqcha chiqishlarning sabab va aybdor shaxslari aniqlanishi talab qilinadi;

Belgilangan me'yorlar doirasida yo'qolgan boyliklar esa, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbarlarining farmoyishiga asosan, ishlab chiqarish va muomala xarajatlaridan kamaytirish shaklida hisobdan chiqariladi. Shuni ta'kidlash kerakki, yo'qolish me'yorlari faqat amalda kamomad aniqlangan holatlarda qo'llaniladi;

Belgilangan me'yorlar doirasida yo'qotilgan boyliklar, ortiqcha moddalarga qayta navlarga ajratish orqali hisoblangan bo'lsa, bu holat e'tiborga olinadi. Agar qayta navlarga ajratishdan so'ng ham kamomad qolsa, tabiiy yo'qolish me'yorlari faqat kamomad aniqlangan boyliklar uchun qo'llaniladi;

Agar tasdiqlangan me'yorlar mavjud bo'lmasa, yo'qolish miqdori me'yorlardan ortiq kamomad sifatida hisoblanadi;

Yo‘qolish me‘yoridan oshib ketgan kamomadlar, shuningdek, boyliklarning shikastlanishi natijasida yuzaga kelgan zararlar aybdor shaxslarga yuklanadi.

Suiiste‘mol oqibatida yuzaga kelgan kamomad va zararlar aniqlanganda, tegishli hujjatlar kamomad va zararlar aniqlangan kundan boshlab 5 kun ichida tergov organlariga taqdim etilishi lozim. Aniqlangan kamomad va zarar summalari bo‘yicha esa da‘vo arizasi beriladi;

Buzilish faktlari texnik nazorat yoki sifat inspektsiyalaridan olingan xulosalar bilan tasdiqlanishi kerak. Tabiiy yo‘qolishdan ortiq kamomad va buzilishlarni hisobdan chiqarishda tergov yoki sud organlarining aybsizligini tasdiqlovchi qarorlar yoki tegishli tashkilotlarning xulosalari talab qilinadi.

Qayta navlarga ajratish natijasida yuzaga kelgan ortiqcha chiqish va kamomad faqat bitta davr, shaxs va tovarga nisbatan, ishonchli shaxs ruxsati bilan teng miqdorda ruxsat etiladi. Moddiy javobgarlar bu holatlarni batafsil tushuntiradi, va aybsiz kamomadlar inventarlash bayonnomalarida aybdorlarga kiritilmaydi.

Inventarlash natijalari oy yoki yillik hisob-kitoblarda aks ettiriladi va umumiy qaydnoma tayyorlanadi. Tafovutlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar rahbarga taqdim etiladi.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Qishloq xo‘jalik tashkilotlari o‘z faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa tovar ishlab chiqaruvchilardan farq qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlarining katta qismini qo‘l mehnati uchun sarflanadigan mablag‘lar tashkil etadi.

2. Qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining moliyaviy ahvolini kompleks tahlil qilish ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari tahlili bilan birgalikda olib borilishi kerak. Bu moliyaviy va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi, shuningdek, tashkilotning moliyaviy holati sifatini belgilovchi omillarni aniqlaydi.

3. Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini yaxshilash maqsadida ularning muvaffaqiyatini ta‘minlovchi omillarni sinchiklab o‘rganish lozim. Ushbu tahlil takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash uchun biznesning ham moliyaviy, ham operatsion jihatlarini baholovchi ko‘rsatkichlar tizimiga asoslanishi kerak.

4. Inventarizatsiya buxgalteriya hisobining ajralmas qismi bo'lib, u hujjatlashtirish, baholash, hisob-kitoblar, hisob-fakturalar, ikki yoqlama yozuv, balans va moliyaviy hisobot kabi boshqa unsurlar bilan uzviy bog'liq. Bu unsurlarning barchasi aniq va ishonchli moliyaviy ma'lumotlarni ta'minlash uchun o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Shu sababli, inventarizatsiyani buxgalteriya hisobining boshqa tartib-qoidalariga qat'iy amal qilgan holda o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

II BOB. QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA INVENTARIZATSIYANI TASHKIL QILISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

2.1. Tarmoq korxonalarida uzoq muddatli aktivlar inventarizatsiyasini takomillashtirish

O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi kuchaygan bugungi iqtisodiy sharoitda ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatida foydalanilayotgan mulkni vaqt o‘tishi bilan hisobga olish, baholash va tahlil qilishning yangi usullari zarur.

Soha tashkilotlarini “ishlab chiqarish maqsadlari uchun asosiy fondlar va boshqa uzoq muddatli aktivlar bilan ta‘minlash moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalari va xo‘jalik yuritish samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim omil hisoblanadi”⁶². Uzoq muddatli aktivlarning ahamiyati aktivlarni mol-mulk tarkibiga kiritish, ularning qiymatini baholash va foydalanish muddati davomida eskirishning asosiy mezonidir.

Uzoq muddatli moddiy aktivlardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari ularning huquqiy shakliga bog‘liq. O‘zbekiston Fuqarolik kodeksi⁶³ va O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”⁶⁴ qonuni qoidalariga muvofiq, korxona va tashkilotlarning mulkdorlari mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega. Bunda ushbu mol-mulkning hisobini yuritish va baholash, hisobotlarda to‘g‘ri aks ettirish, uni tavakkalchiliksiz boshqarish majburiyati yuklatiladi.

Uzoq muddatli aktivlar - bu yuqori qiymatli va korxona ishlab chiqarish jarayonida bir necha sikl davomida ko‘p bor foydalaniluvchi aktivlardir. Mazkur aktivlar uzoq davr, odatda bir necha hisob-hisobot mobaynida daromad keltirishi mumkin. Uzoq muddatli moddiy aktivlar jismoniy ko‘rinishga ega bo‘lgan aktivlardir.

⁶² Ruziyeva D. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya natijalari tahlilining nazariy asoslari //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 2. – №. 7.

⁶³ O‘zbekiston Fuqarolik kodeksi, <https://lex.uz/mact/111189>

⁶⁴ O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida” qonuni, <https://lex.uz/mact/111466#241573>


Uzoq muddatli moddiy aktivlarning tasnifiy turlari orasida asosiy vositalar alohida ajralib turadi va ularning mazmuni va tasnifiga mahalliy tadqiqotchilarning yondashuvlari muhokama qilinadi. Iqtisodiyotning agrar sektorida asosiy fondlarning an'anaviy turlaridan tashqari, ishlab chiqarish omili sifatida foydalanish jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan o'ziga xos resurs - yer mavjud. Yer quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan tabiiy resursdir:

1. U tabiiy ishlab chiqaruvchi kuchdir.
2. Yer ishlab chiqarish vositasi sifatida xilma-xil foydalanishga ega bo'lib, mehnat predmeti, mehnat quroli va mehnatni qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.
3. Ishlab chiqarishning boshqa omillaridan farqli o'laroq, u zaxiralar jihatidan cheklangan.
4. Yer differentsiatsiyalangan, ya'ni joylashgan o'rniga qarab turli sifatlarga ega.
5. Yerdan to'g'ri va oqilona foydalanilsa, uning qiymati va unumdorligi oshishi mumkin.
6. Yerdan foydalanish doimiylikni o'z ichiga oladi, chunki u ma'lum bir joyga bog'liq.
7. Yerga bo'lgan monopoliya yerni o'zlashtirishdagi tabiiy tengsizlik sharoitida mavjud bo'lishi mumkin.
- 8 Yerning amal qilishi iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos shakli sifatida qishloq xo'jaligi rentasining mavjudligi bilan bog'liq.

Yerning asosiy xususiyati unumdorlikning o'ziga xos xususiyatidir. Bu alohida sifat yer resurslaridan qanday foydalanishni belgilaydi, chunki yerga egalik qilish yer uchastkalarini hisob birligi sifatida tasniflash imkonini beradi. Xalqaro va ichki me'yorlarga ko'ra, yer uchastkalari, ayrim istisnolarni hisobga olmaganda, amortizatsiya qilinmaydigan aktivlar toifasiga kiradi.

Ishda buxgalteriya hisobi obyektlarining muayyan turi, biologik aktivlarning asosiy xususiyatlari tahlil qilingan. Ushbu aktivlarni uzoq muddatli va qisqa muddatli toifalarga ajratish mumkin. Uzoq muddatli biologik aktivlarga hosil berish

yoshiga yetgan ko‘p-yillik plantatsiyalar, mahsuldor chorva mollari va ishchi hayvonlar kiradi.



2.1-rasm. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining uzoq muddatli aktivlarini tasniflash⁶⁵

Inventarizatsiya jarayoni moliyaviy hisobotlar va hisobotlarning to‘g‘riligini ta’minlashda muhim bosqich hisoblanadi.-yillik moliyaviy hisobotni tuzishdan oldin, korxonaning aktivlari va majburiyatlarini inventarizatsiya qilish kerak. Bu jarayonda aktiv va passivlarning mavjudligi, holati, qiymati tekshiriladi va hujjatlashtiriladi. Inventarizatsiya - bu tashkilot mol-mulking mavjudligini va uning moliyaviy majburiyatlarining ma’lum bir sanadagi holatini haqiqiy ma’lumotlarni saqlash ma’lumotlari bilan taqqoslash orqali tekshirish usuli.⁶⁶ Inventarizatsiya mol-mulkning saqlanishini nazorat qilish va ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash maqsadida o‘tkaziladi.

⁶⁵ Muallif ishlanmasi.

⁶⁶ Алексеева А. В., Золотарева Г. И. Проблемы проведения инвентаризации основных средств //Менеджмент социальных и экономических систем. – 2018. – №. 2 (10). – С. 40-45.

2.1-jadval

**“Pro Milk Technology” MCHJ qoramolchilik naslchilik xo‘jaligida parvarish
qilinayotgan chorva mollari bosh sonlari va podalar tarkibi to‘g‘risida
ma’lumotlar⁶⁷**

T/r	Chorva mollari		Bosh sonlari
1.	Jami qoramollar:	-	1350
shundan,			
1.1.	Sigirlar:	-	500
1.2.	Gʻunojinlar:	-	126
1.3.	1 yoshdan katta tanalar:	-	140
1.4.	1 yoshgacha boʻlgan urgʻochi buzoqlar:	-	170
1.5.	1 yoshdan katta boʻlgan erkak buzoqlar:	-	180
	1 yoshgacha boʻlgan erkak buzoqlar:	-	210
1.6.	Boʻrdoqilashdagi mollar:	-	26
Shartli qoramollar:		-	1014

Hujjatlar mavjud bo‘lmagan hollarda, ularni olish yoki rasmiylashtirish ta‘minlanishi lozim. Tahlillarimizning amaliyligini oshirish maqsadida qishloq xo‘jaligi, xususan, chorvachilik yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan qishloq xo‘jaligi subyektlarining faoliyatini yoritish asnosida uzoq muddatli aktivlar inventarizatsiyasini yoritishga harakat qilamiz.

2.2-jadval

**“Pro Milk Technology” MCHJ qoramolchilik naslchilik xo‘jaligining
ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari⁶⁸**

T/r	Ishlab chiqarish bo‘yicha ma’lumotlar	Miqdori
1.	Jami olingan buzoqlar, bosh:	- 562
2.	Har 100 boshdan olingan buzoq, bosh:	- 82
3.	Sut ishlab chiqarish, tn.:	- 3610.9
4.	O‘rtacha bir sigirdan sog‘ib olingan sut, kg.:	- 5960
5.	Bonitirovka bo‘yicha sog‘ilgan sut, kg.:	- 3610.9
6.	Kunlik sut ishlab chiqarish quvvati, tn	- 10
6.	Buzoqlarga berilgan sut, tn	- 230
7.	Go‘sht ishlab chiqarish, tn.:	- 25

⁶⁷ «Pro Milk Technology» MCHJ qoramolchilik naslchilik xo‘jaligi ma’lumotlari.

⁶⁸ «Pro Milk Technology» MCHJ qoramolchilik naslchilik xo‘jaligi ma’lumotlari.

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanida joylashgan “Pro Milk Technology” MCHJ qoramolchilik naslchilik xo‘jaligi qoramolchilik yo‘nalishida faoliyat olib boradi. MChJga jami 12021,7 gektar yer maydoni ajratilgan bo‘lib, shundan 128 gektar beda, 350 gektar g‘alla va 220 gektar makkajo‘xoriga ajratilgan. Hozirda MChJda 1350 bosh qoramollar parvarish qilinmoqda (2.2-jadval). Korxona 2024-yilda 25 tonna go‘sht, 3610,9 tonna sut ishlab chiqargan, har 100 bosh sigirdan 82 bosh buzoq olishga erishgan (2.3-jadval).

“Pro Milk Technology” MChJ qoramolchilik naslchilik xo‘jaligi faoliyati bilan tanishish asosida xo‘jalikning mavjud binolari to‘g‘risida ma’lumotlar shakllantirildi.

Mazkur ma’lumotlar obyektlarning to‘g‘ri baholanishi, ularni hisobga olish va hujjatlashtirish jarayonining shaffofligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2.3-jadval

“Pro Milk Technology” MChJ qoramolchilik naslchilik xo‘jaligining mavjud binolari⁶⁹

T/r	MChJning binolar bilan ta’minlashnishi haqida ma’lumotlar	mavjud/ mavjud emas	Maydoni, kv.m.
1.	Sigirxona:	Mavjud	4507.8 kv.m
2.	Tug‘ruqxona:	Mavjud	2552.0 kv.m
3.	Buzoqxona:	Mavjud	1342.0 kv.m
4.	Yosh urg‘ochi va erkak mollarni guruhlariga ajratib o‘stirish xona (maydoncha)si:	Mavjud	4507.8 kv.m
5	Omborxona binosi	Mavjud	116.5 kv.m
6	Omborxona binosi	Mavjud	168.5 kv.m
7	Omborxona binosi	Mavjud	27 kv.m
8	Qushxona binosi	Mavjud	80.9 kv.m
10	Go‘ng chiqarish hovuzi 3 dona	Mavjud	13392.0 kv.m
11	Tegirmon binosi	Mavjud	234.2 kv.m
12	Bostirma	Mavjud	254.4 kv.m
13	Bostirma	Mavjud	49.6 kv.m

⁶⁹«Pro Milk Technology» MCHJ qoramolchilik naslchilik xo‘jaligi ma’lumotlari.

“Inventarizatsiya natijasida aniqlangan hisobga olinmagan obyektlarni baholash bozor narxlari asosida amalga oshiriladi, eskirish esa obyektlarning haqiqiy texnik holatiga ko‘ra aniqlanadi. Baholash va eskirish to‘g‘risidagi ma’lumotlar tegishli dalolatnomalar bilan rasmiylashtirilishi shart”⁷⁰.

Binolar ro‘yxatlarga ularning bevosita vazifasiga mos keladigan nomlar bilan kiritiladi.

“Inventarizatsiya jarayonida o‘z binolarini tekshirish bilan birga, mas’uliyatli saqlashda turgan va ijaraga olingan binolar ham nazorat qilinadi. Ushbu obyektlar bo‘yicha alohida ro‘yxat tuzilib, mas’uliyatli saqlashga yoki ijaraga qabul qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlarga havolalar kiritiladi. Ro‘yxat 3 nusxada tayyorlanadi, uchinchi nusxasi ijaraga beruvchiga topshiriladi.

Binoning boshlang‘ich qiymatini tekshirishda shuni hisobga olish lozimki, buxgalteriya hisobida qayd etilgan binoning dastlabki qiymati asosiy vositalarning qo‘shimcha qurilishi, jihozlanishi, rekonstruksiya, modernizatsiyasi, qisman tugatilishi yoki qayta baholanishi natijasida o‘zgartirilishi mumkin”⁷¹.

Inventarizatsiya davomida komissiya a‘zolari bino tiklash xarajatlarini tasdiqlovchi barcha hujjatlarni sinchiklab o‘rganib, bajarilgan ishlarning xususiyatini (ta’mirlash, rekonstruksiya, modernizatsiya va boshqalar) aniqlaydilar.

“Binolarni inventarizatsiya qilish natijalari Asosiy vositalarni inventarizatsiya qilish O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”ga 4-ilova bilan rasmiylashtiriladi. Ro‘yxat 2 nusxada tuziladi: bir nusxasi asosiy vositalarning saqlanishi uchun javobgar bo‘lgan xodimda qoladi, ikkinchi nusxasi buxgalteriyaga topshiriladi”⁷².

“Inventarizatsiya jarayonida olingan ma’lumotlar buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan farq qilsa, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar inventarizatsiyasi

⁷⁰ Рузиева Д. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНВЕНТАРИЗАЦИИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 10. – С. 183-196.

⁷¹ Рузиева Д. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНВЕНТАРИЗАЦИИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 10. – С. 183-196.

⁷² O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”, <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

natijalarining solishtirma qaydnomasi O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”ga 15-ilova bilan rasmiylashtiriladi”⁷³.

Inshoot deganda poydevorga o‘rnatilgan yoki yer ostiga joylashtirilgan, yuk ko‘taruvchi, ba’zi hollarda esa to‘siq vazifasini bajaruvchi konstruksiyalardan tashkil topgan hamda turli ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish, materiallar, buyumlar, uskunalarni saqlash, odamlar va yuklarning vaqtinchalik joylashuvi va harakatlanishi uchun mo‘ljallangan hajmli, tekis yoki chiziqli yer usti yoki yer osti qurilish tizimi tushuniladi.

Inshootlarni inventarizatsiya qilishda ularni bevosita ko‘zdan kechirish natijalari asosida inshootlarning mavjudligi, joylashuvi, tarkibi, maydoni va boshqa xususiyatlari, holati, qiymati haqidagi ma’lumotlarni to‘plash, aniqlash va qayta ishlash amalga oshiriladi (2.4-jadval).

2.4-jadval

“Pro Milk Technology” MChJ qoramolchilik naslchilik xo‘jaligining mavjud inshootlari⁷⁴

T/r	Yem-xashak saqlash maydonchasi haqida ma’lumot	mavjud/ mavjud emas	talabga javob beradi/javob bermaydi
1.	Tarozixona:	Mavjud	Talabga javob beradi 49,6 kv.m
2.	Yemxona:	Mavjud	780,1 kv.m
3.	Xashak saqlash binosi	Mavjud	720 kv.m
4	Xashak saqlash binosi		720 kv.m
4.	Senaj:	Mavjud	4068.0 kv.m
5.	Silos saqlash:	Mavjud	
6.	Yong‘inga qarshi ko‘rilgan choralalar (hovuz, shitlarni asbob uskunalar bilan ta‘minlanligi):	Mavjud	Talabga javob beradi

Inventarizatsiya jarayonida komissiya a‘zolari inshootlarni tiklash xarajatlari rasmiylashtirilgan barcha hujjatlarni o‘rganadilar va bajarilgan ishlarning xususiyatini aniqlaydilar. Bunday holatda, ro‘yxatlarda obyekt bo‘yicha hisob-kitob qilingan qiymat o‘zgarishi, ularning sabablari va amalga oshirilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar batafsil ko‘rsatiladi.

⁷³ O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”, <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

⁷⁴ «Pro Milk Technology» MCHJ qoramolchilik naslchilik xo‘jaligi ma’lumotlari.

Inshootlar ro'yxatga alohida-alohida, inshootlarning ayrim turlari uchun quyidagilar bo'lgan xarakterli belgilarni batafsil tavsiflagan va ko'rsatgan holda kiritiladi:

a) havo tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari uchun - kuchlanish, yo'nalish (qaysi punktdan va qaysi punktgacha), uzunlik (km), ustunlar, simlar va izolyatorlar materiali;

b) silos va senaj inshootlari uchun - inshootning joylashgan joyi, tayyorlangan material va bir vaqtning O'zida inshootga sig'adigan tayyor silos (senaj) ning tonna hisobidagi eng ko'p miqdori;

v) poydevorlarga o'rnatilgan statsionar tsisternalar va baklar uchun - poydevor va inshootning materiali, turi (gorizontal, vertikal), asosiy o'lchamlari (asosining diametri, balandligi) va sig'imi (sig'imi m³);

g) devorlar va to'siqlar uchun - joylashgan joyi (bog', cho'chqaxonalar, parrandaxonalar va hokazolar atrofi), uzunligi pogon metrlarda, balandligi;

“Melioratsiya va irrigatsiya, sug'orish, zax qochirish hamda yo'l inshootlari ro'yxatlarda quyidagi asosiy belgilar bilan ko'rsatiladi: suv minoralari uchun qurilish materiali, o'lchamlari va sig'imi; suv quvurlari turi, uzunligi, materiali va diametri; quduqlar turi, qazish usuli va suv sarfi; to'g'onlarning materiali va turi; kanallar va zovurlar yo'nalishi, uzunligi, chuqurligi va kengligi hamda mahkamlash materiallari; hovuzlarning joylashuvi va maydoni; yo'llarning turi, yo'nalishi, uzunligi, qoplama materiali va kengligi; ko'priklarning joylashuvi, materiali va o'lchamlari. Har bir inshootning texnik xususiyatlari aniq qayd etiladi”⁷⁵.

Obyektning qurilgan-yili sifatida uning foydalanishga topshirilgan-yili (barcha binolar va inshootlar bo'yicha) hisoblanishi lozim, sotib olingan yoki tekinga olingan obyektlar uchun esa sotib olingan (olingan)-yil ko'rsatiladi.

Xususi inshootlarni inventarizatsiya qilish bilan bir vaqtda ijaraga olingan inshootlar ham tekshiriladi. Ular bo'yicha alohida ro'yxat tuziladi va unda ushbu

⁷⁵ Рузиева Д. Теоретические основы инвентаризации сельскохозяйственных предприятий //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 10. – С. 183-196.

obyektlarning ijaraga olinganligini tasdiqlovchi hujjatlarga havola beriladi. Ro'yxat 3 nusxada tuziladi, uchinchi nusxasi ijaraga beruvchiga topshiriladi.

“Inshootlarni inventarizatsiya qilish natijalari O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”ga 4-ilova bilan rasmiylashtiriladi. Ro'yxat 2 nusxada tuziladi: bir nusxasi asosiy vositalarning saqlanishi uchun javobgar bo‘lgan xodimda qoladi, ikkinchi nusxasi buxgalteriyaga topshiriladi”⁷⁶. Inventarizatsiya jarayonida olingan ma'lumotlar buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan farq qilsa, “O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”ga 15-ilova”⁷⁷ bilan rasmiylashtiriladi.

Mashina va uskunarlar energiya, materiallar va axborotni o‘zgartiruvchi qurilmalar bo‘lib, ularning asosiy vazifasiga ko‘ra energetik (kuch), ishchi va axborot uskunalariga bo‘linadi. Ishchi uskunalar esa mexanik, termik yoki kimyoviy ta'sir ko'rsatish uchun mo'ljallangan mashinalar, asboblari va apparatlardir. Axborot uskunalarini esa axborotni o‘zgartirish va saqlashga xizmat qiladi. Inventarizatsiya jarayonida har bir mashina va uskuna ishlab chiqaruvchi tashkilotning texnik pasportiga muvofiq, zavod raqami, ishlab chiqarilgan yili, maqsadi va quvvati ko'rsatilgan holda alohida ro'yxatga olinadi. Shuningdek, vaqtinchalik boshqa joyga yuborilgan, masalan, kapital ta'mirda bo'lgan uskunalar ham inventarizatsiya qamroviga kiritiladi.

Inventarizatsiya paytida komissiya a'zolari mashina va asbob-uskunalarining saqlanishini, to'g'ri saqlanishini va ulardan foydalanishni ta'minlashga e'tibor beradilar.

Mashinalarni xo'jasizlarcha va beparvolik bilan saqlash yoki butlamaslik hollari bo'yicha zudlik bilan aybdor shaxslarni aniqlash va tegishli saqlash sharoitlarini tashkil etish choralari ko'rilishi kerak.

⁷⁶ O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”, <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

⁷⁷ O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”, <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

Sotilishi yoki ijaraga berilishi mumkin bo'lgan ortiqcha va xo'jalikka keraksiz mashina va asbob-uskunalarni aniqlashga alohida e'tibor berilishi lozim.

Eskirganligi va to'liq jismoniy eskirganligi bo'yicha foydalanishga yaroqsiz bo'lgan, buzilgan, vayron bo'lgan va tiklab bo'lmaydigan, biroq buxgalteriya hisobidan chiqarilmagan mashina va uskunalarga komissiya obyektlar buxgalteriya hisobiga qabul qilib olingan sana va ushbu obyektlarni yaroqsiz holga keltirgan sabablar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda alohida inventarizatsiya ro'yxatini rasmiylashtiradi.

O'z mashina va uskunalarini inventarizatsiya qilish bilan bir vaqtda mas'uliyatli saqlashda bo'lgan va ijaraga olingan mashina va uskunalar ham tekshiriladi.

Mashina va uskunalarni o'tkazilgan inventarizatsiya natijalarini aks ettirish uchun O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish"ga 4-ilova⁷⁸ bilan rasmiylashtiriladi. Ro'yxat 2 nusxada tuziladi: bir nusxasi asosiy vositalarning saqlanishi uchun javobgar bo'lgan xodimda qoladi, ikkinchi nusxasi buxgalteriyaga topshiriladi. Inventarizatsiya jarayonida olingan ma'lumotlar buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan farq qilsa, O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish"ga 15-ilova⁷⁹ bilan rasmiylashtiriladi.

O'lchov va rostlash asboblari hamda qurilmalari - qalinlik, diametr, yuza, og'irlik, vaqt, bosim, tezlik, aylanishlar soni, quvvat, kuchlanganlik va shu kabilarni o'lchash uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar, shuningdek, materiallarni sinash, tajribalar o'tkazish, tahlil qilish va tadqiq etish uchun mo'ljallangan jihozlardir. Qishloq xo'jaligi korxonalari, xususan chorvachilik korxonalarida bunday inventarlar sirasiga termometr, mikroskop, termostatlar, suv hammomi va shu kabilarni kiritish mumkin.

2.5-jadval

⁷⁸ O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish", <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

⁷⁹ O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish", <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

“Pro Milk Technology” MChJ qoramolchilik naslchilik xo‘jaligining mavjud inventarlari⁸⁰

T/r	Sun'iy urug'lantirish xonasi va uning jihozlanishi	mavjud/ mavjud emas	Maydoni, kv.m.
1.	Sun'iy urug'lantirish xonasi:	Mavjud	16 kv.m
2.	Sosud Dyuar idishi (sig'imi):	Mavjud	35kg 2 dona 6 kg 1 dona
4.	Qin oynasi (sigir va tanaga):	Mavjud	1 dona
5.	Mikroskop:	Mavjud	1 dona
6.	Termometr:	Mavjud	4 dona
7.	Shprints kateter:	Mavjud	4 dona
8.	Elektr plitasi:	Mavjud	1 dona
9	Termostat	Mavjud	1 dona
9.	Suv hammomi:	Mavjud	50 kv.m

“O‘lchash va rostlash priborlari hamda qurilmalarini o‘tkazilgan inventarizatsiya natijalarini aks ettirish uchun O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”ga 4-ilova”⁸¹ bilan rasmiylashtiriladi. O‘lchash va rostlash asboblari hamda qurilmalari ro‘yxatlarga obyektning bevosita vazifasiga muvofiq nomlari bo‘yicha kiritiladi. Ro‘yxat 2 nusxada tuziladi: bir nusxasi asosiy vositalarning saqlanishi uchun javobgar bo‘lgan xodimda qoladi, ikkinchi nusxasi buxgalteriyaga topshiriladi. Inventarizatsiya jarayonida olingan ma’lumotlar buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan farq qilsa, “O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”ga 15-ilova”⁸² bilan rasmiylashtiriladi.

Turar-joylarga doimiy yashash uchun mo‘ljallangan binolar, shuningdek, ko‘chma qalqonli uylar, suzuvchi uylar, yashash uchun foydalaniladigan boshqa binolar (xonalar), hamda asosan turar-joy binolari sifatida aniqlangan tarixiy yodgorliklar kiradi. Agar inventarizatsiya komissiyasi tomonidan hisobga olinmagan uy-joylar aniqlansa yoki buxgalteriya hisobi registrlarida ular bo‘yicha

⁸⁰«Pro Milk Technology» MCHJ qoramolchilik naslchilik xo‘jaligi ma’lumotlari.

⁸¹ O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”, <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

⁸² O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”, <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, yoxud mavjud ma'lumotlar noto'g'ri va obyektning noto'g'ri tavsiflagan bo'lsa, komissiya mazkur obyektlar bo'yicha to'g'ri ma'lumotlar va texnik ko'rsatkichlarni inventarizatsiya ro'yxatlariga kiritishi shart.

Inventarizatsiya natijasida aniqlangan va ilgari hisobga olinmagan barcha uy-joylar ularning amaldagi bozor narxlariga asosida baholanadi. Eskinlik darajasi esa har bir obyektning haqiqiy texnik holatidan kelib chiqib belgilanadi. Ushbu baholash va eskirish ko'rsatkichlari alohida dalolatnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

Foydalanishga yaroqsiz, jismoniy va texnik jihatdan qayta tiklab bo'lmaydigan uy-joylar bo'yicha inventarizatsiya komissiyasi alohida ro'yxat tuzadi. Unda obyektlarning foydalanishga topshirilgan sanasi hamda ularning yaroqsiz holatga kelib qolish sabablari aniq ko'rsatiladi.

Xususi uy-joylarni xatlovdan o'tkazish bilan bir qatorda, mas'uliyatli saqlashga topshirilgan yoki ijaraga olingan uy-joylar ham tekshiruvdan o'tkaziladi. Bunday obyektlar bo'yicha alohida ro'yxat tuziladi. Ushbu ro'yxatda obyektning ijaraga qabul qilinganligi yoki mas'ul saqlovchiga topshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlarga havola berilishi shart.

Ro'yxat 3 nusxada tuziladi, uchinchi nusxasi ijaraga beruvchiga beriladi.

“Uy-joylarni xatlovdan o'tkazish natijalari O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish”ga 4-ilova bilan rasmiylashtiriladi. Ro'yxat 2 nusxada tuziladi: bir nusxasi asosiy vositalarning saqlanishi uchun javobgar bo'lgan xodimda qoladi, ikkinchi nusxasi buxgalteriyaga topshiriladi”⁸³. Inventarizatsiya jarayonida olingan ma'lumotlar buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan farq qilsa, “O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish”ga 15-ilova”⁸⁴ bilan rasmiylashtiriladi.

Texnika va transport vositalarini inventarizatsiyadan o'tkazishda inventarizatsiya komissiyasi har bir obyektning ko'zdan kechiradi va ro'yxatlarga

⁸³ O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish”, <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

⁸⁴ O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish”, <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

quyidagi ma'lumotlarni kiritadi: transport vositasining to'liq nomi, vazifasi, inventar raqami, asosiy texnik va ekspluatatsion ko'rsatkichlari.

Transport vositalari ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan berilgan texnik pasport asosida inventarizatsiya qilinadi. Ro'yxatga quyidagi rekvizitlar kiritiladi: zavod (seriyali) raqami, ishlab chiqarilgan yili, vazifasi, dvigatel quvvati va boshqa tegishli texnik ko'rsatkichlar. Har bir transport vositasi alohida, yakka tartibda qayd etiladi.

Inventarizatsiya jarayonida tashkilot joylashgan hududdan tashqarida bo'lgan transport vositalari (masalan, uzoq reyslarda, kapital ta'mirlashda yoki boshqa sabablarga ko'ra vaqtincha yo'lda bo'lsa) ular safarga chiqishdan avval yoki imkon boricha real holatda ro'yxatga olinishi kerak.

Foydalanishga yaroqsiz yoki texnik jihatdan qayta tiklanmaydigan transport vositalari bo'yicha inventarizatsiya komissiyasi alohida ro'yxat tuzadi. Ushbu ro'yxatda obyektning foydalanishga topshirilgan sanasi hamda uning yaroqsiz holatga kelib qolish sabablari (masalan, og'ir texnik buzilishlar, butunlay eskirish va boshqalar) ko'rsatiladi.

O'z transport vositalarini inventarizatsiya qilish bilan bir vaqtda mas'uliyatli saqlashga qabul qilingan va ijaraga olingan avtomashinalar tekshiriladi. Ko'rsatib o'tilgan obyektlar bo'yicha alohida ro'yxat tuziladi, unda ushbu obyektlar qabul qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlarga havola beriladi. Ro'yxat 3 nusxada tuziladi, uchinchi nusxasi ijaraga beruvchiga beriladi.

Inventarizatsiya natijasida aniqlangan hisobga olinmagan transport vositalari joriy bozor qiymati bo'yicha buxgalteriya hisobiga qabul qilinadi.

Transport vositalarini inventarizatsiyadan o'tkazishda biron-bir obyektning to'liq jismoniy eskirganligi sababli undan keyin foydalanish mumkin emasligi aniqlanishi mumkin. Tashkilot rahbariyati tomonidan bunday obyektни tugatish to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin. Bunda tugatilayotgan obyektning qiymati to'liq amortizatsiya qilinmasligi mumkin.

“O'tkazilgan inventarizatsiya natijalari O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani

tashkil etish va o‘tkazish”ga 4-ilova bilan rasmiylashtiriladi. Ro‘yxat 2 nusxada tuziladi: bir nusxasi asosiy vositalarning saqlanishi uchun javobgar bo‘lgan xodimda qoladi, ikkinchi nusxasi buxgalteriyaga topshiriladi”⁸⁵. Inventarizatsiya jarayonida olingan ma’lumotlar buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan farq qilsa, “O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”ga 15-ilova”⁸⁶ bilan rasmiylashtiriladi.

2.6-jadval

“Pro Milk Technology” MChJ qoramolchilik naslchilik xo‘jaligining mavjud texnika va transport vositalari⁸⁷

T/r	Mavjud texnika va transport vositalari haqida ma’lumot	o‘lchov birligi	mavjud
1.	Haydov traktorlari:	Dona	11
2.	chopiq traktorlari:	Dona	4
3.	transport traktorlari:	Dona	4
4.	silos o‘rsh kombaynlari:	Dona	1
5.	yem-xashak o‘rsh kombaynlari:	Dona	2
6.	makka o‘rsh kombaynlari:	Dona	1
7.	press-podborshik:	Dona	2
8.	borona (komplekt):	Dona	48
9.	chizel:	Dona	2
10.	g‘alla o‘rsh kombayni:	Dona	1
11.	tirkamalar:	Dona	8
12.	seyalkalar:	Dona	2
13.	ekskovator:	Dona	1
14.	kultivatorlar:	Dona	2
15.	omochlar:	Dona	3
16.	yer tekislagichlar:	Dona	1
17.	yuklagichlar:	Dona	1
18.	kir-1,5:	Dona	-
19.	kp-4,0:	Dona	-
20.	nru-0,5:	Dona	2
21.	ovx purkagich:	Dona	2

Voyaga yetgan hayvonlar (ishchi va mahsuldor), shuningdek bo‘rdoqiga boqilayotgan va o‘stirilayotgan parrandalar hamda asalari oilalari ro‘yxatga olinayotganda, inventarizatsiya varaqasida hayvonning raqami (birka, tamg‘a, quloq raqami), laqabi, zoti va tusi, tug‘ilgan-yili (yosh hayvonlar uchun - tug‘ilgan oyi),

⁸⁵ O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”, <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

⁸⁶ O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”, <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

⁸⁷ «Pro Milk Technology» MChJ qoramolchilik naslchilik xo‘jaligi ma’lumotlari.

semizlik darajasi, tirik vazni, balans qiymati ko'rsatiladi. Guruh bo'lib hisobga olinganda esa, bulardan tashqari, hayvonlarning bosh soni va jinsi ham qayd etiladi.

Bitta moddiy javobgar shaxsga biriktirilgan hayvonlar ro'yxatga olinayotganda, qayta sanash bir kun ichida amalga oshirilishi lozim.

Qoramollar va ish hayvonlari, qo'y va cho'chqalarning alohida qimmatli nusxalari (nasl yadrosi), shuningdek asalari oilalari, yosh qoramollar va ish hayvonlari hamda nasldor otlar ro'yxatlarga yakka tartibda kiritiladi. Asosiy podadagi boshqa barcha hayvonlar yoshi va jinsi bo'yicha guruhlariga bo'linadi.

Hayvonlarni sanash tartibi ularning joylashuvi va saqlash sharoitlariga bog'liq bo'lib, dalada yoki binolarda, qafaslarda, bokslarda, sayr maydonchalarida va boshqa shunday joylarda amalga oshiriladi.

Agar qoramollar bog'lovsiz, erkin sharoitda boqilayotgan bo'lsa, u holda ularni bir joydan ikkinchi joyga haydab olib borish orqali sanash amalga oshiriladi. Peregon yo'li shunday tashkil etilishi lozimki, unda bir vaqtning o'zida faqat bitta hayvon o'tishi mumkin bo'lsin, bu sanash jarayonining aniqligi va tartib-intizomini ta'minlaydi.

Cho'chqalar esa, agar tinch va osoyishta holatda bo'lsa, ularning harakatini buzmasdan sanaladi. Ammo agar hayvonlar faol va harakatlansa, ularni haydab yuborish yoki ularning harakatini cheklash uchun ko'chma to'sinlar qo'yiladi. Shu tarzda, tinch harakatlanayotgan cho'chqalar aniq va to'g'ri hisobga olinadi.

Qo'ylarni sanash balandligi taxminan 1 metr va kengligi 0,5 metrgacha bo'lgan taxtalardan yasalgan dastgoh yordamida amalga oshiriladi. Qo'ylar shu stanokdan bittadan o'tkazib sanaladi (jun xususiyatlari har xil bo'lgan qo'ylarni aralashtirib bo'lmaydi).

Qafasda saqlanayotgan parrandalar bir qafasdan ikkinchisiga o'tkazilmasdan qayta sanaladi. Guruh usulida esa parrandalar tor tirqishdan o'tkaziladi yoki tutilib, xonaning boshqa qismiga olib o'tiladi.

Odatda inventarizatsiya hayvonlarga zarar yetkazmasdan ularni yig'ish yoki bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish mumkin bo'lgan soatlarda o'tkaziladi. Masalan,

sigirlar sog‘ish paytida, yaylovdagi yosh mollar lagerlarga yoki buzoqxonalariga qaytarilgandan keyin inventarizatsiya qilinadi.

„Mollarni qayta sanashda inventarizatsiya komissiyasi a‘zolari har bir hayvonda tamg‘a, yorliq, quloq raqami yoki ushbu hayvonning ushbu xo‘jalikka mansubligini ko‘rsatuvchi boshqa belgi bo‘lishini nazorat qiladilar.

Inventar raqamlari bo‘lmagan yoki raqamlari takrorlanadigan, shuningdek, ushbu xo‘jalikka tegishli bo‘lmagan raqamlarga ega bo‘lgan hayvonlar alohida qo‘raga to‘planadi. Keyin esa ularning xo‘jalikka mansubligi aniqlanadi“⁸⁸.

Inventarizatsiya vaqtida asosiy podadagi hayvonlar yosh mollar guruhida yoki bo‘rdoqiga boqilayotganda hisobga olinmayotganligi tekshiriladi.

Parvarishlash rejimiga rioya qilish maqsadida yaylovlardagi yosh mollar buzoqxonaga qaytarilgandan so‘ng inventarizatsiya qilinadi.

“Yosh qoramollar, nasldor otlar va ish hayvonlari inventar raqamlari, laqablari, jinsi, rangi, zoti va hokazolar ko‘rsatilgan holda ro‘yxatga yakka tartibda kiritiladi.

Yosh hayvonlarni inventarizatsiya qilish natijalarini aks ettirish uchun yagona shakl belgilanmagan. Tashkilot bunday shaklni mustaqil ravishda ishlab chiqishi mumkin. Buning uchun ishchi chorva mollari, mahsuldor hayvonlar, parrandalar va asalari oilalarining inventarizatsiya qaydnomasini mustaqil tarzda tuzishi va uni korxonaning hisob siyosatiga ilova qilishi lozim”⁸⁹.

“Ko‘p-yillik daraxtlar” guruhiga yoshidan qat’i nazar, barcha turdagi sun’iy ko‘p-yillik daraxtzorlar, shu jumladan:

- barcha turdagi meva-rezavor o‘simliklari (daraxtlar va butalar);
- ko‘chalar, maydonlar, istirohat bog‘lari, bog‘lar, xiyobonlar, korxonalar hududlari, uy-joylar hovlilaridagi ko‘kalamzorlashtirish va manzarali daraxtzorlar;

⁸⁸ Лебедева Д. Д., Исхаков А. Т. Развитие инвентаризации животных в АПК с применением новых технологий //Проблемы технического сервиса в АПК. – 2020. – С. 127-131.

⁸⁹ Ruziyeva D. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya natijalari tahlilining nazariy asoslari //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 2. – №. 7.

- jonli to'siqlar, qor va dala ihotalari, qumlar va daryo qirg'oqlarini mustahkamlash uchun mo'ljallangan daraxtzorlar, jarlik-to'sinli daraxtzorlar va shu kabilar;

- ilmiy-tadqiqot maqsadlari uchun botanika bog'lari, boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalari va o'quv yurtlarining sun'iy daraxtzorlari.

Ushbu guruhning hisobga olish obyektlari har bir bog', xiyobon, ko'cha, bulvar, hovli, tashkilot hududi va shu kabilarning yashil maydonlari, yoshi va turidan qat'i nazar yashil maydonlarning soni; ko'cha, yo'l bo'yidagi yashil maydonlar (biriktirilgan uchastka chegarasida), shu jumladan har bir yashil maydonning alohida to'siqlari; dala ihota mintaqalarining har bir uchastkasi (tumani) yashil maydonlari hisoblanadi.

Ko'p yillik o'simliklar va ko'chatzorlar inventarizatsiyasi qishloq xo'jaligi korxonalari tasdiqlagan ro'yxat shakllari asosida o'tkaziladi.

Yer maydonlarini xatlovdan o'tkazishda pul qiymatiga ega bo'lgan va tashkilot balansiga qabul qilingan yer maydonlari hamda pul qiymatiga ega bo'lmagan va balansdan tashqari hisobda turgan yer maydonlari bo'yicha alohida tuziladigan ro'yxatlardan foydalaniladi. Ro'yxatga tashkilotning mulkida bo'lgan, ijaraga olingan, paylarga taqsimlangan, jamoa fondida bo'lgan va shu kabi barcha yer maydonlari kiritiladi.

Ro'yxatda yerlarning joylashgan hududi hamda ularning brigadalar, fermalar va boshqa tarkibiy bo'linmalarga biriktirilganligi ko'rsatiladi.

Yerlarning qabul qilingan namunaviy tasnifiga muvofiq, har bir yerning turi aniq belgilanadi. Bundan tashqari, yer maydonining hajmi, unumdorlik darajasi, foydalanish maqsadi va boshqa tegishli ma'lumotlar ro'yxatda o'z aksini topadi.

Qurilish obyektlarini inventarizatsiya qilish ularning yer uchastkasida mavjudligi va joylashgan o'rnini aniqlash, asosiy belgilari bo'yicha tavsiflash, maydonlar va hajmlarning ichki va tashqi o'lchamlarini belgilash, iqtisodiy tavsiflarni, shu jumladan inventarizatsiya qiymatini aniqlash, texnik hujjatlar va obyektning haqiqiy holati o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni aniqlashdan iborat. Komissiya yer uchastkasini ajratish to'g'risidagi farmoyish

hujjatlarini, qurilishga ruxsatnomani, yer uchastkasining situatsion rejasini, loyihani (arxitektura-qurilish qismini), obyektni foydalanishga topshirishga ruxsatnomani tekshiradi.

2.2. Joriy aktivlar inventarizatsiyasini o'tkazish va uni natijalarini rasmiylashtirish xususiyatlari

Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyati davomida xo'jalik mol-mulki va hisobining joriy holati va ahvolini tekshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'pincha xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z hisobotlaridagi ma'lumotlar haqiqiy vaziyatga mos kelmaydigan holatlarga duch kelishadi. Korxonalar o'z faoliyatining samaradorligini oshirish uchun o'z aktivlarini hisobga olish va boshqarishning mustahkam tizimiga ega bo'lishi lozim.

“Ichki nazoratning zaruriyati shundaki, u korxona faoliyatining haqiqiy holatini aniqlashga yordam beradi, uning rivojlanishi o'ziga xos maqsadlarga muvofiqligini ta'minlaydi hamda ko'zlangan boshqaruv maqsadlariga samarali erishishni kafolatlaydi”⁹⁰.

Xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida barcha qishloq xo'jaligi korxonalarida ham samarali ichki nazorat tizimi mavjud emas. Bu masala muammoli bo'lib, uni nazariy asoslash va amaliy tadqiqotlar asosida hal etishni taqozo etadi. Ilmiy manbalarda ta'kidlaganidek, “korxonaning ichki nazorat tizimi noxolis ma'lumotlar paydo bo'lishining oldini olish va ishonchni shakllantira olgandagina samarali hisoblanadi”⁹¹.

Ichki nazorat korxona mol-mulkini shikastlanish va o'g'irlanishdan himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar mavjudligini ta'minlaydi va rahbariyatga qishloq xo'jaligi sharoitida xodimlarning faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi.

“Samarali ichki nazorat tizimini loyihalashda korxona rahbariyati quyidagilarni ta'minlashi lozim:

⁹⁰ Рузиева Д. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНВЕНТАРИЗАЦИИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 10. – С. 183-196.

⁹¹ Bakhodirovna A. N. DIRECTIONS FOR DEVELOPMENT AND IMPROVEMENT OF A MANAGEMENT ACCOUNTING SYSTEM //Economics and Innovative Technologies. – 2019. – Т. 3. – №. 10.

- Korxona to'g'risida aniq, to'liq, dolzarb va o'z vaqtidagi ma'lumotlarni yaratish. Bunda buxgalteriya va nomoliyaviy ma'lumotlardan foydalanish samarali qaror qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

- Qishloq xo'jalik korxonasining moddiy boyliklarini va potentsial resurslarini saqlashga ko'maklashadigan hujjatlarni boshqarish tizimini joriy etish.

- Qishloq xo'jalik korxonasi faoliyatini baholash mezonlarini belgilash va ushbu maqsadlarga erishish strategiyasini ishlab chiqish.

- Bo'limlar o'rtasidagi aloqa tarmog'idan foydalangan holda, markazlashtirilgan yoki markazlashtirilmagan qaror qabul qilish jarayonlarini qo'llab-quvvatlaydigan, korxonaning axborot tizimi vazifasini bajaradigan mukammal buxgalteriya tizimini yaratish.

Ichki nazorat tizimi korxona rahbariyati tomonidan ma'lum maqsadlarga erishish uchun joriy etilgan qoidalar va tartiblar majmuasidir⁹². Shuningdek, buxgalteriya hisobini aniq, to'liq va ishonchli yuritish hamda moliyaviy ma'lumotlarni o'z vaqtida tayyorlash ham muhim vazifalar sirasiga kiradi. Bundan tashqari, mazkur tizim tashkilot ichida firibgarlik holatlari va xatoliklarning oldini olishga qaratilgan bo'lib, uning samarali ishlashi korxonaning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlaydi.

Korxona rahbari tomonidan chorvachilikda amaldagi biologik aktivlar ustidan ichki nazoratni tashkil etish tartibi tasdiqlanadi. Bosh buxgalter ushbu aktivlar bilan qonunchilik talablariga muvofiq operatsiyalarning to'g'riligini ta'minlash, tegishli hujjatlarni tayyorlash va moliyaviy javobgar shaxslar uchun hisobotlarni tayyorlash uchun javobgardir. Bosh buxgalter nazorati ostidagi bo'lim asosiy vazifalari: chorvachilik biologik aktivlarini hisoblash uslubiga rioya qilish, buxgalteriya hisobini to'liq va tizimli yuritishni ta'minlash, hisob-kitob va hujjatlar to'g'riligini nazorat qilish, moddiy javobgar xodimlarning hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirishini ta'minlash, biologik aktivlarning qabul qilish va hisobdan chiqarilishini kuzatish, shuningdek, inventarizatsiyaning haqqoniy va aniq o'tishini ta'minlashdan iborat.

⁹² Luo M. Enterprise internal control and accounting information quality //Journal of Financial Risk Management. – 2017. – T. 6. – №. 1. – C. 16-26.

Chorvachilikdagi joriy biologik aktivlar ustidan ichki nazoratni amalga oshirishda quyidagi chora-tadbirlar zarur:

- Buyruqlar, nizomlar va yo'riqnomalarni ishlab chiqish va tasdiqlash, korxona xodimlari tomonidan ushbu talab va qoidalarga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash.
- Joriy biologik aktivlarning mavjudligi va harakati bilan bog'liq barcha hujjatlarning to'g'riligini ta'minlash, shuningdek, ma'lumotlarning ishonchliligi uchun mas'uliyatni hujjatlarni tayyorlagan shaxslarga yuklash.
- Ro'yxatga olish, qabul qilish, topshirish, hisobdan chiqarish jarayonlari, qilingan xarajatlar, inventarizatsiya yozuvlarining to'g'riligini tekshirish va nazorat qilish, shuningdek, yo'qotishlar, kamomadlar, ortiqchalar va boshqa o'zgarishlarni hisobdan chiqarish jarayonlarini nazorat qilish vazifalarini belgilash.

“Ichki nazoratning mustahkam tizimini yaratish uchun ichki nazorat standartlarini belgilash, nazorat jarayonini avtomatlashtirish va ichki nazoratning me'yoriy muhitini takomillashtirish zarur. Shuningdek, foydani shakllantirish va taqsimlash jarayonlarini, aktsiyadorlar oldidagi boshqaruv hisobdorligini va moliyaviy hisobotlarning to'g'riligini nazorat qiluvchi ichki nazoratchi lavozimini yaratish ham foydadan holi bo'lmaydi”⁹³. Bundan tashqari, ushbu lavozim qo'shimcha kapital va investitsiyalarni jalb qilish uchun javob beradi.

“Chorvachilikdagi joriy biologik aktivlar operatsiyalari ustidan ichki nazorat quyidagilarga qaratiladi: operatsiyalarni aniq hisobga olish, buxgalteriya ma'lumotlarini tekshirish va moliyaviy hisobotlarda baholash aniqligini ta'minlash. Nazoratda korxonaning nizomlari, hisob siyosati, birlamchi hujjatlar va moliyaviy hisobotlar asosiy manba hisoblanadi. Tekshiruvlar hayvonlarning holati, kirim-chiqimlari va saqlanishi jarayonlariga qaratiladi; jiddiy kamchiliklar aniqlansa, to'liq tekshiruv o'tkaziladi. Nazorat zootexnika va buxgalteriya registrlari, ishlab chiqarish va statistika hisobotlari orqali amalga oshiriladi. Nazorat bosqichlari —

⁹³ Wang P., Bu H., Liu F. Internal control and enterprise green innovation //Energies. – 2022. – T. 15. – №. 6. – C. 2193.

hujjatlarni tekshirish, hayvonlarning kirimi va chiqimini nazorat qilish, saqlash va xatlovni nazorat qilishdan iborat. Bu jarayonlar qishloq xo‘jaligi korxonalarida hujjatlashtirish va buxgalteriya hisobini yaxshilashga yordam beradi”⁹⁴.

Monitoringning maqsadi har bir hayvon, xo‘jalik va moliyaviy masalalar uchun mas’ul shaxslar bo‘yicha nasllarni ro‘yxatga olishning aniqligini va o‘z vaqtida bajarilishini tekshirishdan iborat. Buning uchun biz “birlamchi hujjatlardagi (masalan, hayvonlar nasli qaydnomalari) yozuvlarni, shuningdek zootexnika va buxgalteriya ro‘yxatlarini sinchiklab ko‘rib chiqishimiz lozim. Bundan tashqari, turli hujjatlar va buxgalteriya hisobotlaridagi nasllarni ro‘yxatga olish sanalari bir-biriga mos kelishini ta’minlash juda muhimdir”⁹⁵.

Hayvonlarning xavfsizligi va mavjudligini ta’minlash uchun batafsil inventarizatsiya o‘tkazilishi kerak. Bu jarayon o‘g‘irlik, naslning to‘liq bo‘lmagan hisobi yoki boshqa suiiste’mollik holatlarini aniqlashga yordam beradi. U ichki nazorat o‘rnatilgani va ma’lumotlar to‘g‘ri to‘planayotganiga ishonch hosil qilish uchun chorvachilik obyektlarini tekshirish bilan birga olib borilishi kerak. Chorvachilikda hayvonlarning harakati va holatini nazorat qilishning ishonchli usuli muhim ahamiyatga ega. Bunda har bir alohida hayvonning hozirgi holati va reproduktiv holati to‘g‘risida aniq ma’lumot beradigan inventarizatsiya o‘tkaziladi. Shundagina, hayvonlar to‘g‘ri parvarish qilinayotgani va ularning ehtiyojlari qondirilayotganini ta’minlashimiz mumkin.

Inventarizatsiya komissiyasi a’zolari “chorvachilikdagi joriy biologik aktivlar hisobining to‘g‘riligi va ishonchliligini ta’minlash uchun javobgardir. Ularga quyidagilar yuklatiladi:

- joriy biologik aktivlarning haqiqiy miqdorini aniqlash;
- haqiqiy va qayd etilgan raqamlar o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash;

⁹⁴ Лебедева Д. Д., Исхаков А. Т. Развитие инвентаризации животных в АПК с применением новых технологий //Проблемы технического сервиса в АПК. – 2020. – С. 127-131.

⁹⁵ Горло В. И. Инвентаризация молодняка животных-основной элемент внутреннего контроля сельскохозяйственных организаций //СОВРЕМЕННОЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ И НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДОПОЛЬЗОВАНИЯ. – 2016. – С. 3856-3838.

- mavjud aktivlarni saqlash uchun tegishli shart-sharoitlar va tartiblar mavjudligini ta'minlash;
- aktivlarning boshlang'ich va haqqoniy qiymatlari to'g'riligini tekshirish;
- zaxiralarni boshqarishni nazorat qilish;
- tovar-moddiy zaxiralarning to'g'riligini muntazam tekshirish va ularni saqlash joylarida joyida tekshirish;
- jiddiy qoidabuzarliklar yoki muammolar yuzaga kelganda, korxona rahbaridan qoidalarga rioya etilishini ta'minlash uchun qo'shimcha inventarizatsiya o'tkazishni talab qilish;
- qimmatliklarning kamomadi yoki shikastlanishiga sabab bo'lgan yoxud boshqa qoidabuzarliklarga yo'l qo'ygan shaxslarning yozma tushuntirishlarini ko'rib chiqish;
- buxgalteriya bo'limi bilan birgalikda inventarizatsiya natijalarini aniqlashda, kamomadlar va ortiqchalarni qayta navlarga ajratish uchun hisobga olish, kamomadlarni hisobdan chiqarish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- korxona rahbarining topshirig'iga muvofiq inventarizatsiya o'tkazish tartibiga rioya etilishi va o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlash, inventarizatsiya qaydnomalarida mol-mulk, aktivlar, pul mablag'lari, hujjatlar, qimmatli qog'ozlar va to'lanmagan to'lovlarning haqiqiy qoldig'i to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liqligi va to'g'riligini ta'minlash"⁹⁶.

Xomashyo va materiallarni har bir alohida va saqlash joyi bo'yicha kompleks tekshirish o'tkazilishi kerak. Tekshiruv davomida komissiya xomashyoning mavjudligini qayta hisoblash, tarozida tortish yoki o'lchash yo'li bilan tasdiqlaydi. Inventarizatsiyaning qolgan ma'lumotlari faqat miqdorlar naturada tekshirilgandan so'ng inventarizatsiyaga yoziladi. Qolgan inventarizatsiya ma'lumotlarini moddiy javobgar shaxslarning dalolatnomalari yoki buxgalteriya hisobi yozuvlari asosida kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

⁹⁶ Сеченова Л. П., Цомаева И. В., Любичкая В. А. Методические подходы к процессу инвентаризации на промышленном предприятии на основе обобщения зарубежной и отечественной практики //Финансовый менеджмент. – 2019. – №. 6. – С. 53-61.

Agar xomashyo va materiallar omborda yyetkazib beruvchining buzilmagan yopiq o‘ramida saqlanayotgan bo‘lsa, bir nechta o‘ramni tanlab ochishga, o‘ralgan moddiy-ishlab chiqarish zaxiralarining umumiy miqdorini esa yuklab jo‘natish hujjatlari bo‘yicha aniqlashga yo‘l qo‘yiladi.

Agar omborda ko‘p miqdorda xomashyo bo‘lsa, bir necha kun ichida omborni inventarizatsiya qilish kerak bo‘lishi mumkin. Buning uchun “inventar yorliqlari (O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”ga 5-ilova)”⁹⁷ dan foydalanish muhimdir. Bu yorliqlarda saqlash joylari bo‘yicha materiallar va ishlab chiqarish zaxiralarining nomi va miqdori ko‘rsatiladi. Yorliqlar bir nusxada tuziladi va hisoblangan inventar bilan birga saqlanadi. “Barcha tovar qoldiqlari hisoblab chiqilgandan va tovar-moddiy zaxiralarning mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yorliqlarga kiritilgandan keyin komissiya ushbu ma’lumotlar asosida tovar-moddiy zaxiralar qaydnomasi (O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”ga 6-ilova)”⁹⁸ ni to‘ldiradi.

Tekshiruv davomida xomashyo va materiallar kelib tushgan taqdirda, ular alohida ro‘yxatda hisobga olinadi. Inventarizatsiya jarayonida xomashyo yaroqsiz yoki shikastlangan deb topilsa, ular inventarizatsiya qilinganligi to‘g‘risidagi alohida dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Keyin ularni arzonlashtirilgan narxda sotish mumkin yoki yo‘qligini aniqlash kerak. Agar ularni sotish mumkin bo‘lmasa, sotilmaydigan xomashyo uchun ularni hisobdan chiqarish to‘g‘risida dalolatnoma tuziladi.

“Xarid qilinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar tarkibiga tayyor mahsulotni butlash uchun zarur bo‘lgan tayyor mahsulotlar (pudratchilardan), shuningdek, ularga ishlov berish va yig‘ish xarajatlari kiradi. Inventarizatsiya jarayonida ushbu mahsulotlarning to‘g‘ri saqlanishi va chiqarilishini tekshiriladi,

⁹⁷ O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”, <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

⁹⁸ O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”, <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

ularning harakatini qayta hisoblanadi va qayd etiladi. Inventarizatsiya natijalari (O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish"ga 6,7,8-ilova)"⁹⁹ dan foydalanish muhimdir.

Yoqilg'i inventarizatsiyasi yoqilg'ining haqiqiy qoldig'ini, tabiiy va noishlab chiqarish yo'qotishlarini aniqlash, shuningdek kelib tushgan yoqilg'i va uning sarfini hisobga olishning to'g'riligini tekshirish maqsadida o'tkaziladi.

Sig'implarda saqlanayotgan yoqilg'i uning sathini o'lchash va darajalash jadvallari yordamida litrlarga aylantirish yo'li bilan tekshiriladi. Yoqilg'ining massa bo'yicha miqdori (kilogramm, yuz kilogramm, tonna) inventarizatsiya paytida uning qolgan zaxirasining o'rtacha og'irlikdagi zichligini hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Kalibrlash jadvallari bo'lmasa, baklardagi yonilg'i hajmini hisoblash mumkin. Bochka, bidon va boshqa kichik idishlardagi yoqilg'i miqdori tarozida tortish, ularni to'laligicha to'ldirish, o'lchov idishlariga to'kish yoki darajalash jadvallari yordamida o'lchanadi.

Komissiya, shuningdek, transport vositalari, mashinalar, agregatlar baklarida yoqilg'i va yoqilg'i talonlarining haqiqatda mavjudligini tekshiradi. Inventarizatsiya yoqilg'ini o'lchov chizg'ichi bilan o'lchash yoki yoqilg'i bakining to'la hajmigacha quyish usuli bilan o'tkaziladi.

Idish va idish materiallarini inventarizatsiya qilish tovar-moddiy boyliklarni inventarizatsiya qilishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunday inventarizatsiya idishlar va idish materiallari materiallar muomalasida salmoqli ulushni tashkil etadigan korxonalarda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tekshirishdan oldin bo'sh idishlar va idish materiallari quyidagi turlar bo'yicha tanlanishi kerak: yog'ochdan yasalgan (qutilar, bochkalar); kartonli idishlar; metallardan tayyorlangan (flyagalar, barabanlar); turli materiallardan tikilgan qoplar.

⁹⁹ O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish", <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

“Idishlar va idish materiallari ro‘yxatlarga turlari, maqsadli vazifasi va sifat holatiga ko‘ra (yangi, ishlatilgan, ta‘mirtalab va h.k.) kiritiladi. Yaroqsiz holga kelgan idishlarga inventarizatsiya komissiyasi tomonidan buzilish sabablari ko‘rsatilgan holda hisobdan chiqarish dalolatnomasi tuziladi.

Idish va idish materiallarini inventarizatsiya qilish natijalarini rasmiylashtirish uchun (O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”ga 6-ilova)¹⁰⁰ ni to‘ldiradi.

Ehtiyot qismlarni inventarizatsiya qilish jarayonida ularning haqiqiy mavjudligini aniqlash, bu ma‘lumotlarni buxgalteriya hisoboti bilan taqqoslash zarur. Inventarizatsiya davomida ehtiyot qismlarni hisobdan chiqarish sabablarini aniqlash bo‘yicha kompleks ishlar amalga oshiriladi. Har bir nom bo‘yicha ehtiyot qismlarning turi, guruhi, miqdori hamda boshqa zarur ma‘lumotlar (artikul, nav va boshqalar) batafsil ro‘yxatga olinadi.

Inventarizatsiyani boshqarishni takomillashtirish uchun-yiliga ikki marta tayyor mahsulot, urug‘lik, ozuqa va o‘g‘itlarning fizik inventarizatsiyasini o‘tkazish, shuningdek, ehtiyot qismlar va tezkor inventarizatsiyaning mavjudligi va holatini tekshirish tavsiya etiladi. Inventarizatsiya jarayonida har bir buyumning turi, miqdori va boshqa ma‘lumotlarni (masalan, artikullar, navlar va h.k.) yozib borish zarur.

“Mol-mulkni inventarizatsiya qilish tartibini ichki xo‘jalik nazoratidan o‘tkazishni tavsiya etamiz. Buning uchun buyruq asosida tarkibi, tuzilishi va funktsiyalari tashkilot rahbariyati tomonidan belgilanadigan doimiy faoliyat yurituvchi taftish komissiyasini tuzish lozim. Ichki nazorat naqd pul mablag‘larini inventarizatsiya qilish dalolatnomalarini (O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”ga 12-ilova)¹⁰¹, solishtirish qaydnomalarini, ularning mavjudligini, rekvizitlarning to‘g‘ri to‘ldirilganligi va mazmunini sinchiklab tekshirishni;

¹⁰⁰ O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”, <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

¹⁰¹ O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”, <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

inventarizatsiya o'tkazish muddatlari va shartlarini, inventarizatsiya o'tkazish uchun buyruqlarning, moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalarning mavjudligini tekshirishni o'z ichiga olishi kerak.

“Nazorat jarayonida aniqlangan kamomad yoki ortiqcha mol-mulk bo'yicha qabul qilingan qarorlarning to'g'riligi, tafovutlar sabablari to'g'risida yozma tushuntirishlarning mavjudligi, inventarizatsiya natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi - hisobvaraqlar korrespondentsiyasi va hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirish zarur”¹⁰².

“Aktivlarni muvaffaqiyatli inventarizatsiya qilishni ta'minlash uchun tayyorgarlik tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lib, ular jarayonning har bir bosqichida inventarizatsiya komissiyalari faoliyatini tartibga soluvchi ichki hujjatlar - nizomlar, yo'riqnomalar va buyruqlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, tashkilotning hisob siyosatida asosiy inventarizatsiya tartiblarini aks ettirish muhim ahamiyatga ega”¹⁰³.

Tovar-moddiy zaxiralarni boshqarishga nisbatan hisob siyosatining muhim jihat bo'lib, tashkilot rahbari tomonidan tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiya qilish jadvalini tuzish va tasdiqlash, shuningdek, inventarizatsiyaning to'g'riligini tekshirish bo'yicha monitoring tadbirlarini amalga oshirish hisoblanadi.

Inventarizatsiyani boshqarishning avtomatlashgan tizimlarini joriy etish ma'lumotlarni boshqarish uchun zarur bo'lgan xodimlar sonini sezilarli darajada kamaytiradi va inventarizatsiya operatsiyalari bilan bog'liq xarajatlarni kamaytiradi. Natijada, aktivlarni boshqarishni takomillashadi, aktivlarning xavfsizligi, ulardan samarali foydalanishni va ma'lumotlarning aniqligini ta'minlaydi va shu bilan boshqaruv uchun samarali qarorlar qabul qilish osonlashadi.

MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotni shakllantirish jarayonida yuqori inflyatsiyali iqtisodiyot sharoitida uzoq muddatli moddiy aktivlarning qayta baholanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Inflyatsiyani hisobga olmagan holda,

¹⁰² Нуралиев Р. Т. Ички назорат тизимини корхоналарда ташкил этиш ва унинг ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишдаги роли ва аҳамияти // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 8. – С. 54-59.

¹⁰³ Чернушкин М. С. Формирование учетной политики организации // Экономика и бизнес: теория и практика. – 2018. – №. 3. – С. 145-147.

aktivlarning balans qiymati ularning haqiqiy iqtisodiy qiymatini aks ettirmaydi. Shuning uchun, korxona hisob siyosatiga quyidagi tamoyillarni joriy etish taklif etiladi:

uzoq muddatli aktivlarni inflyatsiyalangan narxlarda qayta baholash tartibini belgilash;

qayta baholashdan keyingi qiymatni buxgalteriya hisobida mhxs talablariga muvofiq aks ettirish (masalan, mhxs 16 – “asosiy vositalar” standarti asosida);

qayta baholashdan hosil bo‘lgan farqni kapitalning qayta baholash rezerviga yozish;


bu operatsiyalarni maxsus buxgalteriya registrlarida (masalan, qayta baholash jurnali yoki aktivlar harakati reestrda) yuritish va yillik moliyaviy hisobotga qo‘shilgan izohlar orqali ochiqlash.

Dissertatsiyada xo‘jalik yurituvchi subyektlar hisob siyosatiga uzoq muddatli aktivlarni inflyatsiyani hisobga olgan holda qayta baholash tartibini joriy etish va bu operatsiyalarni hisob va hisobot registrlarida aks ettirish mexanizmini kiritish taklif etiladi. Bu taklif MHXSning 16-sonli “Asosiy vositalar” va 29-sonli “Yuqori inflyatsiyali iqtisodiyotda moliyaviy hisobot” standartlariga muvofiq amalga oshirildi.

Qayta baholash natijasida aniqlangan qiymatdagi farq korxona kapitalining qayta baholash rezerviga o‘tkaziladi va amortizatsiya qayta baholangan qiymat asosida hisoblab boriladi. Buxgalteriya hisobida esa bu holat maxsus yuritiladigan qayta baholash jurnali yoki asosiy vositalar harakati reestri orqali aks ettirilib boriladi. Shuningdek, yillik moliyaviy hisobotga ilova qilinadigan izohli eslatmalarda qayta baholash sanasi, usuli, asoslari va natijalari batafsil bayon qilinadi. Fikrimizcha, ushbu yondashuv orqali aktivlarning balans qiymati ularning real bozor qiymatiga yaqinlashtiriladi, moliyaviy hisobotning aniqligi va foydalanuvchilar uchun axborotning ishonchliligi oshadi, korxonaning investitsion jozibadorligi esa mustahkamlanadi.

Uzoq muddatli moddiy aktivlar qiymatining inflyatsiya sharoitida real iqtisodiy holatni aks ettirishi uchun ularni qayta baholash zarurati yuzaga keladi.

Quyidagi grafikda 2020–2024 yillar davomida bir turdagi asosiy vositaning dastlabki qiymati va MHXS talablari asosida inflyatsiyani hisobga olgan holda (shartli) qayta baholangan qiymatlari taqqoslab ko‘rsatilgan. Mazkur yondashuv orqali inflyatsiya bosimi ostida aktivlarning asl qiymati va bozordagi haqiqiy bahosi o‘rtasidagi tafovut bartaraf etiladi.



2.2.-rasm. Uzoq muddatli aktivlarning qayta baholanishi: 2020–2024 yillar taqqoslanmasi

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, aktivlarning dastlabki qiymati yillardan-yilga o‘zgarmay qolgan bo‘lsada, qayta baholangan qiymatlar inflyatsiya ta‘siri ostida izchil o‘sib borgan. Bu holat MHXSning 29-sonli standarti doirasida aktivlar qiymatini real holatga yaqinlashtirish zarurligini tasdiqlaydi. Qayta baholash amaliyoti korxona aktivlarining moliyaviy hisobotdagi aksini yanada aniqroq va investitsiya qarorlarini qabul qilishda foydalanuvchilar uchun ishonchliroq qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, inflyatsiyani hisobga olgan holda uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash amaliyoti xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini real va ishonchli tarzda aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, dastlabki qiymat asosida yuritilgan buxgalteriya hisobida aktivlarning eskirishi va bozor sharoitlarida ularning qiymatidagi sezilarli farqlar e‘tibordan chetda qolishi mumkin. Shu bois, korxonaning hisob siyosatida inflyatsion sharoitlarda aktivlarni qayta baholashga oid tartibni belgilash va bu amaliyotni buxgalteriya va moliyaviy hisobot registrilarida tizimli aks ettirishni taklif etish dolzarb hisoblanadi.

2.7-jadval

Uzoq muddatli aktivlarning qayta baholanishi natijalari (so‘mda)

Aktiv nomi	Dastlabki baho (so'm)	Qayta baholash sanasi	Yangi baho (so'm)	Farq (so'm)	Sababi	Hisobotga ta'siri
Binolar	500000000	01.01.2024	650000000	+150000000	Inflyatsiya, bozordagi narx o'sishi	Aktivlar va kapital o'sadi
Uskunalar	200000000	01.01.2024	180000000	-20000000	Eskirish, texnik standartlar	Aktivlar kamayadi

2024-yil boshida xo'jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli aktivlarning qiymatini qayta baholash amalga oshirildi. Bu jarayon natijasida aktivlarning bozor qiymati va ularning moliyaviy hisobdagi ko'rsatkichi o'zgardi. Quyidagi jadvalda binolar va uskunalarining dastlabki bahosi, yangi bahosi, ularning farqi hamda ushbu o'zgarishlar sabablari ko'rsatilgan.

Binolarning qiymati inflyatsiya va bozor sharoitlarining o'zgarishi sababli oshdi, bu esa aktivlar va kapitalning o'sishiga olib keldi. Uskunalar esa eskirish va texnik yetishmovchilik tufayli qadrsizlandi, natijada aktivlar kamaydi. Ushbu qayta baholash korxona moliyaviy holatini yanada real ko'rsatishga yordam beradi.

2.3. Qishloq xo'jalik korxonalarida inventarizatsiya o'tkazish va uni natijalarini rasmiylashtirishning xorij tajribasi

Korxona mulkini saqlab qolish, yo'qotish va zararlarning oldini olish, ulardan maksimal darajada samarali foydalanish har bir tashkilot buxgalteriya hisobi jarayonining asosiy maqsadi hisoblanadi. Inventarizatsiya, o'z navbatida, ishlab chiqarish korxonasining aktivlari va majburiyatlari xavfsizligini nazorat qilishning eng muhim vositasidir. Uning asosiy maqsadi aktivlar va majburiyatlarning haqiqatda mavjudligi buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga mos kelishini ta'minlashdan iborat.

Inventarizatsiya jarayonining ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Masalan, Qadimgi Misrda (miloddan avvalgi 3400-2980-yillar) har ikki-yilda bir marta har bir xonadonning mol-mulki ro'yxatga olingan. Bu jarayonda Misr aholisiga tegishli barcha mulklarga qaramay, fir'avn jamoaviy mulkdor bo'lishiga ishonch hosil qilish uchun hamma narsa istisnosiz hisoblab chiqilgan.

Dastlab qadimgi Misr, Bobil, qadimgi Eron va Falastinda pul tizimi bo‘lmaganligi sababli inventarizatsiya faqat natura shaklida o‘tkazilgan. Bu esa hisobvaraqlar moddalarining puldagi qiymatini aniqlamasdan turib, ularni miqdoriy baholash imkonini berdi. Faqat qadimgi Yunonistonda pul muomalaga kiritilgandan keyingina mulkni baholash tizimi paydo bo‘la boshladi. “O‘shanda ham mulkni qanday baholash kerak: sotib olish narxi bo‘yicha yoki sotish narxi bo‘yicha degan savollar paydo bo‘lgan. Shu tariqa, pul mablag‘larini joriy etishni kompleks buxgalteriya hisobini rivojlantirish, aktivlarni pulda baholash, binobarin, tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiya qilish jarayonining katalizatori sifatida ko‘rish mumkin.

XVIII-XIX asrlardayoq quyidagi qiymatlar guruhlarini ajratib ko‘rsatilgan: binolar va inshootlar; oziq-ovqat mahsulotlari; chorva mollari; maishiy jihozlar”¹⁰⁴.

Ushbu ro‘yxatga pul yoki uning ekvivalentlari kiritilmagan bo‘lsa-da, milodiy X asrda G‘arbiy Yevropada pul mablag‘lari inventarining bir qismiga aylangan edi.

“Kapitalizm davrida inventarizatsiya jarayoni yangi maqsadga - moliyaviy natijalarni aniqlashga xizmat qila boshladi. Korxona tovar sotib olganda, “Tovarlar” hisobvarag‘ining debetida mazkur tovarlarning xarid narxlarida kelib tushishi aks ettiriladi. Aksincha, korxona ushbu tovarlarni sotganda, shu hisobvaraqlarning kreditida ularning sotish narxlarida hisobdan chiqarilishi qayd etiladi. Bu esa debet va kredit aylanmalari o‘rtasida farq paydo bo‘lishiga olib keladi”¹⁰⁵.

Shundan so‘ng, omborda qolgan tovarlar inventarizatsiya qilinib, xarid narxlarini asosida baholanadi.

“Shunday qilib, inventarizatsiya jarayoni har doim aktivlar va majburiyatlarning haqiqatda mavjudligini buxgalteriya hisobi ma‘lumotlari bilan muvofiqlashtirish uchun qo‘llanilgan va bu maqsadga erishishning yagona vositasi

¹⁰⁴ Сеченова Л. П., Цомаева И. В., Любичкая В. А. Методические подходы к процессу инвентаризации на промышленном предприятии на основе обобщения зарубежной и отечественной практики //Финансовый менеджмент. – 2019. – №. 6. – С. 53-61.

¹⁰⁵ Сеченова Л. П., Цомаева И. В., Любичкая В. А. Методические подходы к процессу инвентаризации на промышленном предприятии на основе обобщения зарубежной и отечественной практики //Финансовый менеджмент. – 2019. – №. 6. – С. 53-61.

bo‘lib xizmat qilgan”¹⁰⁶. Vaqt o‘tishi bilan inventarizatsiya vazifalari murakkablashib, takomillashib, qadimgi Misrda davlat mulkini miqdoriy jihatdan qayta hisoblashning oddiy jarayonidan zamonaviy kapitalizm davrida korxonalar xo‘jalik faoliyatining samaradorligini baholashga qadar rivojlanib bordi.

Ushbu vazifalarning har biri korxonaning ma’lum bir bo‘linmasini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Bu esa aktivlar va majburiyatlarni to‘g‘ri aniqlash hamda ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar bilan taqqoslash imkonini yaratadi. Inventarizatsiya natijalari asosida moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi oshiriladi.

Bizningcha, “inventarizatsiya jarayoniga nafaqat buxgalteriya hisobi usuli sifatida, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun qimmatli axborot manbai sifatida ham qarash kerak. Agar tovar-moddiy zaxiralarni biznes-jarayon sifatida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, quyidagi kichik jarayonlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- 1) inventarizatsiya o‘tkazish to‘g‘risida buyruq berish;
- 2) har bir ish joyining pasportini chop etish;
- 3) ish joyida buyumlarning mavjudligini tekshirish;
- 4) inventarizatsiya hujjatlarini tuzish va olingan ma’lumotlarni aks ettirish;
- 5) inventarizatsiya hujjatlarini chop”¹⁰⁷ etish.

“O‘quv adabiyotlarida bu jarayonlar quyidagicha tavsiflanadi:

1. Tekshirilishi lozim bo‘lgan mol-mulk sanasi va turi belgilanadi. Inventarizatsiya dalolatnomasi tuziladi va tekshiruv guruhi a’zolariga tarqatiladi.

2. Mol-mulk va majburiyatlarning haqiqatda mavjudligi tekshiriladi va inventarizatsiya yozuvlari tuziladi.

3. Inventarizatsiya qaydnomalari buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan solishtiriladi. Har qanday nomuvofiqlik sabablari aniqlanadi.

4. Verifikatsiya jarayonining natijalari tahlil qilinadi. Haqiqiy va qayd etilgan ma’lumotlar o‘rtasida tafovutlar mavjud bo‘lgan taqdirda inventarizatsiya natijalari

¹⁰⁶ Сеченова Л. П., Цомаева И. В., Любичкая В. А. Методические подходы к процессу инвентаризации на промышленном предприятии на основе обобщения зарубежной и отечественной практики //Финансовый менеджмент. – 2019. – №. 6. – С. 53-61.

¹⁰⁷ Ruziyeva D. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya natijalari tahlilining nazariy asoslari //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 2. – №. 7.

bo'yicha tafovutlar to'g'risida dalolatnoma tuziladi. Shundan so'ng komissiya inventarizatsiya dalolatnomasini tuzadi. Mol-mulkning ortiqchasi uni sotishdan keladigan foydani ko'paytirish uchun ishlatiladi, mol-mulkning kamomadi va buzilishi esa ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shiladi. Me'yordan oshib ketish holatlari aybdorlarga yuklatiladi"¹⁰⁸.

"Inventarizatsiya jarayonini tartibga soluvchi xorijiy me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilganda ba'zi o'ziga xos xususiyatlarni kuzatish mumkin. Masalan, Germaniyaning Savdo kodeksi (Handelsgesetzbuch, qisqacha HGB) inventarizatsiya jarayonining quyidagi bosqichlarini belgilaydi: 1. Tayyorgarlik; 2. Inventarizatsiya komissiyasini tuzish; 3. Inventarizatsiyani o'tkazish; 4. Inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish"¹⁰⁹.

Germaniyada Savdo kodeksiga muvofiq, barcha tadbirkorlar o'z aktivlarini har-yili inventarizatsiyadan o'tkazishlari shart. Bu inventarizatsiya ularning moliyaviy hisobotlari aniqligini va to'liqligini tekshirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Inventarizatsiya mamlakat soliq qonunchiligi bilan ham tartibga solinadi.

Inventarizatsiya ma'lumotlari inventarizatsiya ro'yxati shaklida tuziladi. Unda aktivlarning alohida tarkibiy qismlari, shuningdek, qarzlar turi, miqdori va qiymati bo'yicha ma'lum bir vaqt nuqtasiga ko'ra batafsil ko'rsatiladi. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, inventarizatsiya ro'yxati korxonaning sof qiymati deb ham ataladigan xususiy kapitalini hisoblash imkonini beradi.¹¹⁰ Demak, Germaniyada inventarizatsiyaning asosiy maqsadi mol-mulk va majburiyatlarning mavjudligini nazorat qilishdan iborat.

Ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda tovar-moddiy zaxiralarni boshqarishga o'zgacha yondashuv qo'llaniladi. Inventarlarning mavjudligi va

¹⁰⁸ Buxgalteriya hisobi: oliy ta'limning 60310100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) hamda 60310110 - Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A.A.Abduvoxidov// B.A. Xasanov tahriri ostida. - Sirdaryo: "Ziyo" nashriyoti, 2025. - 568 bet. 1-jild.

¹⁰⁹ Сеченова Л. П., Цомаева И. В., Любичкая В. А. Методические подходы к процессу инвентаризации на промышленном предприятии на основе обобщения зарубежной и отечественной практики //Финансовый менеджмент. – 2019. – №. 6. – С. 53-61.

¹¹⁰ Fofanov M. V. Theoretical and practical aspects of inventory management by economic entities of the EU and the USA //Industry: economics, management, technology. – 2012. – №. 5 (44). – Pp. 176-179.

harakatini nazorat qilish bilan bir qatorda, ularning yakuniy qiymatini aniqlash ham muhim hisoblanadi.

“Davriy inventarizatsiya usulidan foydalanilganda, tovar-moddiy zaxiralarning harakatiga doir tahliliy hisob yuritilmaydi. Shu sababli, sotilgan mahsulotlar tannarxi hisobot davri oxirida amalga oshirilgan inventarizatsiya natijalari asosida hisoblab chiqiladi”¹¹¹.

Hisobot davri davomida xarid qilingan barcha tovarlar qiymati “Tovar xaridi” hisobvarag‘ida jamlanadi. Davr oxirida haqiqatda mavjud bo‘lgan zaxiralar umumiy xarid summasidan ayiriladi. Yakuniy qoldiqni aniqlash uchun esa davr boshidagi qoldiq qiymati qo‘shiladi. Bu yondashuv zaxiralarni doimiy kuzatish o‘rniga, davriy asosda baholashga imkon beradi.

Ushbu holatning o‘ziga xos jihati shundaki, tovarlar tannarxiga yo‘qotishlar (shikastlanish, o‘g‘irlik, nuqsonlar va boshqalar) ham kiritiladi.

Doimiy inventarizatsiya tizimini joriy etishda korxonalar 3-5 kishidan iborat doimiy inventarizatsiya guruhlarini tashkil etadilar. Bu guruhlar har kuni tasodifiy inventarizatsiya tekshiruvlarini o‘tkazish uchun mas’uldirlar. Bunday faol yondashuv kamchilik va ortiqchaliklarni tezkor aniqlashga yordam beradi, moddiy javobgar shaxslarning mas’uliyatini oshiradi va tovar-moddiy zaxiralarni boshqarishda tartibni saqlashga ko‘maklashadi. Pirovardida, bu yondashuv korxona xarajatlarini kamaytiradi va ombordagi tovar-moddiy zaxiralarning haqiqiy mavjudligini real vaqt rejimida ko‘rish imkonini beradi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida inventarizatsiya jarayonini rejalashtirish alohida e‘tibor talab etadi. Bu jarayon biznes-jarayonlar tahlilini, ishtirokchilar uchun yo‘riqnomalarni, inventarizatsiyani o‘tkazish usulini va natijalarni qayd etishni o‘z ichiga olishi shart. Batafsil inventarizatsiya dasturi muvaffaqiyatli inventarizatsiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu dasturda qimmatbaho buyumlarni nazorat qilish va hujjatlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar, shuningdek

¹¹¹ Крысанова Л. В., Стишкова Е. В. Инвентаризация имущества и финансовых обязательств в сельском хозяйстве //Потребительский рынок: ка-чество и безопасность товаров и услуг. Материалы национальной научно-практической конференции.-Рязань. – 2019. – С. 128.

buxgalteriya xodimlari uchun miqdorlarni hisoblash, narxlarni aniqlash va umumiy summalarni chiqarish bo'yicha aniq yo'riqnomalar bo'lishi lozim.¹¹²

O'rganilgan nazariy va amaliy manbalarga tayangan holda, inventarizatsiya jarayonining quyidagi bosqichma-bosqich amalga oshirilishi to'liq va tizimli yondashuv sifatida baholanadi:

1. **Inventarizatsiya sanasi va obykti aniqlanadi**, ya'ni tekshiruv qaysi davrda va qaysi turdagi mol-mulk yoki majburiyatlarga nisbatan o'tkazilishi belgilanadi.
2. **Inventarizatsiyani o'tkazish to'g'risida buyruq rasmiylashtiriladi**, unda komissiya tarkibi, muddatlar va mas'ul shaxslar ko'rsatiladi.
3. **Buyruq asosida komissiya a'zolari rasmiy tanishtiriladi**, ular vazifalari va javobgarligi bilan ogohlantiriladi.
4. **Zaruratga ko'ra nazorat o'lchovlari (qayta sanash, tortish, o'lchash va boshqalar) amalga oshiriladi**, bu esa inventarizatsiya aniqligini oshiradi.
5. **Tekshiruv joylari maxsus o'lchov vositalari bilan jihozlanadi**, bu esa mol-mulk holatini ob'yektiv baholash imkonini beradi.
6. **Moddiy javobgar shaxslardan mol-mulk to'g'risidagi tilxatlar olinadi**, bunda barcha boyliklar to'liq topshirilgani tasdiqlanadi.
7. **Mol-mulk va majburiyatlarning real mavjudligi aniqlanadi**, bu esa mavjudlik, butlik va yaroqlilik jihatidan tekshirishni o'z ichiga oladi.
8. **Aniqlangan ma'lumotlar asosida inventarizatsiya ro'yxatlari tuziladi**, ular to'liq, aniq va ishonchli bo'lishi lozim.
9. **Inventarizatsiya ma'lumotlari buxgalteriya hisobi yozuvlari bilan taqqoslanadi**, bunda tafovutlar aniqlanadi.
10. **Tafovutlar mavjud bo'lsa, ularning kelib chiqish sabablari o'rganiladi**, bu xatoliklar yoki ehtimoliy buzilishlar bo'yicha choralar ko'rishga asos bo'ladi.

¹¹² Sytnik O. E., Kudaeva A. A. Inventory: theoretical aspects of its implementation in Russia and abroad //Bulletin of the Institute of Friendship of the Peoples of the Caucasus (Theory of economics and management of the national economy). Economic sciences. - 2017. - No. 4. - pp. 25-25.

11. Solishtirma dalolatnomalar tuzilib, moddiy javobgar shaxslar tomonidan imzolanadi, bu esa aniqlangan tafovutlarning rasmiy tasdig'i hisoblanadi.

12. Komissiya yig'ilishi o'tkaziladi, unda inventarizatsiya natijalari muhokama qilinadi va yakuniy hisobot rasmiylashtiriladi.

13. Aniqlangan tafovutlar va mol-mulkdagi o'zgarishlar buxgalteriya hisobi orqali belgilangan tartibda hisobga olinadi.

Inventarizatsiya jarayonining boshlanishi, uning davomiyligi va aniq tekshirilayotgan aktivlar inventarizatsiyaning maqsadiga bog'liq bo'ladi. Tanlab o'tkaziladigan inventarizatsiya, masalan, mol-mulknı almashtirish yoki qayta baholash hisobiga, ma'lum bir aktivlar bo'yicha ma'lum bir sanada qisqa vaqt ichida o'tkaziladi. Bundan farqli o'laroq, yillik yoki muhim moliyaviy hisobotlar, soliq tekshiruvlari, biznesni baholash yoki qayta tashkil etish uchun zarur bo'lgan keng qamrovli inventarizatsiya odatda uzluksiz bo'lib, oktyabr oyidan keyin boshlanadi va uzoqroq davom etadi.

Ko'rikdan o'tkazilgan buyumlar ro'yxati, sanalar, brigada a'zolari va mas'ul shaxslar ro'yxatini rasmiylashtirish uchun aniq ko'rsatmalarga ega bo'lgan buyruqdan foydalaniladi. Jamoaning har bir a'zosi kirim va chiqim orderlari bilan tanishib chiqishi shart.

Bizning fikrimizcha, keyingi bosqichda har bir saqlash joyida, tanlab olingan bir nechta buyumlar bo'yicha nazorat o'lchovlarini (tortish, qayta hisoblash va h.k.) o'tkazish zarur bo'ladi. Bu bir qator vaziyatlarda zarur.

1. Moddiy boyliklarga kirishda qiyinchiliklar yuzaga kelganda (masalan, joylashgan joyning balandligi, buyumlarning og'irligi, tokcha va stellajlarning tartibsizligi, ombordagi yuqori yoki past harorat va boshqa omillar tufayli), bunday to'siqlar darhol bartaraf etilishi lozim. Buning uchun quyidagi choralar ko'rilishi mumkin: omborxona yoki ustaxonani tozalash orqali kirishni osonlashtirish; taxlagichlar, yuklagichlar, kran to'sinlari kabi ombor uskunalari tayyorlash; har bir pozitsiyani o'lchash vaqtini aniqlash uchun nazorat tortishlarini o'tkazish va qayta hisob-kitob qilish. Ushbu qadamlar tekshiruv guruhiga kelgusi jarayonning

davomiyligini tushunish va inventarizatsiya paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun ketadigan vaqtni qisqartirish imkonini beradi.

2. Kichik mahkamlagichlar, asboblari, qimmatbaho metallar yoki suyuqliklar kabi narsalarni o'lchash qiyin bo'lganda, ular odatda alohida-alohida tortiladi va sanaladi. Bu inventarizatsiyada aniqlikni ta'minlash uchun qilinadi. O'lchanayotgan narsaga qarab turli vazn va aniqlik darajasiga ega bo'lgan tarozilarning mavjud bo'lishi muhimdir. Inventarizatsiyani boshlashdan oldin ushbu tarozilarning mavjudligini tekshirish va nazorat tortish jarayoni orqali ularning aniqligiga ishonch hosil qilish lozim.

3. Agar inventarizatsiya jarayonida ishlab chiqarishni yoki omborga yetkazib berishni to'xtatish imkoni bo'lmasa, u holda inventarizatsiyani tsexdagi asosiy jarayonni to'xtatmasdan o'tkazish kerak. Bunda inventarizatsiya jarayonini amalga oshirilayotgan faoliyatga xalaqit bermaydigan va kechikishlarga sabab bo'lmaydigan tarzda tashkil etish zarur.

Tegishli ma'lumotlar (masalan, inventar raqamlari, indekslar, kodlar, nomlar, parametrlar va hokazo) etishmasligi sababli tovar-moddiy boyliklarni aniqlash qiyin bo'lganda, bu holat ko'pincha O'zimizning asbob-uskunalarini saqlash joylarimizda muammoga aylanadi.

4. Tovlar-moddiy zaxiralar tartibsiz saqlanganda, ularni tashkil etish tizimini yaratish zarur bo'ladi. Bu tizim tokchalar va bo'linmalarni raqamlash, barcha qimmatbaho buyumlarni kartochkalarda belgilangan joylari bo'yicha joylashtirish hamda bir joyda (tokchada, qutida va hokazo) bir nechta buyum bo'lishining oldini olishni o'z ichiga oladi.

To'rtinchi bosqichning natijasi inventarizatsiyaning davomiyligini aniqlash va uni o'tkazish uchun shart-sharoitlarni tayyorlashdir.

Navbatdagi bosqichda barcha inventarlash joylari zarur o'lchov asboblari bilan jihozlanishi lozim.

Keyingi qadamda moddiy javobgar shaxslardan inventarizatsiya boshlangan sanaga qadar barcha kirim va chiqim hujjatlari buxgalteriyaga topshirilgani va hisobga olingani to'g'risida tilxat olishdan iborat. Agar moddiy javobgar shaxs tilxat

berishdan bosh tortsa, bu holat hujjatlashtirilishi va yozma ravishda tasdiqlanishi zarur.

Inventarizatsiya jarayonining yettinchi bosqichi eng muhim va eng ko'p vaqt talab etuvchi bosqich hisoblanadi. Mazkur bosqichda inventarizatsiya komissiyasi tomonidan mol-mulk va majburiyatlarning amalda mavjudligi to'g'ridan-to'g'ri tekshiruv asosida aniqlanadi. Ushbu jarayon albatta moddiy javobgar shaxslarning ishtirokida va buyruqda belgilangan muddatlar doirasida amalga oshiriladi.

Ushbu bosqich yakunida aniqlangan faktik ma'lumotlar asosida inventarizatsiya ro'yxatlari tuziladi (8- va 9-bosqichlar), bu ro'yxatlar keyinchalik buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan taqqoslanadi. Agar tafovutlar aniqlansa, ularning sabablari moddiy javobgar shaxslar tomonidan asoslab beriladi va bu haqda solishtirma dalolatnomalar (qiyosiy ro'yxatlar) tuziladi hamda ular tomonidan imzolanadi (10- va 11-bosqichlar).

Inventarizatsiya ma'lumotlarini baholashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan yakuniy bosqichda, natijalarni tekshirish va keng qamrovli hisobot tuzish uchun qo'mita yig'ilishi chaqiriladi.

“Inventarizatsiya natijalari tashkilotning moliyaviy ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatgani sababli, ushbu farqlarning ta'sirini va ularni hisobga olishni optimallashtirishning mumkin bo'lgan yo'llarini to'g'ri baholash zarur. Faqat komissiya yig'ilishi tugagach va u tomonidan qabul qilingan qarorlardan so'nggina aniqlangan farqlar hisobga olinadi. Umumiy tartibga ko'ra, ortiqcha mol-mulk nooperatsion daromad sifatida hisobga olinadi. Bunda har bir aniqlangan obyekt, agar ilgari sotib olingan bo'lsa, sotib olish narxi bo'yicha; agar o'z ishlab chiqarishidan bo'lsa, tannarxi bo'yicha; agar obyekt aniqlanmagan yoki baholanmagan bo'lsa, bozor qiymati bo'yicha baholanadi. Mol-mulkning kamomadi va shikastlanishi belgilangan me'yorlar doirasida ishlab chiqarish xarajatlari sifatida hisobga olinadi, me'yordan ortiqcha yyetkazilgan zarar esa aybdor shaxslar hisobidan qoplanadi”¹¹³.

¹¹³ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining “Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish” bo'yicha O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS)ni tasdiqlash to'g'risidagi buyrug'i, 2024-yil 12-avgustda 3548-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, <https://lex.uz/acts/-7058433>

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) doirasida, mahalliy biznes muhitida tovar-moddiy zaxiralarni boshqarishni rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirishda muvaffaqiyatli xalqaro tajribalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni inobatga olgan holda, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020-yildagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori"¹¹⁴, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.2020-yildagi 507-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" qarori"¹¹⁵, "O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining "O'zbekiston respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida" buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 9-dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3400)"¹¹⁶ kabi bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Xalqaro tajribadan kelib chiqib, zamonaviy korxonada inventarizatsiya jarayoniga ikki yo'nalishda yondashish zarur:

Birinchidan, bu jarayon — korxona aktivlari va majburiyatlarining xavfsizligini ta'minlash vositasi sifatida ko'riladi. Ikkinchidan esa, inventarizatsiya natijalari boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim axborot manbai vazifasini bajaradi.

Qishloq xo'jaligi tabiiy resurslarni qimmatli oziq-ovqat mahsulotlariga aylantiradi, bu esa aholi sonini ko'paytirish va farovonligini ta'minlashning muhim poydevori hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu sohaning rivojlanishi ishlab

¹¹⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, <https://lex.uz/en/docs/-4746047>

¹¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.2020 yildagi 507-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" qarori, <https://lex.uz/en/docs/-4966554>

¹¹⁶ O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining "O'zbekiston respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida" buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 9-dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3400) <https://lex.uz/en/docs/-6312360>

chiqarish, transport va xizmat ko'rsatish kabi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rag'batlantirib, mamlakatning umumiy iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shadi.

Biroq, butun dunyo bo'ylab qishloq xo'jaligi ko'plab qiyinchiliklarga duch kelmoqda, jumladan, davom etayotgan iqlim O'zgarishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarining beqarorligi va iste'molchilar afzalliklarining O'zgarishi. Ushbu muammolar qishloq xo'jaligi sanoatining uzoq muddatli barqarorligini va uning jahon iqtisodiyotiga qo'shadigan hissasini ta'minlash uchun kompleks yondashuvni talab qiladi. 41-son "Qishloq xo'jaligi"¹¹⁷ Xalqaro moliyaviy hisobot standarti (XMHS) agrobiznes sohasida moliyaviy hisobni tartibga solish zaruriyatiga javob beradi. Ushbu standart qishloq xo'jalik korxonalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning moliyaviy natijalarini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish qoidalarini belgilaydi.

41-son XMHSni qo'llash O'zbekiston buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishda muhim qadam hisoblanadi. U mahalliy buxgalterlarga qishloq xo'jaligi sohasidagi muammolarni tahlil qilish va hal etishni osonlashtiradigan moliyaviy ma'lumotlarning shaffofligini va taqqoslanishini oshirish mexanizmlarini taqdim etadi.

Qishloq xo'jaligidagi ishlarning hozirgi holatini ko'rib chiqish, shuningdek, biologik aktivlarni baholash xususiyatlari va usullarini ko'rib chiqish milliy buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish sharoitida muhim ahamiyatga ega.


Xususan, 41-sonli "Qishloq xo'jaligi" MHXSni joriy etish qishloq xo'jaligi sohasida moliyaviy hisobotlarning aniqligi va ishonchliligini oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

41-son XMHSning butun dunyo bo'ylab tarqalishi strategik ahamiyatga ega va global miqyosda qishloq xo'jaligi korxonalariga foyda keltirishi mumkin. Ushbu standartning qabul qilinishi jahon iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega, chunki

¹¹⁷

<https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-41-agriculture.html/content/dam/ifrs/publications/html-standards/english/2025/issued/ias41/>

u mamlakatlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga va qishloq xo'jaligi sohasida ishonchlilikni oshirishga xizmat qiladi.



2.3-rasm. Qishloq xo'jaligi aktivlari va ularning tasnifi¹¹⁸

O'zbekistonda 41-son XMHSni joriy etishning maqsadi qishloq xo'jaligi tashkilotlarining moliyaviy holati va faoliyati haqida ishonchli hamda to'liq tasavvur beradigan biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini hisobga olish tizimini yaratishdir.

Bu jarayon biologik aktivlarning xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, xo'jalik yuritishning aniq shart-sharoitlarini aniqlash, hamda qishloq xo'jaligi resurslarining o'zgaruvchan tabiati va hayotiy tsiklini baholashning tegishli usullarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning dolzarbligi qishloq xo'jaligi sanoatida **tirik biologik aktivlar** bilan ishlashning o'ziga xos jihatlariga asoslangan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida **tirik hayvonlar va o'simliklar** asosiy ishlab chiqarish resurslari hisoblanadi. Ular o'z tabiatiga ko'ra, **biologik rivojlanish bosqichlari** — tug'ilish, o'sish, ko'payish va nobud bo'lish jarayonlarini bosib o'tadi.

¹¹⁸ 41-son "Qishloq xo'jaligi" MXXS asosida shakllantirilgan.


Bu jarayonlar **BHXS (Xalqaro Buxgalteriya Hisob Standartlari)** 41-standartining 5-bandida **“biologik o‘zgarishlar”** deb nomlanadi. Biologik o‘zgarishlar quyidagi holatlarni o‘z ichiga oladi:

- tirik hayvonlar va o‘simliklarni sotish;
- biologik aktivlarning qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga aylanishi;
- bu mahsulotlarning yana boshqa biologik aktivlarga aylantirilishi.

Bu jarayonlar qishloq xo‘jaligi faoliyatining o‘ziga xos kompleks tabiati va iqtisodiy hisobotlardagi murakkabliklarini keltirib chiqaradi.

2.3-rasmda esa qishloq xo‘jaligi aktivlari va ularning **tasnifi** ko‘rsatilgan bo‘lib, ular quyidagi toifalarga ajratilishi mumkin:

- joriy biologik aktivlar (masalan, boqilayotgan hayvonlar, yetishtirilayotgan ekinlar);
- uzoq muddatli biologik aktivlar (nasldor hayvonlar, ko‘chatlar, ko‘p yillik daraxtlar);
- biologik mahsulotlar (sut, go‘sht, don, paxta va hokazo);
- qayta ishlanadigan mahsulotlar (terilar, yog‘lar, tolalar).




2.4-rasm. Biologik aktivlar tuzilmasi¹¹⁹

¹¹⁹ 41-son “Qishloq xo‘jaligi” MXXS asosida shakllantirilgan.

Iste'mol qilinadigan biologik aktivlarga qishloq xo'jaligi mahsuloti sifatida etishtiriladigan baliqlar va go'sht uchun mo'ljallangan, qoramol, cho'chqalar kiradi. Yog'och tayyorlash maqsadida o'stiriladigan daraxtlar ham bu toifaga kiradi. Bundan tashqari, asl holatida sotiladigan daraxt ko'chatlari va yosh hayvonlar ham iste'mol qilinadigan biologik aktivlar hisoblanadi.

41-sonli moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) ko'ra, bu aktivlar ularni sotish xarajatlari chegirilgan holda adolatli qiymati bo'yicha baholanadi. O'simliklarga nisbatan baholash standartlari farqlanishi mumkin. Meva beruvchi o'simliklar, masalan, mevali daraxtlar, 16-sonli MHXS doirasiga kiradi. Bu standart dastlabki xarajatlar modelini yoki qayta baholangan qiymat bo'yicha hisobga olish modelini qo'llashni nazarda tutadi. Ushbu usullar aktivlarning boshlang'ich qiymatiga va ularni vaqt o'tishi bilan qayta baholash imkoniyatlariga qarab farq qiladi.



2.5-rasm. 41-son “Qishloq xo‘jaligi” MHXS funktsiyalari sxemasi¹²⁰

Buxgalteriya hisobining e'tiborga loyiq asosiy moddalar orasida biologik aktivlar, yig'im paytidagi qishloq xo'jalik mahsulotlari va davlat subsidiyalari mavjud. Ushbu subsidiyalar tashkilotlar tomonidan qishloq xo'jaligi faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun olinadi hamda joriy hisobot davrining foydasiga kiritiladi. Bu esa ularning qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'sirini yaqqol namoyon etadi (2.4 va 2.5-rasmlar).

¹²⁰ 41-son “Qishloq xo'jaligi” MXXS asosida shakllantirilgan.

Biologik aktivlarni baholash va tan olish sohasida quyidagilar asosiy mezonlar hisoblanadi:

- Aktivlarni o'tmishdagi voqealar natijasi sifatida tarixiy hisob hujjatlarida qayd etilishi.
- Biologik aktivdan foydalanish orqali iqtisodiy manfaat olish imkoniyati mavjudligi.
- Biologik aktivning haqiqiy tannarxi va adolatli qiymatini ishonchli baholash imkoniyati.

O'zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimi biologik aktivlarning xo'jalik xususiyatlarini aks ettiruvchi o'ziga xos jihatlarga ega, jumladan:

- Mavsumiy ishlarga bog'liq holda xarajatlar miqdorining o'zgaruvchanligi;
- Ishlab chiqarish jarayonlarining uzoq davom etishi, ba'zan bir necha hisobot davrlarini qamrab olishi;
- Bir korxona doirasida resurslarni qayta ishlash va qayta foydalanishning ichki aylanmalarining muhim ahamiyati.

Qishloq xo'jaligi faoliyatida er alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u biznes yuritishning asosiy muhiti va sohada qo'shilgan qiymatning bosh manbai hisoblanadi. Iqlim sharoitlarining o'zgaruvchanligi tufayli qishloq xo'jaligi korxonalari o'z faoliyatida yaqqol mavsumiylikka duch keladi. Bu esa korxona faoliyati darajasining tebranishiga, natijada esa, faol ishlab chiqarish va vaqtinchalik to'xtash davrlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Faoliyatsiz davrlarda ham xarajatlar to'xtamaydi va ularni to'g'ri taqsimlash hamda hisobga olishni talab etadi.

Qishloq xo'jaligida xalqaro standartlarni qo'llash aktivlarni baholash hamda ekinlar va chorva mollarini aniq hisobga olishga alohida e'tibor talab etadi. Bu borada, 41-son MHXS qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro shaffoflik va muvofiqlik talablariga ko'ra taqdim etish asoslarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligidagi amortizatsiya xarajatlarning umumiy tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani bois, uni alohida e'tiborga olish zarur. Chorva mollarini inventarizatsiyalash qishloq xo'jaligi sohasining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan,

hayvonlar sonining o'zgarishi tufayli maxsus yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu usullar qishloq xo'jaligining o'ziga xos jihatlarini to'g'ri aks ettirish uchun moslashtirilishi lozim.

Jahon bozorlarining tobora kuchayib borayotgan integratsiyasi sharoitida O'zbekistonda qishloq xo'jaligi korxonalari o'zlarining uzoq muddatli moddiy aktivlarini aniq aks ettirish va hisobga olish zaruriyati bilan tobora ko'proq duch kelmoqda. Ko'plab mahalliy kompaniyalar balansining salmoqli qismini tashkil etuvchi bu aktivlar moliyaviy barqarorlikni to'g'ri ifodalash uchun nihoyatda muhimdir.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) korporativ boshqaruvning ajralmas qismiga aylandi, biroq ko'p filialga ega yirik kompaniyalar uchun ham milliy, ham xalqaro talablarga javob beradigan ikki yoqlama buxgalteriya hisobini yuritish murakkab bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda jarayonlarni soddalashtirish va xarajatlarni kamaytirish maqsadida umumlashtirilgan moliyaviy hisobotlar tizimiga o'tish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

Xususan, 16-sonli MHXS "Asosiy vositalar"¹²¹ uzoq muddatli moddiy aktivlar bo'yicha asosiy standartga aylanib, buxgalteriya hisobi tartiblarini uyg'unlashtirish uchun poydevor yaratmoqda. Uning asosiy maqsadi tashqi tomonlarga korxonaning moliyaviy holati to'g'risida batafsil va shaffof ma'lumot taqdim etishdir. Bu tamoyil aktivlarning turli toifalarini qamrab oluvchi turli standartlar orqali amalga oshiriladi, jumladan 40-sonli MHXS "Investitsion ko'chmas mulk" va 5-sonli MHXS ko'chmas mulk va sotishga mo'ljallangan aktivlarni hisobga olish tartibini belgilaydi.

41-sonli MHXS qishloq xo'jaligini biologik transformatsiya - o'sish, chirish, ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish jarayoni sifatida ta'riflaydi, bu esa biologik aktivlarning miqdoriy va sifat xususiyatlarining o'zgarishiga olib keladi.

¹²¹<https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-16-property-plant-and-equipment.html/content/dam/ifrs/publications/html-standards/english/2025/issued/ias16/>

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyati aynan ushbu biologik transformatsiya jarayoni bo‘lib, u o‘rish, ishlab chiqarish, parchalanish va takror ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi, natijada tirik aktivlarning miqdor va sifat xususiyatlari o‘zgaradi. Qishloq xo‘jaligi o‘simlikchilik, chorvachilik, bog‘dorchilik, gulchilik va sabzavotchilik kabi turli xil faoliyatlarni o‘z ichiga oladi.¹²²

Biologik aktivlarni joriy va uzoq muddatli turlarga bo‘lish mumkin. Aylanmadan tashqari aktivlarga, asosan, asosiy podadagi hayvonlar va ko‘p-yillik ekinlar kiradi. Ushbu aktivlarni baholash ularni sotish xarajatlari bo‘yicha chegirmalarni hisobga olgan holda hisobot sanasidagi haqqoniy qiymatiga asoslanadi.

Biologik aktivlar uchun faol bozor mavjud bo‘lmagan vaziyatlarda, kompaniyalar ularning haqqoniy qiymatini baholash uchun muqobil usullardan foydalanishlari mumkin. Bu usullarga quyidagilar kirishi mumkin:

1. Agar bitim tuzilganidan buyon sezilarli iqtisodiy o‘zgarishlar yuz bermagan bo‘lsa, bozordagi so‘nggi bitimlar narxi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish va ulardan foydalanish.

2. Talab va taklifning o‘zgarishi kabi turli omillarni hisobga olgan holda o‘xshash aktivlarning bozor narxini o‘zgartirish.

3. Mol-mulkning qiymatini baholash uchun og‘irlik birligi tannarxi bo‘yicha chorvachilik mahsulotlari narxi kabi tarmoq ko‘rsatkichlaridan foydalanish.

“Moliyaviy axborotning global taqqoslanuvchanligi va shaffofligini ta’minlash uchun buxgalteriya hisobi standartlarini xalqaro amaliyotga muvofiq takomillashtirishga intilish zarur”¹²³. Shu sababli, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro faoliyat bilan shug‘ullanishdan manfaatdor bo‘lgan mahalliy korxonalar qishloq xo‘jaligi sektori uchun buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini qabul qilishni ko‘rib chiqishlari kerak. Bu ularning moliyaviy holati va biologik aktivlar

¹²² Ибрагимова А. Х., Магомедова Р. М., Гасанов М. А. Вопросы ведения бухгалтерского учета в сельском хозяйстве по российским и международным стандартам //Управленческий учет. – 2025. – №. 2. – С. 74-81.

¹²³ Ибрагимова А. Х., Магомедова Р. М., Гасанов М. А. Вопросы ведения бухгалтерского учета в сельском хозяйстве по российским и международным стандартам //Управленческий учет. – 2025. – №. 2. – С. 74-81.

bilan bog'liq iqtisodiy operatsiyalar haqida yanada ishonchli va to'liq ma'lumot berishga yordam beradi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, inventarizatsiyani boshqarishga bo'lgan uslubiy yondashuvlarni o'zgartirish zarur. Tovar-moddiy zaxiralarning ma'lum bir sanada mavjudligini shunchaki tekshirish o'rniga, ularning moliyaviy hisobotda tan olinishi va ular haqidagi ma'lumotlarni ochib berish mezonlariga muvofiqligini baholashga e'tibor qaratish lozim. Bundan tashqari, ularning puldagi qiymati inventarizatsiya paytida joriy holatidan kelib chiqqan holda aniqlanishi kerak. Fikrimizcha, agar belgilangan barcha talablar bajarilsa, inventarizatsiya nafaqat to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita tasdiqlash kabi tekshirishning sifat xususiyatlariga, balki hisobot uchun zarur bo'lgan boshqa muhim xususiyatlarga, chunonchi, dolzarblik, ahamiyatlilik, ishonchlilik, taqqoslanuvchanlik, o'z vaqtidalik va tushunarliklik kabilarga ham javob beradigan buxgalteriya hisobotlarini shakllantirishga imkon beradi. Bu esa manfaatdor foydalanuvchilarning barcha guruhlar uchun, ularning axborotni olish maqsadidan qat'i nazar, yuqori darajadagi sifat tavsifi - axborotning foydaliligini ta'minlaydi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Uzoq muddatli aktivlarni boshqarish bo'yicha xorij tajribasi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari O'zbekistonda ularni hisobga olishning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi korxona va tashkilotlarida bunday aktivlardan foydalanishning tarmoq xususiyati uzoq muddatli moddiy aktivlarni boshqarish uchun ishonchli axborot va uslubiy ta'minotni yaratishni talab qiladi.

2. Chorvachilikning joriy biologik aktivlari bilan operatsiyalarni nazorat qilishni quyidagi bosqichlarda amalga oshirishni taklif qilamiz:

1) chorva mollari va parrandalarning harakati to'g'risidagi boshlang'ich hujjatlarni va fermalarning hisobotlarini tekshirish;

2) chorva mollari va parrandalarning to'liq va o'z vaqtida kirim qilinishini nazorat qilish;

3) hayvonlar va parrandalar bosh sonining chiqib ketishini nazorat qilish;

4) chorva mollari va parrandalarning saqlanishini hamda xatlovdan o'tkazilishini nazorat qilish.

3. Inventarizatsiyani boshqarishni takomillashtirish uchun-yiliga ikki marta tayyor mahsulot, urug'lik, ozuqa va o'g'itlarning fizik inventarizatsiyasini o'tkazish, shuningdek, ehtiyot qismlar va tezkor inventarizatsiyaning mavjudligi va holatini tekshirish tavsiya etiladi. Inventarizatsiya jarayonida har bir buyumning turi, miqdori va boshqa ma'lumotlarni (masalan, artikullar, navlar va h.k.) yozib borish zarur.

6. Tovar-moddiy zaxiralarni boshqarishga nisbatan hisob siyosatining muhim jihatini bo'lib, tashkilot rahbari tomonidan tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiya qilish jadvalini tuzish va tasdiqlash, shuningdek, inventarizatsiyaning to'g'riligini tekshirish bo'yicha monitoring tadbirlarini amalga oshirish hisoblanadi.

4. Inventarizatsiya natijalariga asoslanib, uzluksiz inventarizatsiya tizimini joriy etish imkoniyati haqida qaror qabul qilishning muhimligini alohida ta'kidlamog'chimiz. Bu tizim-yil davomida tovar-moddiy zaxiralarni samarali nazorat qilish, moliyaviy masalalar uchun mas'ul shaxslarning javobgarligini oshirish, omborxonalaridagi tartibni tiklash va saqlash, hamda-yillik inventarizatsiya jarayonining vaqti va murakkabligini kamaytirish imkonini beradi.

III BOB. QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA INVENTARIZATSIYA NATIJALARI TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. Buxgalteriya hisobida inventarizatsiya natijalari bo‘yicha axborotlarni umumlashtirish va uning tahlili

Ko‘p hollarda mol-mulkni inventarizatsiya qilish rasmiy va odatiy jarayon sifatida qaraladi, buni amalga oshirish majburiyati qonun bilan belgilanadi. Biroq, ushbu jarayonni to‘g‘ri tashkil etish va uning natijalarini qayd etish nafaqat mulkning tarkibi va holati to‘g‘risida ishonchli ma’lumot berishi, balki undan foydalanish samaradorligini oshirishi mumkin.

“O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni”¹²⁴ va “19-sonli BHMS”¹²⁵da inventarizatsiya o‘tkazishning tartib-tamoyillari batafsil ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lsa-da, inventarizatsiya o‘tkazish quyidagi vazifalarni hal qilishga yo‘naltirilganligi bilan ham ajralib turadi:

dastlabki xossalarini yo‘qotgan tovar-moddiy boyliklarni, shuningdek foydalanilmayotgan yoki maqsadsiz foydalanilayotgan buxgalteriya hisobi predmetlarini aniqlash;

tovar-moddiy zaxiralarning haqiqiy qiymatini nazorat qilish;

muassasa mol-mulkining saqlanishini ta’minlash;

tovar-moddiy zaxiralarning muayyan vaqtdagi (odatda, mazkur oyning boshidagi) haqiqiy holati.

Inventarizatsiya jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

Birinchi bosqich - tayyorgarlik ishlari. Bu o‘z ichiga quyidagilarni oladi:


- Inventarizatsiya o‘tkaziladigan sana va ro‘yxatga olinadigan buyumlar ro‘yxatini belgilash.

- Inventarizatsiya buyrug‘ini tayyorlash va uni inventarizatsiya guruhi a’zolariga tarqatish.

¹²⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/2931253#2931578>

¹²⁵ O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”, <https://lex.uz/uz/docs/-7058433>

- - Moddiy javobgar shaxslardan hisobotlarni qabul qilish va boshqalar.
- **Ikkinchi bosqichda** biz tortish, o'lchash, sanash, mol-mulk va majburiyatlarning haqiqatda mavjudligini aniqlanadi, shuningdek, inventarizatsiya hisobotlarini tayyorlanadi.
- **Uchinchi bosqichda** inventarizatsiya ma'lumotlarini buxgalteriya tomonidan dastlabki hisob hujjatlari asosida tuzilgan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan taqqoslanadi. Tafovutlar aniqlanadi, taqqoslash dalolatnomalari tuziladi va farqlarning sabablariga oydinlik kiritiladi.
- Nihoyat, **to'rtinchi bosqichda** inventarizatsiya natijalari rasmiylashtiriladi, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari inventarizatsiya ko'rsatkichlariga moslashtiriladi va yakuniy hisobotlar tayyorlanadi.



3.1-rasm. Inventarizatsiya o'tkazish bosqichlari¹²⁶

Vaziyatga qarab, turli xil inventarizatsiya vazifalarini bajarish uchun turli xil inventarizatsiya komissiyalari tuziladi:

- Rejali va namunaviy inventarizatsiyalarni, shuningdek, inventarizatsiya oralig'idagi davrda nazorat tekshiruvlarini o'tkazish uchun **doimiy komissiya** tuziladi.

¹²⁶ Muallif ishlanmasi.

- Keng ko‘lamli ishlar uchun bir vaqtning o‘zida aktivlar va moliyaviy majburiyatlarni xatlovdan o‘tkazish uchun **ishchi komissiyalar** tuziladi. Shuni ta’kidlash lozimki, ishchi komissiyalarning tarkibi, odatda, butun hisobot davri uchun tasdiqlanadi va ularga bir martalik inventarizatsiya o‘tkazish bo‘yicha aniq vazifalar yuklatiladi.

- Inventarizatsiya (tekshirish yoki tanlab o‘tkaziladigan inventarizatsiya) o‘tkazish uchun zaruratga qarab **bir martalik** komissiyalar tuziladi. Mazkur bir martalik komissiyalar tarkibi har bir holat bo‘yicha rahbar tomonidan tasdiqlanadi.

“Inventarizatsiya jarayonini tartibga solish va xatolar xavfini kamaytirish uchun korxona va tashkilotlarda inventarizatsiyani boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda. Bu maqsadda qo‘llaniladigan eng keng tarqalgan usullardan biri shtrix-kodli markirovkalash jarayonidir”¹²⁷. Bunda tovar-moddiy zaxiralarga noyob shtrix-kodlar qo‘yiladi va maxsus skaner yordamida skanerlanadi. Shundan so‘ng tuzilgan hisobot buxgalteriya hisobidagi ma’lumotlar va haqiqiy inventarizatsiya bilan taqqoslanib, aniqlik ta’minlanadi.

Avtomatlashtirilgan tizim yordamida inventarizatsiya o‘tkazish mehnat va vaqt xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Shuningdek, asosiy vositalarni qabul qilish yoki hisobdan chiqarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noaniqliklarni minimallashtiradi. Bundan tashqari, u mulk haqidagi ma’lumotlarni o‘z vaqtida tahlil qilishni ta’minlaydi.

Avtomatlashtirilgan inventarizatsiya tizimini joriy etishning yana bir ijobiy samarasi mol-mulkning holati va mavjudligini nazorat qilish sifatini oshirishdir. Bu ham undan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya o‘tkazish tartibi, davriyligi, inventarizatsiyalanuvchi obyektlar ro‘yxati korxonaning hisob siyosatida aks ettirilishi lozim. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiyani takomillashtirishda ba’zi jihatlariga e’tibor qaratishni maqsadga muvofiq, deb

¹²⁷ Мочалин С. М., Шамис В. А. Управление товарными запасами посредством внедрения автоматизированной системы учета //Концепт. – 2016. – №. 5. – С. 22-28.

hisoblaymiz. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish”ga 4-ildavda 1-sonli asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati keltirilgan. Mazkur ro‘yxatda asosiy urg‘u asosiy vositalarning mavjudligiga qaratilgani holda, ularning foydalanishga yaroqli yoki yaroqli emasligi, ta‘mir talab ekanligi kabilar to‘g‘risida ma‘lumot olish imkonini bermaydi. Shu sababli, mazkur ro‘yxatning 11-ustuni sifatida “Asosiy vositalarning holati” to‘g‘risida ma‘lumot kiritishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Yohud bunday jihatlarni korxonaning hisob siyosatida alohida qayd etish lozim. Masalan, “BEK – CHORVACHILIGI” MCHJ da asosiy vositalar inventarizatsiyasini o‘rganganimizda asosiy vositalarning 1-sonli asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati shakllantirilganligini, asosiy vositalarning holati to‘g‘risida ma‘lumot mavjud emasligiga guvoh bo‘ldik (3.1-jadval).

3.1-jadval

“BEK – CHORVACHILIGI” MCHJ da asosiy vositalar inventarizatsiyasi natijalari¹²⁸

T/r	Asosiy vositalarning nomi va qisqa tavsifi	Ishlab chiqarilgan (qurilgan)-yili	Haqiqiy borligi					Buxgalteriya hisobi ma‘lumotlari bo‘yicha	
			inventar	soni	qiymati, so‘m	soni	qiymati, so‘m	soni	qiymati, so‘m
1	2	3	4	7	8	9	10		
1	Ma‘muriy bino	2018	1	1	1 875 000 000	1	1 875 000 000		
2	Yordamchi bino	2020	2	1	180 000 000	1	180 000 000		
3	Ichimlik suv liniyasi fermaga	2022	3	1	20 581 085,07	1	20 581 085,07		
4	Ichimlik suvi liniyasi Teplitsadan	2022	4	1	3 726 088,34	1	3 726 088,34		
5	Ferma gaz liniyasi	2022	5	1	18 043 087,71	1	18 043 087,71		
6	Ferma elektr liniyasi	2022	6	1	45 915 364,60	1	45 915 364,60		
7	Drabilka	2023	7	1	10 983 818,75	1	10 983 818,75		
8	Mebel komplekt	2023	8	1	12 252 840,00	1	12 252 840,00		
9	Printor KENON 2900	2023	9	1	1 629 413,02	1	1 629 413,02		
10	Konditsioner Shivaki	2023	10	1	7 997 500,00	1	7 997 500,00		
11	Mexanik tarozi 2000 kg	2023	11	1	2 056 819,23	1	2 056 819,23		
12	Televizor ARTEL 32	2023	12	1	1 895 995,80	1	1 895 995,80		
13	Transformator (25 ga yer uchun)	2023	13	1	5 538 153,83	1	5 538 153,83		
14	Xolodilnik ARTEL	2023	14	1	6 216 928,12	1	6 216 928,12		
				14	2 191 837 094,47	14	2 191 837 094,47		

¹²⁸“Bek – chorvachiligi” MCHJ ma‘lumotlari asosida shakllantirilgan.

3.1-jadvaldan ko‘rinadiki, korxona buxgalteriyasi asosiy vositalarning faqat mavjudligini aniqlash bilan cheklanib qolgan. Bunday yondashuv yuzaki bo‘lib, buxgalteriyada asosiy vositalarning samarali boshqaruvini ta‘minlamaydi va bu holat kelgusida bir qator salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Birinchidan, asosiy vositalarning faqat mavjudligini nazorat qilish, ularning jismoniy va ma‘naviy eskirish darajasi inobatga olinmasligini anglatadi. Natijada, texnik vositalarning ishga yaroqliligi to‘g‘risida to‘liq ma‘lumot bo‘lmaydi, bu esa kutilmagan nosozliklar, ishlab chiqarishning to‘xtab qolishi yoki sifatning pasayishiga olib keladi.

Ikkinchidan, asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya hisobining noto‘g‘ri yuritilishi ehtimoli ortadi. Agar vositalarning holati, foydalanish muddati va amortizatsiya stavkalari aniq qayd etilmasa, bu moliyaviy hisobotlarning noto‘g‘ri tuzilishiga olib keladi. Bu esa soliq organlariga noto‘g‘ri ma‘lumot taqdim etilishiga, shuningdek, moliyaviy jazolarga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, asosiy vositalarning texnik holati haqida yetarli ma‘lumot bo‘lmaganda, korxona investitsion qarorlarni noto‘g‘ri qabul qilishi mumkin. Yangi uskunalarni sotib olish, mavjudlarini ta‘mirlash yoki modernizatsiya qilish kabi masalalarda asoslanmagan qarorlar qabul qilinadi, bu esa keraksiz xarajatlarga va samaradorlikning kamayishiga olib keladi.

Shuningdek, bu kabi yondashuv ichki nazoratning zaiflashuviga ham olib keladi. Asosiy vositalarning joylashuvi, ulardan kim foydalanayotgani, to‘g‘ri ishlatilayotganligi nazorat qilinmasa, bu o‘g‘irlik, noto‘g‘ri foydalanish yoki beparvolik holatlarining ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Buning natijasida esa korxona moliyaviy zarar ko‘radi va xodimlar o‘rtasida intizom buzilishi mumkin.

Eng asosiysi, asosiy vositalar bo‘yicha aniq va to‘liq hisob yuritilmasa, bu korxonaning moliyaviy holatini aks ettiruvchi hisobotlarda xatolarga olib keladi. Investorlar, kreditorlar yoki soliq organlari uchun bunday noto‘g‘ri hisobotlar ishonchsizlik tug‘diradi va korxonaning obro‘sigacha salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu bilan bir qatorda, tovar-moddiy zaxiralar, tugallanmagan qurilish obyektlari bo‘yicha ham shunday holat kuzatiladi. Bu o‘z navbatida inventarizatsiya

natijalari samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishni taqozo qiladi. Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish uchun korxonada asosiy vositalarni yuritish tizimini qayta ko'rib chiqish va uni mukammallashtirish zarur. Eng avvalo, asosiy vositalarning faqat mavjudligini aniqlash bilan cheklanmaslik, balki ularning texnik holatini tizimli ravishda baholash yo'lga qo'yilishi kerak. Har bir vositaning fizik eskirishi, foydalanish darajasi va ishga yaroqliligi muntazam ravishda tekshirilib, bu ma'lumotlar alohida hisobotlarda aks ettirilishi lozim.

Shuningdek, amortizatsiya hisobini to'g'ri va to'liq yuritish juda muhimdir. Har bir vosita uchun ularning foydalanish muddati, amortizatsiya stavkalari va eskirish darajasi asosida aniq hisob-kitoblar amalga oshirilishi kerak. Bu, o'z navbatida, moliyaviy hisobotlarning haqqoniy va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

Korxonada ichki audit va nazorat tizimini kuchaytirish ham zarur chora hisoblanadi. Asosiy vositalarning joylashuvi, ulardan kim foydalanayotgani, vositalarning holati va ishlatilish tartibi doimiy ravishda nazorat qilinishi kerak. Har bir vosita uchun mas'ul shaxslar biriktirilishi, foydalanish intizomi qat'iy belgilanishi va nazorat qilinishi kerak.

Bundan tashqari, asosiy vositalarni hisobga olishda zamonaviy texnologiyalardan, xususan elektron hisob-kitob tizimlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Asosiy vositalarni raqamli shaklda ro'yxatga olish va real vaqt rejimida ularni kuzatib borish, nazorat jarayonini ancha samarali va qulay qiladi.

Rejalashtirilgan texnik xizmat ko'rsatish tizimini joriy etish ham muhim omillardan biridir. Har bir asosiy vosita uchun texnik xizmat ko'rsatish muddatlari va jadvali tuzilib, ularning bajarilishi qat'iy nazoratga olinishi lozim. Bu esa kutilmagan nosozliklarning oldini olishga yordam beradi.

Nihoyat, asosiy vositalar haqidagi to'plangan ma'lumotlar asosida investitsion qarorlar qabul qilish tizimi ham mustahkamlanishi lozim. Qaysi vositalarni almashtirish, ta'mirlash yoki modernizatsiya qilish kerakligi to'g'risidagi qarorlar, aniq ma'lumotlarga asoslangan holda, iqtisodiy tahlillar orqali amalga oshirilishi kerak.

Bunday holatni bartaraf qilish uchun asosiy vositalar holati to'g'risida quyidagi takliflarni kiritdik (3.2-jadval).

3.2-jadval

Qishloq xo'jaligi korxonalarida aktivlardan foydalanish samaradorligini aniqlashtirish bo'yicha taklif etilayotgan belgilashlar¹²⁹

Ustunda mol-mulk obyektining texnik holatini va (yoki) xo'jalik muomalasiga jalb etilganlik darajasini baholash hisobga olingan holda inventarizatsiya sanasidagi holati to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.	
Taklif etilayotgan belgilashlar	Belgilashlarning tavsifi
Asosiy vosita obyektlari uchun	
“F”	Foydalanishda
“T”	Ta'mirlash talab etiladi
“K-ya”	Konservatsiyalangan
“FT”	Foydalanishga topshirilmagan
“FM”	Foydalanish talablariga javob bermaydi
Tovar-moddiy zaxiralar uchun	
“Z”	Foydalanish uchun zaxirada
“SZ”	Saqlash uchun zaxirada
“KST”	Sifati talabga javob bermaydi
“Sh”	Shikastlangan
“MS”	Saqlash muddati o'tgan
Tugallanmagan qurilish obyektlari uchun	
“QD”	Qurilish davom ettirilmoqda
“QK”	Qurilish konservatsiya qilingan
“QKT”	Qurilish konservatsiyasiz to'xtatilgan
“QEO”	Boshqa hisob subyektiga berilmoqda
Navbatdagi ustunda inventarizatsiya obyektlarini xo'jalik muomalasiga jalb qilish, iqtisodiy foyda olish (foydali salohiyatni qazib olish) maqsadida foydalanishning mumkin bo'lgan usullari to'g'risidagi yoki imkoniyat bo'lmaganda - obyektning chiqib ketish usullari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.	
Asosiy vositalar uchun	
“F”	Foydalanish
“FK”	Foydalanishga tushurish
“TR”	Ta'mir rejalashtirilmoqda
“KTQ”	Konservatsiyalash talab qilinadi
“Mod”	Modernizatsiyalash, qayta jihozlash talab etiladi
“HCh”	Hisobdan chiqarish lozim
Tovar-moddiy zaxiralar uchun	
“F”	Foydalanish
“SAQ”	Obyektni saqlash
“HCh”	Hisobdan chiqarish lozim
Qurilishi tugallanmagan obyektlar uchun	
“QD”	Qurilish davom etayapti
“KT”	Konservatsiya talab etiladi
“QEO”	Boshqa hisob subyektiga berilmoqda

¹²⁹ Muallif ishlanmasi.

Inventarizatsiya komissiyasi buyruqqa muvofiq tekshirilgan aktivlar va majburiyatlarning haqiqatda mavjudligini, holatini va bahosini aniqlaydi. Olingan ma'lumotlar inventarizatsiya qaydnomalariga va tegishli davlat organlari tomonidan tasdiqlangan boshqa tarmoq shakllariga kiritiladi. Tasdiqlangan shakllarda ma'lumotlar etishmagan taqdirda tashkilotlar qonun hujjatlariga muvofiq o'zlari mustaqil ravishda ishlab chiqqan va tasdiqlagan shakllardan foydalanishlari mumkin.

Tashkilotga tegishli bo'lmagan aktivlarni hisobga olish uchun alohida inventarlar tuziladi. Bularga ijaraga berilgan, saqlashga qo'yilgan yoki vaqtincha foydalanish uchun olingan mol-mulkalar kiradi. Ushbu aktivlar O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-sonli BHMS) "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish"ga 8-ilova "Mas'ul saqlashga qabul qilingan (topshirilgan) tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxati" bilan rasmiylashtiriladi.

3.3-jadval

Inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirishda foydalaniluvchi hujjatlar shakli¹³⁰

Inventarizatsiyalar obyekti	Inventarizatsiya o'tkazish natijalarini rasmiylashtirish uchun belgilangan hujjatlar
Asosiy vositalar	19-sonli BHMSning 4-ilovasi, Asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxati
Nomoddiy aktivlar	Korxonaning hisob siyosatida aks ettirilishi lozim
Tugallanmagan kapital qurilish	19-sonli BHMSning 10-ilovasi, Ta'mirlanishi tugallanmagan asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o'tkazish dalolatnomasi
Tovar-moddiy zaxiralar	19-sonli BHMSning 6-ilovasi, Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxati , 19-sonli BHMSning 7-ilovasi, Yuklangan tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxati , 19-sonli BHMSning 8-ilovasi, Mas'ul saqlashga qabul qilingan (topshirilgan) tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxati
Kelgusi davr xarajatlari	19-sonli BHMSning 11-ilovasi, Kelgusi davr xarajatlarini inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxati

¹³⁰ 19-sonli BHMS asosida shakllantirilgan.

Naqd pul mablagʻlari	19-sonli BHMSning 12-ilovasi, Naqd pul mablagʻlarini inventarizatsiyadan oʻtkazish dalolatnomasi
Pul mablagʻlari, qiymatliklar va qatʻiy hisobdagi blanklar	19-sonli BHMSning 13-ilovasi, Tilxat namunasi
Oʻzaro hisob-kitoblar	19-sonli BHMSning 14-ilovasi, Xaridorlar, mol yetkazib beruvchilar va boshqa debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni inventarizatsiyadan oʻtkazish dalolatnomasi

Haqiqatda mavjudligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar inventarizatsiya (dalolatnomalar) ga kiritilgan buxgalteriya hisobi maʼlumotlari bilan solishtiriladi. Har qanday ogʻishlar taqqoslash qaydnomalarida aks ettiriladi va qoʻlda ham, kompyuter texnikasi yordamida ham toʻldiriladi.

Chetga chiqish hollari aniqlanganda komissiya tomonidan moddiy javobgar shaxslardan tushuntirishlar olinadi.

3.4-jadval

“Inventarizatsiya natijalarini taqqoslash qaydnomalari”¹³¹

Inventarizatsiya natijalari boʻyicha tuziladigan solishtirma qaydnomalarning belgilangan shakllari	Shakli
Inventarizatsiyada aniqlangan natijalar	19-sonli BHMSning 3-ilovasi
Inventarizatsiya yorligʻi	19-sonli BHMSning 5-ilovasi
Asosiy vositalarni solishtirish qaydnomasi	19-sonli BHMSning 15-ilovasi
Tovar-moddiy zaxiralarning inventarizatsiya natijalarini solishtirish	19-sonli BHMSning 16-ilovasi

Inventarizatsiya natijalari inventarizatsiya komissiyasi (agar u mavjud boʻlsa) tomonidan koʻrib chiqiladi va hisobot bilan rasmiylashtiriladi, u tashkilot rahbariga inventarizatsiya natijalari toʻgʻrisida qaror qabul qilish uchun yuboriladi.

Tovar-moddiy zaxiralar haqiqiy mulkiy qoldiqlarni aniqlash maqsadida buxgalteriya hisobi maʼlumotlari bilan solishtirish uchun buxgalteriyaga topshiriladi. Taqqoslash vedomostlarini tuzishdan oldin buxgalteriya guruhi inventarizatsiyadagi hisob-kitoblarning toʻgʻriligini tekshiradi.

Mol-mulk harakati, qoldiqning toʻgʻriligi va buxgalteriya hisobi maʼlumotlarini haqiqiy qoldiqlar bilan taqqoslashni oʻz ichiga olgan inventarizatsiya natijalarini sinchiklab oʻrganib chiqqandan soʻng, buxgalteriya guruhi

¹³¹ 19-sonli BHMS asosida shakllantirilgan.

inventarizatsiya komissiyasini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin yetishmayotgan mol-mulkning tabiiy yo'qolishini hisobdan chiqarish bo'yicha dastlabki hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

Agar inventarizatsiya jarayonida ishtirok etayotgan moliyaviy javobgar shaxslar inventarizatsiya shaklini imzolashdan bosh tortsalar, bir nechta variantlar mavjud:

1-variant: Agar ularning rad etishi asosli bo'lmasa va inventarizatsiya komissiyasi tomonidan hujjatlashtirilishi mumkin bo'lsa, inventarizatsiya hali ham haqiqiy deb hisoblanishi mumkin.

2-variant: Agar ular inventarizatsiya noto'g'ri yoki to'liq bo'lmaganligi sababli rad etishsa, ular yo'qolgan deb hisoblagan buyumlar bo'yicha qo'shimcha hisob-kitoblar o'tkazilishi kerak. Bu yozuvlarning aniqligini ta'minlashga yordam beradi.

Hisobotda inventarizatsiya natijalari bayonnomada umumlashtiriladi, bayonnomada qimmatliklarning barcha aniqlangan ortiqchaligi, kamomadi va shikastlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, unda rahbarning qaroriga muvofiq kelishmovchiliklarni bartaraf etish tartibi ko'rsatiladi.

Inventarizatsiya natijalari bo'yicha inventarizatsiya komissiyasi raisi tashkilot rahbariga:

- mol-mulk kamomadi va yaroqsiz holga kelgan mol-mulkni aybdor shaxslar hisobiga o'tkazish yoki uni hisobdan chiqarish to'g'risida;
- ortiqchalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun;
- talab qilib olinmagan kreditorlik qarzlari bekor qilish uchun;
- materiallarni qabul qilish, saqlash va berishni optimallashtirish;
- va boshqa takliflar.

Ko'pincha inventarizatsiya faqat aktivlar holatini aniqlashga qaratiladi, ammo bu yangicha tizim inventarizatsiya natijalarini nafaqat moliyaviy hisobotlarda, balki ta'minot zanjiri, ishlab chiqarish jarayoni va mahsulot sotish bosqichlaridagi samaradorlikni baholashda qo'llaydi. Shu tariqa, korxonaning har bir bo'limidagi

moddiy resurslardan foydalanish holati va moliyaviy oqimlar kompleks tarzda tahlil qilinadi.

Majburiyatlarni inventarizatsiya qilish – buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, korxonaning qarzi, to‘lanmagan to‘lovlar, soliqlar, kreditlar va boshqa majburiyatlarining real holatini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayonni muntazam va tizimli ravishda amalga oshirish korxonaga bir qator muhim afzalliklarni beradi.

Avvalo, majburiyatlarning inventarizatsiyasi moliyaviy hisobotlarning aniqligini ta‘minlaydi. Yil yakunida yoki oraliq davrlarda majburiyatlarni tekshirish orqali korxona moliyaviy holati haqida real va ishonchli ma‘lumotlarga ega bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, rahbariyat va tashqi tomonlar (masalan, investorlar, banklar, soliq organlari) uchun to‘g‘ri qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi.

Inventarizatsiya ichki nazoratni kuchaytirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Qarzdorliklar va boshqa majburiyatlarning to‘g‘ri qayd etilganligini tekshirib borish, buxgalteriyada yuzaga keladigan xatoliklar, noto‘g‘ri yozuvlar yoki unutib yuborilgan majburiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Bu orqali moliyaviy intizom mustahkamlanadi va korxonaning ichki boshqaruv tizimi yaxshilanadi.

Shuningdek, majburiyatlarni inventarizatsiya qilish moliyaviy risklarni kamaytirishga yordam beradi. Yashirin, noto‘g‘ri hisoblangan yoki e‘tibordan chetda qolgan qarzlarni korxona uchun katta xavf tug‘dirishi mumkin. Ularni erta aniqlash orqali bu risklar bartaraf qilinadi va moliyaviy muammolarning oldi olinadi.

Bu jarayon, ayni paytda, tashqi moliyalashtirish manbalarini jalb etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit beruvchi tashkilotlar yoki investorlar uchun korxonaning moliyaviy majburiyatlari to‘g‘risida aniq va shaffof ma‘lumotlar mavjud bo‘lishi ishonchlilikni oshiradi. Bu esa korxonaga zarur mablag‘larni osonroq jalb qilish imkonini beradi.

Soliq va audit tekshiruvlariga tayyorgarlikda ham majburiyatlarni inventarizatsiya qilish muhim rol o‘ynaydi. Majburiyatlar bo‘yicha aniq va tartibga solingan hisob-kitoblar mavjud bo‘lsa, bu soliq organlari yoki auditorlar tomonidan

aniqlanadigan xatolik va kamchiliklar sonini kamaytiradi, jarimalar xavfini pasaytiradi.

3.5-jadval

Sirdaryo viloyati Boyovut tumani “Ahmadiy” fermer xo‘jaligida majburiyatlar inventarizatsiyasi natijalari¹³²

Balans moddalari (Majburiyatlar) ko‘rsatkichlar ming so‘m hisobida	Yillar		
	2022	2023	2024
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (500+520+530+540+550+560+570+580+590- satrlar)	4125627,00	4125627,00	3438935,00
shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzi (500+520+540+560+590-satrlar)	105627,00	105627,00	63 401,00
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan uzoq muddatli qarzdorlik (7000)	105627,00	105627,00	63 401,00
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810)	4020000,00	4020000,00	3375534,00
Uzoq muddatli qarzlar (7820, 7830, 7840)			
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (7900)			
Joriy majburiyatlar, jami (610+630+640+650+660+670+680+690+700+7 10+720+730+740+750+760)	355459,00	247000,00	7200,00
shu jumladan: joriy kreditorlik qarzi (610+630+650+670+680+690+700+710+720+7 60-satrlar)	355459,00	247000,00	7200,00
shundan: muddati o‘tgan joriy kreditorlik qarzi*			
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzdorlik (6000)	350775,00	247 000,00	0,00
Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (6400)	4684,00	0,00	3 600,00
Sug‘urta bo‘yicha qarz (6510)			
Davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz (6520)			3 600,00
II bo‘lim bo‘yicha jami (490+600 satr)	4481086,00	4372627,00	3446135,00

Bundan tashqari, majburiyatlar inventarizatsiyasi to‘lovlarni rejalashtirishda va naqd pul oqimini boshqarishda ham samarali vosita hisoblanadi. Qarzdorliklar, ularning muddatlari va shartlari bo‘yicha to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi va naqd pul muammolarining oldini oladi.

3.4-jadvalga ko‘ra, 2022, 2023 va 2024 yillar oralig‘ida korxonaning uzoq muddatli va joriy majburiyatlarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan.

¹³² “Ahmadiy” fermer xo‘jaligining 2022-2024 yillar uchun buxgalteriya balansi asosida shakllantirilgan.

Avvalo, uzoq muddatli majburiyatlar 2023 yilda o'zgarishsiz qolgan bo'lsa, 2024 yilda taxminan 16,6 foizga kamaygan. Bu kamayish asosan uzoq muddatli bank kreditlarining qisqarishi natijasida yuzaga kelgan. Bank kreditlari 2023 yilda o'zgarmagan, 2024 yilda esa 16,1 foizga kamaygan. Shuningdek, uzoq muddatli kreditorlik qarzi 2024 yilda deyarli 40 foizga qisqargan, bu esa qarz yukining sezilarli darajada pasayishini ko'rsatadi.

Joriy majburiyatlar 2023 yilda 30,5 foizga kamaygan va 2024 yilda esa juda katta – 97 foizga yaqin kamayish kuzatilgan. Ayniqsa, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga bo'lgan qarzdorlik 2023 yilda taxminan 29,5 foizga kamaygan va 2024 yilda butunlay yo'qolgan. Bu korxonaning qisqa muddatli to'lov majburiyatlarini sezilarli darajada kamaytirganini anglatadi.

Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz 2023 yilda to'liq yo'qolgan, ammo 2024 yilda qayta paydo bo'lib, kichik miqdorda qayd etilgan. Bu holat soliq yoki boshqa davlat to'lovlari bo'yicha kechikishlarning qisqa muddatda qayta yuzaga kelganini bildirishi mumkin.

Umuman olganda, ushbu foiz o'zgarishlari korxonaning moliyaviy yukini kamaytirish, qarzlarni qisqartirish va moliyaviy barqarorlikni yaxshilash bo'yicha aniq choralar ko'rilayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, joriy majburiyatlarning keskin kamayishi korxonaning qisqa muddatli moliyaviy holatining sezilarli yaxshilanganidan dalolat beradi.

Inventarizatsiya yakunlarini ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlari bo'yicha moliyaviy tahlil ko'rsatkichlari tizimi va analitik baholash usuli xo'jalik yurituvchi subyektlarda an'anaviy yondashuvlardan farq qiladi. Ko'pincha inventarizatsiya faqat aktivlar holatini aniqlashga qaratiladi, ammo bu yangicha tizim inventarizatsiya natijalarini nafaqat moliyaviy hisobotlarda, balki ta'minot zanjiri, ishlab chiqarish jarayoni va mahsulot sotish bosqichlaridagi samaradorlikni baholashda qo'llaydi. Shu tariqa, korxonaning har bir bo'limidagi moddiy resurslardan foydalanish holati va moliyaviy oqimlar kompleks tarzda tahlil qilinadi.

Bu usul orqali inventarizatsiyadagi nomuvofiqliklar aniq ko'riladi va ularning ishlab chiqarish xarajatlari hamda mahsulot tannarxiga ta'siri o'rganiladi. Natijada,

resurslarni tejash, ortiqcha xarajatlarning oldini olish va moliyaviy xavflarni kamaytirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, korxona rahbariyatiga to‘liq va tizimli ma’lumotlar taqdim etilib, boshqaruv qarorlarini yanada samarali qabul qilishga yordam beradi.

Dissertatsiya doirasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarda inventarizatsiya natijalarini chuqur tahlil qilishga asoslangan yangi yondashuv — "Inventarizatsiya asosida kompleks moliyaviy tahlil tizimi" ishlab chiqildi. Ushbu tizimda korxonaning ta’minot, ishlab chiqarish va sotish bosqichlarida mavjud bo‘lgan moddiy resurslar va zahiralarining holati inventarizatsiya ma’lumotlari asosida o‘rganiladi. Ushbu ma’lumotlar asosida moliyaviy ko‘rsatkichlarga ta’sir qiluvchi omillar aniqlanadi, ularning har bir jarayonga ta’siri statistik usullar orqali baholanadi.

Mazkur tizim asosida ishlab chiqilgan analitik baholash usuli korxonaning mavjud aktivlari samaradorligini aniqlash, resurslardan foydalanishdagi zaxiralarni ochish, yo‘qotishlar va nomoliyaviy risklar darajasini kamaytirish imkonini beradi. Bu esa moliyaviy hisobotni yanada aniq va ishonchli shakllantirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda raqamli dalillarga asoslanishni ta’minlaydi. Shu bois, dissertatsiyada mazkur tizimni xo‘jalik yurituvchi subyektlar amaliyotiga joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotda yaratilgan ko‘rsatkichlar tizimi — “inventarizatsiya farqlari tannarxga nisbati”, “yo‘qotilgan foyda ulushi”, “inventar farqlari asosida resurslardan foydalanish samaradorligi” kabi maxsus indekslar orqali aniqlanadi va bu moliyaviy hisobotlarda bevosita aks etmaydigan, ammo boshqaruv qarorlarida hal qiluvchi rol o‘ynaydigan omillarni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, bu usul rahbariyatga inventarizatsiya natijalaridan moliyaviy jihatdan foydalanish, zaxiralar boshqaruvini optimallashtirish va moliyaviy xavflarni oldindan aniqlash imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, dissertatsiyada ishlab chiqilgan moliyaviy tahlil ko‘rsatkichlari tizimi va analitik baholash usuli inventarizatsiya jarayonining iqtisodiy mazmunini

kengaytiradi hamda korxona faoliyatini har tomonlama nazorat qilishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tizim orqali inventarizatsiya natijalarida aniqlangan farqlarning mahsulot tannarxiga, ishlab chiqarish xarajatlariga, foyda miqdoriga va umumiy moliyaviy samaradorlikka ta'siri kompleks ko'rsatkichlar orqali baholandi. "Inventar farqlari tannarxga nisbati", "yo'qotilgan foyda ulushi" kabi maxsus indikatorlar joriy etilib, ularning har bir ishlab chiqarish bosqichi kesimida tahlil qilish metodikasi taklif qilindi. Ushbu yondashuv korxonalarda inventarizatsiya natijalaridan moliyaviy boshqaruvda samarali foydalanish imkonini beradi.

Inventarizatsiya yakunlarining moliyaviy tahlil ko'rsatkichlari tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, u ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarida samaradorlik va aniqlikni baholash uchun mo'ljallangan. Ushbu tizim har bir jarayon uchun muhim ko'rsatkichlarni va ularning hisoblash formulalarini O'z ichiga oladi. Bu moliyaviy tahlil orqali korxona resurslari, ishlab chiqarish jarayoni hamda mahsulot aylanishi samarali nazorat qilinadi.

3.6-jadval

"Inventarizatsiya yakunlari bo'yicha moliyaviy tahlil ko'rsatkichlari va hisoblash formulalari"

Jarayon	Ko'rsatkichlar	Maqsad	Hisoblash formulasi
Ta'minot	Inventarizatsiya natijalarining aniqligi, yetkazib berish sifati	Resurslar va xom-ashyo holatini nazorat qilish	$\text{Inventarizatsiya qiymati} / \text{Rejalashtirilgan qiymat} \times 100\%$
Ishlab chiqarish	Ishlab chiqarish samaradorligi, xom-ashyoning chiqishi	Ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini baholash	$\text{Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori} / \text{Sarflangan xom-ashyo miqdori}$
Sotish	Mahsulot zaxiralari va sotish hajmi, inventarizatsiya aniqligi	Mahsulot aylanish tezligi va zaxira boshqaruvi	$\text{Sotilgan mahsulot qiymati} / \text{Inventarizatsiya qiymati}$

Ushbu moliyaviy tahlil ko'rsatkichlari tizimi inventarizatsiya yakunlari asosida ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarining samaradorligini tizimli

ravishda baholash imkonini beradi. Natijada korxona moliyaviy holati va resurslardan foydalanish samaradorligi yaxshilanadi, zaxiralar boshqaruvi va ishlab chiqarish jarayonlari optimallashtiriladi.

3.2. Qishloq xo‘jalik korxonalarida inventarizatsiya natijalari samaradorligini aniqlovchi omillar ta‘sirini prognozlashtirish.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun moliyaviy natijalar nafaqat ularning ichki rivojlanish strategiyasini belgilash, balki tashqi manbalardan moliyalashtirishni jalb etish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish, davlat tomonidan beriladigan imtiyozlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ham belgilaydi. Shu bois, moliyaviy natijalarni chuqur tahlil qilish, ularga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash va baholash amaliyot uchun muhim ahamiyatga ega.

Korxona moliyaviy holatiga ta‘sir etuvchi omillarni o‘rganish, ayniqsa, ichki omillarni tizimli tahlil qilish, sifatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday omillar qatoriga uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar, o‘z mablag‘lari manbalari va majburiyatlar kiradi. Mazkur omillarni aniqlash va ularning moliyaviy natijalarga ta‘sir darajasini baholash korxona faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

Shu asosda, korxonaning moliyaviy natijalarini yaxshilash bo‘yicha aniq va mantiqiy asoslangan takliflar ishlab chiqish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, korxonaning raqobatbardoshligini oshirish, uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday tahlil natijalari asosida prognozlash modellari orqali kelgusi davrdagi moliyaviy holatni oldindan baholash imkoniyati vujudga keladi.

Biz korxona mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan sof tushumga (jami_daromad) ta‘sir qiluvchi omillar sifatida uzoq muddatli aktivlar (um_aktiv), joriy aktivlar (j_aktiv), o‘z mablag‘lari (oz_mablag) va majburiyatlarini (majburiyat) oldik (3.7-jadval).

3.7-jadval

Korxona moliyaviy natijalari¹³³

Yil	Jami daromadlar	Uzoq muddatli aktivlar	Joriy aktivlar	O'z mablag'lari	Majburiyatlari
2020	2 155 987 000,00	1 455 571,00	1 255 987,00	2 056 000,00	756 899,00
2021	2 230 867 000,00	1 579 715,00	1 416 712,00	2 168 238,00	828 189,00
2022	4 530 252 059,00	2 984 446,00	3 795 361,00	2 298 721,00	4 481 086,00
2023	5 667 156 000,00	2 666 141,60	4 252 206,40	2 545 721,00	4 372 627,00
2024	5 064 522 949,68	2 560 411,00	3 748 601,00	2 862 877,00	3 446 135,00

Mazkur omillarning sotishdan sof tushumga ta'sirini aniqlash uchun ko'p omilli regressiya modeli asosida ekonometrik tahlil o'tkaziladi. Bu model orqali har bir omilning tushumga ta'sir darajasi baholanadi hamda statistik ahamiyati aniqlanadi.

Modelning umumiy ko'rinishi

Ekonometrik model quyidagi funksional shaklda beriladi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 * um_{aktiv} + \beta_2 * j_{aktiv} + \beta_3 * oz_{mablag} + \beta_4 * majburiyat + \varepsilon$$

Bunda,

Y - korxona mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan sof tushum;

um_aktiv – uzoq muddatli aktivlar;

j_aktiv – joriy aktivlar jami qiymati;

oz_mablag – o'z mablag'larini jami qiymati;

majburiyat – korxona jami majburiyatlar.

Ko'p omilli regression modeli asosida tahlil qilish uchun dastlab uning tasviriyl statistikasini o'rganishimiz lozim (3.8jadval).

3.8-jadval

Omillar tasviriyl statistikasi¹³⁴

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
jami daromad	5	3.930e+09	1.635e+09	2.156e+09	5.667e+09
um akativ	5	2249257	687265.73	1455571	2984446
j aktiv	5	2893773.4	1436400.4	1255987	4252206
oz mablag	5	2386311.4	322823.44	2056000	2862877
Majburiyat	5	2776987.2	1855825.2	756899	4481086

¹³³ Ahmadiy FX ma'lumotlari

¹³⁴ Muallif ishlanmasi

Tahlildan ko‘rinib turibdiki, eng katta o‘zgaruvchanlik darajasi majburiyatlar va joriy aktivlarda kuzatilmoqda, bu esa ularning-yillarga nisbatan sezilarli darajada o‘zgaruvchan ekanligini anglatadi. Xususan, majburiyatlar bo‘yicha minimal qiymat 756 899 so‘mni, maksimal qiymat esa 4 481 086 so‘mni tashkil qilgan bo‘lib, bu katta tafovut investitsion yuklama va tashqi moliyaviy manbalarga bog‘liqlik darajasining turlicha ekanligini bildiradi.

Jami daromad (sof tushum) qiymatlari o‘rtacha 3.93 milliard so‘mni tashkil qilmoqda. Eng past daromad – 2.156 milliard, eng yuqori esa – 5.667 milliard so‘m bo‘lgan. Bu korxonalarning moliyaviy faoliyatida sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatadi.

Uzoq muddatli aktivlar va o‘z mablag‘lari o‘rtasidagi o‘rtacha qiymatlar bir-biriga nisbatan yaqin bo‘lib, tegishli ishlab chiqarish bazasi va ichki moliyaviy ta‘minot barqarorligini aks ettiradi. Biroq, joriy aktivlar va majburiyatlarning yuqori dispersiyasi ularning boshqaruv strategiyalarida turlicha yondashuvlar borligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, ko‘rsatkichlar bo‘yicha kuzatilgan statistik tafovutlar iqtisodiy model qurishda bevosita rol o‘ynaydi va omillar o‘rtasidagi ta‘sir darajalarini aniqlashga asos yaratadi.

Ekonometrik modellashtirish jarayonida modelda ishtirok etuvchi mustaqil (omillar) o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon korrelyatsion tahlil yordamida amalga oshiriladi. Korrelyatsiya koeffitsiyenti ikki o‘zgaruvchi orasidagi chiziqli bog‘liqlik kuchi va yo‘nalishini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Korrelyatsiya koeffitsiyenti (Pearson koeffitsiyenti) quyidagi oraliqda qiymat oladi:

$$-1 \leq r_{xy} \leq 1$$

Bunda,

$r_{xy} = 1$ – kuchli musbat chiziqli bog‘liqlik;

$r_{xy} = 0$ – kuchli musbat chiziqli bog‘liqlik;

Mazkur tahlil orqali quyidagi omillar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklar baholanadi:

Uzoq muddatli aktivlar va jami daromad;

Joriy aktivlar va jami daromad;

O'z mablag'lari va jami daromad;

Majburiyatlar va jami daromad;

Mustaqil o'zgaruvchilar o'zaro bog'liqligi (multikollinearlik ehtimoli).

Agar mustaqil o'zgaruvchilar (masalan, uzoq muddatli aktivlar va o'z mablag'lari) o'rtasida $r > 0,8$ darajasidagi kuchli bog'liqlik aniqlansa, bu multikollinearlik muammosi mavjudligiga ishora qiladi (3.9-jadval).

3.9-jadval

Omillar korrelyatsion tahlili natijalari

Matrix of correlations						
Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)
(1)-yil	1.00					
(2) jami_daromad	0.59	1.00				
(3) um_aktiv	0.45	0.30	1.00			
(4) j_aktiv	0.36	0.38	0.58	1.00		
(5) oz_mablag	0.57	0.31	0.29	0.59	1.00	
(6) majburiyat	0.56	0.44	0.67	0.61	0.63	1.00

Korxonaning moliyaviy natijalariga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida chiziqli bog'liqlikni aniqlash uchun o'tkazilgan korrelyatsion tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, jami daromad bilan asosiy omillar o'rtasida zaifdan o'rtachagacha bo'lgan musbat bog'liqlik mavjud. Xususan, uzoq muddatli aktivlar va jami daromad o'rtasida korrelyatsiya koeffitsiyenti 0.30, joriy aktivlar bilan 0.38, o'z mablag'lari bilan 0.31 va majburiyatlar bilan 0.44 ga teng. Bu esa omillar jami daromadga to'g'ridan-to'g'ri, ammo kuchsiz ta'sir ko'rsatishini bildiradi.

3.10-jadval

Varians inflyatsiyasi koeffitsienti (VIF) testi natijalari

	VIF	1/VIF
Majburiyat	1.256	1,9
j aktiv	2.91	0.03
um akativ	3.49	.002
oz mablag	2.26	.009
Mean VIF	2.41	.001

Ayni paytda mustaqil o'zgaruvchilar o'zaro bog'liqligi ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, uzoq muddatli aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi korrelyatsiya 0.67 bo'lib, bu ikki o'zgaruvchi o'rtasida kuchli chiziqli bog'liqlik mavjudligini anglatadi. Bu esa potensial multikollinearlik muammosini yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, joriy aktivlar va majburiyatlar o'rtasida 0.61, o'z mablag'lari va majburiyatlar o'rtasida 0.63 darajasidagi o'rtacha kuchli bog'liqlik ham kuzatilmoqda.

3.11-jadval

Regression tahlil natijalari							
jami_daromad	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
um_aktiv	1835.291	512.32	6.12	0.06	126.23	2122.02	*
j_aktiv	837.813	122.56	5.13	0.03	500.11	1320.77	**
oz_mablag	1018.918	369.68	8.26	0.00	895.01	1601.81	***
majburiyat	-753.281	200.21	9.78	0.68	-2054.45	100.35	
Constant	1.110e+0	0.0001	0.00	0.98	0.00.	0.00	
9							
Mean dependent var	3929757001.80	SD dependent var	1635491562.75				
	0		4				
R-squared	0.87	Number of obs	5				
F-test	.	Prob > F	.				

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

Modelda ishtirok etayotgan mustaqil o'zgaruvchilar orasida ko'p kollinerlik mavjud yoki yo'qligini aniqlash uchun Varians inflyatsiyasi koeffitsienti (VIF) testidan foydalanildi (3.8-jadval).

Varians inflyatsiyasi koeffitsienti (VIF) testi natijasida omillararo kuchli multikolleniarlik aniqlanmadi.

Shunday qilib biz, Stata dasturida regression tahlil olib borib quyidagi natijalarga erishdik (3.9-jadval).

Shunday qilib biz korxona mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan sof tushumga (jami_daromad) ta'sir qiluvchi omillar sifatida uzoq muddatli aktivlar (um_aktiv), joriy aktivlar (j_aktiv), o'z mablag'lari (oz_mablag) va majburiyatlarini (majburiyat) o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagi tengalama bilan ifodalashimiz mumkin:

$$Y = \beta_0 + 1\,835,29 * um_{aktiv} + 837,81 * j_{aktiv} + 1\,018,91 * oz_{mablag} - 753,28 * majburiyat + \varepsilon$$

Model bo'yicha R-kvadrat (R^2) ko'rsatkichi 0.87 ni tashkil etib, bu regressiya modelining yuqori tushuntirish kuchiga ega ekanligini bildiradi. Ya'ni, tanlangan omillar jami_daromaddagi umumiy dispersiyaning 87 foizini izohlab bera olmoqda. Bu esa modelning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

um_aktiv (uzoq muddatli aktivlar) koeffitsienti 1835.291 bo'lib, 10% darajada statistik ahamiyatga ega ($p=0.06$). Bu uzoq muddatli aktivlarning ko'payishi sof tushumga ijobiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Bu natija ishlab chiqarish quvvatini oshirish bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

j_aktiv (joriy aktivlar) uchun koeffitsient 837.813 bo'lib, 5% darajada ahamiyatli ($p=0.03$). Bu ko'rsatkich korxonaning aylanma mablag'lari, zaxiralari va boshqa qisqa muddatli aktivlarining sof tushumga ijobiy va sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi.

oz_mablag o'zgaruvchisi bo'yicha koeffitsiyent 1018.918 bo'lib, juda past p-qiymati ($p=0.00$) orqali 1% darajada yuqori statistik ahamiyatga ega. Bu korxonaning o'z mablag'lari ortishi — ya'ni moliyaviy mustaqillik darajasining yuqoriligi — bevosita tushumga ijobiy ta'sir ko'rsatishini bildiradi. Bu korxonalarning tashqi qarzlariga qaram bo'lmasdan o'z mablag'lari bilan faoliyat yuritishining samarali natija berishini ko'rsatadi.

majburiyat o'zgaruvchisining koeffitsienti esa -753.281 bo'lib, salbiy bo'lishiga qaramay statistik jihatdan ahamiyatsizdir ($p=0.68$). Bu esa majburiyatlarning sof tushumga aniq va ishonchli ta'siri mavjud emasligini ko'rsatadi. Ehtimol, bu ko'rsatkichning ta'siri kechikkan (lagged) shaklda yoki bilvosita bo'lishi mumkin.


Modelda doimiy had (konstant) qiymati 1.11 milliard so'm atrofida aniqlangan bo'lsa-da, uning statistik ahamiyati mavjud emas ($p=0.98$). Bu esa, barcha mustaqil o'zgaruvchilar nolga teng bo'lgandagi tushumning bevosita izohlab bo'lmasligini bildiradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, korxonaning sof tushumiga eng kuchli va ishonchli ta'sir ko'rsatuvchi omillar — bu o'z mablag'lari, joriy aktivlar va uzoq muddatli aktivlar ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, oz_mablag o'zgaruvchisi modelda yuqori statistik ahamiyatga ega bo'lib, korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi. majburiyat esa modelda statistik ahamiyatga ega emas, bu esa qarz mablag'larining sof tushumga bevosita va barqaror ta'sir ko'rsatmasligini bildiradi. Ushbu natijalar asosida korxona faoliyatini rejalashtirishda ichki moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, aktivlar strukturasini optimallashtirish zarurligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Korxonalarni ichki moliyaviy resurslardan foydalanishga undash kerak. Regressiya tahlili shuni ko'rsatdiki, korxonaning o'z mablag'lari (oz_mablag) jami_daromadga ijobiy va statistik jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, iqtisodiy siyosat ishlab chiqishda korxonalarga foydaning bir qismini reinvestitsiya qilish, ichki mablag'larni ko'paytirish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratish muhimdir.

Aktivlar tuzilmasini optimallashtirish bo'yicha rag'batlantiruvchi mexanizmlar ishlab chiqish lozim. Uzoq muddatli (um_aktiv) va joriy aktivlar (j_aktiv) ham daromadga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu aktivlar strukturasining muvozanatli shakllanishi muhimligini bildiradi. Shu sababli, investitsion soliq imtiyozlari yoki amortizatsiya siyosatlari orqali ishlab chiqarish vositalarini modernizatsiya qilishga yordam berish zarur.

Majburiyatlar bilan bog'liq xavflarni boshqarish strategiyasini kuchaytirish kerak. majburiyat o'zgaruvchisi statistik jihatdan ahamiyatli bo'lmasa-da, uning yuqori VIF qiymati kuchli kollinerlik mavjudligini bildiradi. Bu esa qarz mablag'larining boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liqligi yuqoriligini anglatadi. Shu bois, davlat yoki banklar tomonidan qarz yuki va moliyaviy barqarorlik monitoringi kuchaytirilishi kerak.



3.2-rasm. Korxonada mahsulot (ish va xizmatlar)ni sotishdan olingan sof tushum¹³⁵

Namuna hajmi kichikligi (5 ta kuzatuv) statistik tahlilning ishonchliligini cheklaydi. Shu sababli, siyosiy qarorlar asoslanishi uchun uzoq muddatli va tizimli moliyaviy ko'rsatkichlar bazasini shakllantirish muhimdir.

3.10-jadval

Dickey – Fuller test natijalari¹³⁶

. dfuller Bandayollarulushi


Dickey-Fuller test for unit root		Number of obs = 13		
		Interpolated Dickey-Fuller		
Test Statistic		1% Critical Value	5% Critical Value	10% Critical Value
Z(t)	0.288	-3.750	-3.000	-2.630
MacKinnon approximate p-value for Z(t) = 0.9768				

Bu davlat statistika organlari, tijorat banklari va soliq organlari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini yaxshilash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Korxona mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan sof tushumini prognoz qilish uchun vaqtli qatorlarning ARIMA modelidan foydalanamiz. Buning uchun berilgan vaqtli qatorlarni chiziqli grafigini hosil qilamiz (3.2-rasm). Grafikdan foydalanib vaqtli qatorlarning statsionarliligi to'g'risida gipotezani tekshiramiz.

¹³⁵ STATA 14 MP dasturida hisoblangan.


¹³⁶ STATA 14 MP dasturida hisoblangan.



3.3-rasm. O'zgarishlar o'zgaruvchisining chiziqli grafigi, foizlarda¹³⁷

Dastlabki tasviriyl tahlilga ko'ra vaqtli qatorlarning statsionar emasligini ko'rishimiz mumkin. Vaqtli qatorlarni statsionarligini aniqlash uchun Augmented Dickey-Fuller (ADF) testidan foydalanamiz. Uning H_0 gipotezasi vaqtli qatorlarning statsionar emasligini taxmin qiladi.

Test natijalariga ko'ra P qiymat 0,05 dan yuqori bo'lib, vaqtli qatorlarni statsionar emasligi haqidagi H_0 gipotezani inkor eta olmaymiz. Shuning uchun, ularni ARIMA modelida bashoratlay olish uchun-yillar orasida o'sish qiymatlari shakliga keltirib olamiz. Buning uchun "O'zgarishlar" nomli yangi o'zgaruvchini yaratamiz. Yangi o'zgaruvchining chiziqli grafigida statsionarlikni kuzatishimiz mumkin (3.3-rasm). Daromad 2022 va 2024 —yillarda keskin oshganini ko'rishimiz mumkin. Yangi o'zgaruvchining Dickey-Fuller (ADF) testida P qiymat $Z(t)$ uchun $0.0485 < 0,05$ ya'ni statsionar vaqtli qatorlarni anglatadi. Optimal laglar sonini aniqlash uchun pac va varsoc buyrug'idan foydalanamiz (3.4-rasm).



¹³⁷ STATA 14 MP dasturida hisoblangan.

varsoc growth

Selection-order criteria

Sample: 2015 - 2023

Number of obs = 9


lag	LL	LR	df	p	FPE	AIC	HQIC	SBIC
0	-19.6477				5.76275	4.58837	4.54108	4.61029
1	-19.6149	.0655	1	0.798	7.19207	4.80332	4.70874	4.84714
2	-19.1787	.87235	1	0.350	8.30795	4.92861	4.78674	4.99435
3	-18.5556	1.2463	1	0.264	9.40362	5.01235	4.82319	5.1
4	-14.1905	8.73*	1	0.003	4.79868*	4.26457*	4.02812*	4.37414*

Endogenous: growth

Exogenous: _cons

3.4-rasm. Optimal laglar sonini aniqlash¹³⁸

Berilgan jadvalga ko'ra, AIC, HQIC va SBIC mezonlari bo'yicha eng past qiymatlar 4-lagda kuzatilgan. Ayniqsa, SBIC bo'yicha 4-lagda 4.37414 ni, HQIC mezonni bo'yicha esa 4.02812 ni tashkil etadi, bu esa ushbu lag darajasida modelning eng maqbul ekanligini ko'rsatadi. AIC mezonni ham shunga mos ravishda eng past qiymatni 4-lagda ko'rsatmoqda (4.26457).



Yillar	O'sish quyi chegaralari	Optimal o'sish sur'atlari	O'sish yuqori chegaralari
2025	-4.77	3.35	6.19
2026	-7.07	4.32	8.60
2027	-6.01	5.66	8.96
2028	-2.48	5.05	9.83
2029	3.86	7.51	10,69
2030	-2.61	8.65	11,53

3.5-rasm. Korxona daromadi o'sishi prognoz ko'rsatkichlari¹³⁹

¹³⁸ STATA 14 MP dasturida hisoblangan.

¹³⁹ STATA 14 MP dasturida hisoblangan.

Stata dasturini forecasting modulidan foydalanib, kerakli ma'lumotlarni kiritamiz, shundan song quyidagi prognoz natijalarini olamiz (3.5-rasm).

2025–2030-yillar oralig'idagi prognoz ko'rsatkichlari jami daromadning o'sish sur'atlari bo'yicha yuqori, quyi va optimal chegaralarni aks ettiradi. Ushbu prognozlar iqtisodiy o'zgaruvchanlik, moliyaviy strategiyalar va tashqi muhitdagi ehtimoliy risklarni hisobga olgan holda shakllantirilgan.

2025-yilda o'sish sur'ati optimal darajada 3.35% atrofida bo'lishi kutilmoqda, quyi chegara -4.77%, yuqori chegara esa 6.19% ni tashkil etadi. Bu davrda o'sish sur'atining ijobiy bo'lish ehtimoli yuqori bo'lsa-da, ehtiyotkorlik bilan tahlil qilinishi lozim, chunki quyi chegaraning manfiy qiymatda bo'lishi iqtisodiy beqarorlik xavfini bildiradi.

2026-yilga kelib, optimal o'sish sur'ati 4.32% ga oshadi, bu esa umumiy daromad salohiyatining yaxshilanishidan dalolat beradi. Shunga qaramay, quyi chegara -7.07% bilan past baholanmoqda, bu esa tashqi bozor muhitidagi salbiy omillar yoki ichki resurs yetishmovchiligi ta'sirida daromad pasayishi ehtimolini istisno qilmaydi.

2027-yilda optimal o'sish 5.66% darajasiga yetadi. Quyi va yuqori chegaralar mos ravishda -6.01% va 8.96% bo'lib, bu davrda iqtisodiy o'sish imkoniyatlari barqarorlashayotganini bildiradi, lekin baribir xavf omillari saqlanib qolmoqda.

2028-yil uchun prognozlar nisbatan barqarorroq: optimal o'sish 5.05%, quyi chegara -2.48%, yuqori chegara esa 9.83% ni tashkil etadi. Bu korxona daromadlarida nisbiy barqarorlik davri boshlanishini bildiradi. Ichki iqtisodiy siyosat, moliyalashtirish strategiyalari va investitsiyalarning to'g'ri boshqarilishi bilan real o'sish yuqori chegaraga yaqinlashishi mumkin.

2029-yil — prognozlangan eng ijobiy davrlardan biri bo'lib, optimal o'sish 7.51%, yuqori chegara 10.69%, va quyi chegara esa 3.86% sifatida baholangan. Bu-yil iqtisodiy siyosatdagi islohotlar, raqobatbardosh mahsulotlar hajmining ortishi va eksport imkoniyatlarining kengayishi tufayli korxona daromadlarining jadal o'sishini kutish mumkin.

2030-yilda optimal darajadagi o'sish 8.65% etib belgilangan. Bu eng yuqori prognozlangan o'sish sur'atlaridan biri bo'lib, yuqori chegara 11.53% ni tashkil etadi. Biroq quyi chegara -2.61% bo'lib, ehtiyot choralarini talab qiluvchi xavf omillari saqlanib qolmoqda. Bu davrda makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, investitsiya muhitini barqarorlashtirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar zarur bo'ladi.

Umuman olganda, prognozlar jami_daromadning ijobiy tendensiyada o'sishini ko'rsatmoqda. 2025–2026-yillar o'zgaruvchan va xavfli davr bo'lishi mumkin bo'lsa, 2027–2030-yillar ichida barqaror va yuqori daromad o'sishi ehtimoli sezilarli darajada ortadi. Biroq, har bir-yildagi quyi chegara qiymatlari iqtisodiy xavflar mavjudligini ko'rsatadi, shuning uchun korxonalar har tomonlama ehtiyot choralarini ko'rgan holda rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishlari zarur.

Zamonaviy korxonalar inventarizatsiya natijalarini an'anaviy qog'ozda yoki oddiy elektron jadvallarda saqlashda qiyinchiliklarga duch keladi. Inventarizatsiya ma'lumotlari ko'paygani sari ularni tezkor, to'liq va aniq tahlil qilish qiyinlashadi. Raqamli ma'lumotlar tahlili usullari esa katta hajmdagi ma'lumotlarni samarali qayta ishlash imkonini beradi.

Zamonaviy korxonalarda inventarizatsiya — ya'ni, mavjud aktivlar, tovarlar va zaxiralarni ro'yxatga olish jarayoni juda muhim hisoblanadi. An'anaviy usullarda, ya'ni qog'ozda yoki oddiy elektron jadvallarda ushbu ma'lumotlar saqlanganda, bir qancha muammolar yuzaga keladi:

katta korxonalarda inventarizatsiya ma'lumotlari juda ko'p bo'ladi. qog'oz yoki oddiy excel jadvallari bunday katta hajmdagi ma'lumotni samarali boshqara olmaydi, natijada ma'lumotlarni izlash, yangilash va tahlil qilish sekin va murakkab jarayon bo'ladi.

qo'lda ma'lumot kiritish va hisoblash jarayonida inson omili tufayli xatolar ko'p uchraydi. bu esa moliyaviy hisobotlar va qarorlar sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oddiy jadvallar yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlari cheklangan. Murakkab hisob-kitoblar, trendlarni aniqlash, muammolarni tezda topish qiyin bo'ladi.

Shu sababli, raqamli ma'lumotlar tahlili (data analytics) texnologiyalari joriy etiladi. Ular quyidagilarni ta'minlaydi:

- katta hajmdagi ma'lumotlarni avtomatik va tezkor qayta ishlash;
- ma'lumotlardagi naqshlar va muammolarni aniqlash;
- tahlil natijalarini vizual ko'rinishda (grafik, diagramma) taqdim etish;
- qaror qabul qilish uchun aniq va real vaqt ma'lumotlar bazasini yaratish.

Fikrimizcha, korxonalarga inventarizatsiya jarayonini yanada samarali boshqarish, moliyaviy holatni to'g'ri baholash va raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. An'anaviy inventarizatsiya hisobi ko'plab qo'lda bajariladigan ishlarni talab qiladi. Avtomatlashtirilgan hisoblash algoritmlari yordamida hisob-kitoblar avtomatik bajarilib, inson omilidan kelib chiqadigan kamchiliklar sezilarli darajada kamayadi.

An'anaviy inventarizatsiya hisobi ko'plab qo'lda bajariladigan jarayonlarni o'z ichiga oladi — ma'lumotlarni kiritish, hisoblash, solishtirish va hisobot tuzish kabilarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonlarda inson omili sababli xatoliklar yuzaga kelishi mumkin. Ya'ni: noto'g'ri ma'lumot kiritish, hisoblashdagi kamchiliklar yoki ma'lumotlarning noto'g'ri talqini. Natijada moliyaviy natijalar va tahlillar ham noaniq yoki noto'g'ri bo'lishi ehtimoli oshadi.

Avtomatlashtirilgan hisoblash algoritmlari esa bu jarayonlarni kompyuter yordamida bajaradi. Algoritmlar:

- ma'lumotlarni avtomatik ravishda yig'adi va tekshiradi,
- murakkab hisob-kitoblarni xatosiz va tez bajaradi,
- inson xatosi ehtimolini kamaytiradi,
- natijalarni bir xil standartda taqdim etadi.

Shunday qilib, hisob-kitoblarning aniqligi oshadi, vaqt tejaladi va moliyaviy tahlilning sifati yaxshilanadi. Avtomatlashtirilgan tahlil va vizualizatsiya vositalari yordamida rahbarlar va moliyaviy tahlilchilar inventarizatsiya natijalarini real vaqt

rejimida kuzatishi, muhim ko'rsatkichlar bo'yicha qarorlar qabul qilishi osonlashadi. Bu moliyaviy boshqaruvni samaraliroq qiladi.

Avtomatlashtirilgan tahlil va vizualizatsiya vositalari — masalan, interaktiv dashboardlar, grafiklar, diagrammalar — rahbarlar va moliyaviy tahlilchilarga inventarizatsiya natijalarini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Natijada, korxonadagi zaxiralar, ortiqcha yoki yetishmayotgan mahsulotlar, qiymatlar haqidagi ma'lumotlar har daqiqada yoki belgilangan vaqt oralig'ida avtomatik ravishda yangilanadi. Agar inventarizatsiyada ortiqcha yoki kamchiliklar yuzaga kelsa, tizim bu haqda darhol ogohlantiradi, shuning uchun rahbar vaqtida choralar ko'rishi mumkin.

Ko'rsatkichlar vizual shaklda taqdim etilgani uchun rahbarlar va moliyaviy mutaxassislar ma'lumotlarni oson tushunadi va tezroq, aniqroq qaror qabul qiladi.

Inventarizatsiya holatining aniq va real vaqt ko'rinishi korxonaning resurslarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Shunday qilib, avtomatlashtirilgan tahlil va vizualizatsiya vositalari moliyaviy boshqaruvni sezilarli darajada yaxshilaydi va korxona faoliyatining barcha darajalarida tez va samarali qaror qabul qilishni ta'minlaydi.

Innovatsion yondashuv inventarizatsiya zaxiralarining holati, ortiqchaligi yoki kamomadi haqida aniq axborot berish bilan birga resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Innovatsion yondashuvning afzalliklari shundaki, yangi texnologiyalar yordamida inventarizatsiya zaxiralari haqidagi ma'lumotlar real vaqt rejimida yangilanadi va tahlil qilinadi. Shuning uchun korxona rahbari va moliyaviy mutaxassislari mavjud zaxiralar holatini aniq bilib, ortiqcha yoki kamchilik bor-yo'qligini tezda aniqlay oladi. Shuningdek, inventarizatsiya zaxiralari haqida to'liq va ishonchli ma'lumot bo'lganda, korxona keraksiz zaxiralarni kamaytiradi va kerakli mahsulotlarni yetarlicha saqlaydi. Korxonada ortiqcha zaxiralar saqlash xarajatlarini oshiradi, kamomad esa ishlab chiqarish yoki sotishda muammolar

keltirib chiqaradi. Innovatsion yondashuv bu muammolarni minimallashtiradi, xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Zamonaviy biznes muhitida raqamli texnologiyalarni qo'llash — bu nafaqat samaradorlikni oshirish, balki bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlash vositasi. Innovatsion usul korxonani raqobatchilar oldida ustun qilib, bozor talablariga moslashishga imkon yaratadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida biznes jarayonlari - xususan inventarizatsiya, hisob-kitob, tahlil va boshqaruv- avtomatlashtiriladi. Bu xatolarni kamaytiradi, vaqtni tejaydi va resurslardan optimal foydalanishga imkon beradi. Bozorda tez O'zgaruvchan sharoitlarda raqamli vositalar korxonaga tezkor qaror qabul qilish, mijozlar talabiga moslashish va yangi imkoniyatlardan foydalanish imkonini beradi. Innovatsion yondashuvlar korxonani moslashuvchan qiladi: yangi mahsulotlar yaratish, xizmatlarni takomillashtirish va bozor O'zgarishlariga tez javob berish osonlashadi. Raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali korxona O'zining ichki va tashqi jarayonlarini yaxshilaydi, shu bilan uzoq muddatli muvaffaqiyat va barqarorlikka erishadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy raqamli texnologiyalar biznesni faqat samaraliroq emas, balki raqobatbardosh va bozor talablariga moslashuvchan qiladi. Bu esa korxoning muvaffaqiyatli rivojlanishining kalitidir.

3.3. Inventarizatsiya natijalari tahlili axborotlarini umumlashtirish yo'llari va boshqaruv qarorlari qabul qilishda foydalanish samaradorligi

Inventarizatsiya korxonalar tomonidan o'z aktivlarining mavjudligi va holatini aniq hisobga olish uchun qo'llaniladigan keng tarqalgan ichki nazorat usulidir. Inventarizatsiyaning asosiy kamchiligi shundaki, u ko'p vaqt talab qiladi, ammo moliyaviy hisobotning to'g'riligini ta'minlash uchun zarur.

Inventarizatsiya majburiy va qimmat jarayon bo'lib, faqat zarur bo'lganda amalga oshirilishi kerak. Xo'jalik yurituvchi subyektlar xatlovdan o'tkazish sanasini mustaqil ravishda belgilashga haqli, bundan xatlovdan o'tkazish majburiy bo'lgan ayrim hollar mustasno.

Korxona rahbari tovar-moddiy boyliklar va pul mablag'larining to'g'ri va o'z vaqtida to'ldirilishini ta'minlash uchun javobgardir. Barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar qisqa vaqt ichida aktivlarning haqiqatda mavjudligini to'liq va aniq tekshirishni ta'minlaydigan sharoitlarni yaratishlari kerak (tovarlarni qayta tortish va harakatlantirish uchun ishchi kuchi bilan ta'minlash va boshqalar).

Bosh buxgalter tegishli bo'limlar va xizmatlar rahbarlari bilan birgalikda inventarizatsiya o'tkazish va uning natijalarini hisobga olishning belgilangan qoidalariga rioya etilishini diqqat bilan nazorat qilishi kerak.

Inventarizatsiyaning yakuniy natijalari miqdoriy va xarajatlar ifodasiga ega. Bu natijalar taqqoslash vedomostlari orqali aniqlanadigan hujjatlashtirilgan va haqiqiy qoldiqlar o'rtasidagi tafovutlarga asoslanadi. Biroq, bu faqat raqamlar va qo'shimcha ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirish kerak.

Shu bilan birga, zaxiralarni nazorat qilishning an'anaviy usuli haqiqiy nazoratning boshqa usullari bilan to'ldirilishi mumkin. Ba'zi hollarda bu ichki nazorat tuzilmasini mustahkamlashi va sifat jihatidan yangi ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Buning uchun ko'pincha ekspertiza, ekspertiza, yozma tushuntirishlar olish, ma'lumotnomalar olish kabi usullardan foydalaniladi.

Demak, "ayrim buyumlar, materiallar, tovarlar yoki boshqa qimmatliklarni qayta hisoblash hisoblangan tovar-moddiy zaxiralar har qanday tashkilot uchun muhim iqtisodiy tadbir bo'libgina qolmay, balki hisob siyosatining tarkibiy qismi hamdir"¹⁴⁰.

Inventarizatsiya jarayonida korxonalar barcha aktivlarining mavjudligi, holati va qiymatini tekshiradi. So'ngra ular natijalarni hujjatlashtirib, o'z moliyaviy ma'lumotlarining ishonchliligini ta'minlaydilar. Bu jarayon kompaniyalarga buxgalteriya qoidalariga rioya qilish va aniq hisoblarni yuritishga yordam beradi.

Bugungi biznes muhitida, tashkilotlar tomonidan tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish xarajatlari va investitsiyalarini samarali kamaytirish maqsadida, tobora ko'proq inventarizatsiya operatsiyalari uchinchi tomon xizmat ko'rsatuvchilar

¹⁴⁰Дубров Д. С. Инвентаризация как элемент учетной политики благотворительной организации // Актуальные вопросы экономических наук. 2010. №17-1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/inventarizatsiya-kak-element-uchetnoy-politiki-blagotvoritelnoy-organizatsii> (дата обращения: 16.04.2025).

(outsourcing) ga topshirilmoqda. Bu so‘nggi-yillarda rivojlangan umumiy tendentsiya bo‘lib, tashkilotlar samarali nazoratni ta‘minlash, qaror qabul qilish jarayonlarini kuzatish va amalga oshirish uchun inventarizatsiya operatsiyalari hamda zaxiralarni boshqarishni vaqti-vaqti bilan ko‘rib chiqish va nazorat qilishga e‘tibor qaratishlari sharti bilan amalga oshirilmoqda. Xususan, tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish zaxiralar harakatini, buyurtma berish vaqtini, talabni shakllantirish, ta‘minot va sotish oqimlari tsikllarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bularni hisobga olgan holda, “kompaniyani samarali zaxira boshqarishga yo‘naltirish uchun tovar-moddiy zaxiralarni doimiy ravishda boshqarish va tahlil qilish zarurati paydo bo‘ladi”¹⁴¹.

Kompaniyadagi zaxiralarni rejalashtiruvchilar zaxiralarni boshqarish vazifasini ta‘minot zanjiri logistikasi, moliya, xarid va marketing bo‘limlari bilan uzviy bog‘liq tarzda amalga oshirish mas‘uliyatini o‘z zimmalariga oladilar.

Inventarizatsiya buxgalteriya hisobi usulining bir qismi sifatida, dastlabki hujjatlarda aks ettirilmagan hodisa va operatsiyalarni kuzatish hamda keyinchalik qayd etish vositasidir. Boshqacha aytganda, inventarizatsiya buxgalteriya hisobi usulining hujjatlashtirish unsuriga qo‘shimcha hisoblanadi. U nazorat vazifasini bajaradi, samarali boshqarish uchun qarorlar qabul qilishga xizmat qiluvchi ma‘lumotlarni to‘plash imkonini beradi, shu bilan birga korxona mol-mulkining saqlanishiga ko‘maklashadi.

Biroq, bunday funktsiyalarning samaradorligi inventarizatsiyani rejalashtiruvchilarning bilimi, ko‘nikmalari va qobiliyatlariga, inventarizatsiyani boshqarish tizimlarining o‘ziga, shuningdek, rahbariyatning e‘tibori, ishtiroki va tegishli siyosatlariga juda bog‘liq. Ammo ba‘zi hollarda “tovar-moddiy zaxiralar operatsiyalarini boshqarish va nazorat qilish uchinchi tomon xizmat ko‘rsatuvchilarining vakolati va nazorati ostida bo‘ladi va tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish guruhi nazoratida bo‘lmaydi. Bunday outsourcing operatsiyalarining ayrim jihatlari tashkilotning tovar-moddiy zaxiralarni boshqarishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan bir nechta muhim nuqtalar va sohalar mavjud. Birinchi

¹⁴¹Talatu Muhammad Barwa. Inventory Control as an Effective Decision-Making Model and Implementations for Company’s Growth. *International Journal of Economics, Finance and Management Sciences*. Vol. 3, No. 5, 2015, pp. 465-472. doi: 10.11648/j.ijefm.20150305.18

navbatda, bularga quyidagilar kiradi: malakasiz ishchi kuchi va xodimlar, yetarlicha bo‘lmagan standart operatsion tartib-tamoyillar, o‘qitish va jarayon muvofiqligiga e’tibor bermaslik”¹⁴².

Inventarizatsiya operatsiyalarini boshqarish jarayonga yo‘naltirilgan faoliyatdir. Har bir harakat va vazifa xodimlar tomonidan bajarilishi kerak, chunki bu yetkazib berish muddatlari, inventarizatsiya va boshqa ko‘rsatkichlarga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, xodim o‘zining operativ vazifalarini chuqur bilishi va o‘z harakatlarining ish jarayoniga ta’sirini tushunishi juda muhimdir.

Inventarizatsiya ishlarini boshqarish murakkab jarayon bo‘lib, ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish va amalga oshirishni talab qiladi. Har bir harakat va vazifa yetkazib berish muddatlari, zaxiralar darajasi va boshqa parametrlarga ta’sir ko‘rsatadi. Operativ xodimlar tovar-moddiy zaxiralarning aniq hisobini yuritish va ularni o‘z vaqtida yetkazib berishni ta’minlash uchun o‘z mas’uliyatlarini va xatti-harakatlarining oqibatlarini tushunishlari muhimdir.

Masalan, tezkor xodimga muhim tarkibiy qismni joylashtirish vazifasi yuklatilganda, u uni qanday saqlashni, qaerga borishini va inventarizatsiya tizimiga qanday yuklashni bilishi muhimdir. Bu ma’lumotlarning aniq va dolzarb bo‘lishini ta’minlaydi, bu esa o‘z navbatida noto‘g‘ri yozuvlar va yetkazib berishdagi kechikishlarning oldini olishga yordam beradi.

Operativ xodimlar o‘z ishlarida yo‘l qo‘yilgan xatolar, masalan, noto‘g‘ri inventarizatsiya yozuvlari yoki yetkazib berishning kechikishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini bilishlari kerak. Ushbu oqibatlarni tushunib, tezkor xodimlar ularning oldini olish va aniq hisoblarni yuritish choralari ko‘rishlari mumkin.

Ikkinchidan, shuni ham ta’kidlash kerakki, inventarizatsiyadagi turli buyumlar bilan turlicha muomala qilish kerak. Shu nuqtai nazardan, inventarizatsiya operatorlari vazifani bajarish uchun ulardan nima kutilayotganini va buni qanday amalga oshirishni bilishlari kerak. Bundan tashqari, ular jarayonni kuzatib bormasa,

¹⁴²Talatu Muhammad Barwa. Inventory Control as an Effective Decision-Making Model and Implementations for Company’s Growth. *International Journal of Economics, Finance and Management Sciences*. Vol. 3, No. 5, 2015, pp. 465-472. doi: 10.11648/j.ijefm.20150305.18

qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligini va nima qilishlari kerakligini bilishlari kerak. Masalan, qutilar ko‘rinishidagi inventarizatsiyani ochish va ichidagi alohida qutilarni skanerlash kerak bo‘lishi mumkin, pallet esa pallet identifikatorini skanerlash va polning belgilangan joyiga joylashtirish kerak bo‘lishi mumkin. Shuning uchun inventarizatsiya bilan shug‘ullanuvchilar butun jarayonda nima qilayotganini va nima uchun bunday qilayotganini tushunish uchun o‘qitilishi kerak.

Xuddi shunday, omborni boshqarish tizimlari (OBT) ancha murakkabligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun, omborlar avtomatlashgan tizimlar orqali boshqarilganda, zaxiralarni boshqarish bo‘yicha xodimlar faoliyatini nazorat qilish, avtomatlashgan tizimlar yordamida operatsiyalarni bajarish va tizimga kirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma, bilim va qobiliyatlarni talab qiladi.

“Kompaniya qarorlarini qabul qiluvchilarga inventarizatsiyani boshqarishni qiyinlashtiradigan bir qancha omillar mavjud. Ushbu omillardan biri biznesning turli qismlarining qarama-qarshi maqsadlaridir. Ba’zi qismlar zaxiralarni ko‘paytirishni, boshqalari esa kamaytirishni xohlashi mumkin, bu esa chalkashlik va qaror qabul qilishda qiyinchiliklarga olib keladi. Bundan tashqari, ko‘pincha mahsulotlarga bo‘lgan kelajakdagi talab haqida noaniqlik mavjud bo‘lib, qachon qancha zaxiraga buyurtma berish kerakligini aniqlash qiyin. Zaxiralarni boshqarish murakkab jarayon bo‘lib, bu omillarning barchasini puxta rejalashtirish va hisobga olishni talab qiladi”¹⁴³.

Bir tomondan, moliya bo‘limi va mahsulot ishlab chiqaruvchilar O‘zlarining yangi mahsulotlarini tarqatishni ko‘paytirish uchun zaxiralar darajasini past ushlab turishni xohlashadi. Bundan tashqari, o‘ta muhim masala sifatida yuqori rahbariyat o‘zlarining pul oqimi likvidligini saqlab qolish uchun tovar-moddiy zaxiralar darajasini pasaytirishni xohlaydi. Biroq, bu ikkala bo‘lim ham turli yondashuvlar bilan bo‘lsa-da, rentabellikni oshirish bo‘yicha bir xil maqsadga erishish uchun harakat qilmoqda. Tovlar-moddiy zaxiralarga talab va taklifning noaniqligi va oldindan aytib bo‘lmasligi natijasida yuzaga keladigan qiyinchiliklar mavjud,

¹⁴³ Barwa T. M. Inventory control as an effective decision-making model and implementations for company’s growth //International journal of economics, finance and management sciences. – 2015. – T. 3. – №. 5. – C. 465-472.

masalan, qisqarish, eskirish, tez buzilish, taqchillik, ta'minot zanjiridagi uzilishlar va yetkazib beruvchilarning beqaror faoliyati. Ushbu omillar qo'rg'oshin vaqtini ta'minlash va xavfsizlik zaxirasini ta'minlash uchun bufer zaxirasini saqlash zarurligiga hissa qo'shadi.

Biroq talab tomonida yangi tovarlar va innovatsiyalar, umumiy iqtisodiy muhit, mavsumiy sotuv trafigi va boshqa tovarlar bo'yicha yuqori sotuv hajmi tashkilotni aralash yondashuvga o'tishga majbur qiladi. Kompaniya ishlab chiqaruvchilari va distribyutorlari uchun bu omillar minglab sotish uchun mo'ljallangan tovarlar bir nechta omborlarda va bir nechta joylarda joylashgan bo'lsa, juda murakkab bo'lishi mumkin. "Ushbu murakkabliklarga qaramay, zaxiralarni boshqarish va nazorat qilish hali ham mumkin bo'lgan minimal zaxira miqdorini saqlash va mijozlarning turli ehtiyojlarini qondirish o'rtasidagi nozik chiziqni ifodalaydi"¹⁴⁴.

Bu jarayon tovar-moddiy zaxiralarni nazorat qilishning fizik jihatida bilan bog'liq. U tovarlarni saqlash, harakatlantirish va qabul qilish, shuningdek, korxonaning tovar-moddiy zaxiralarini umumiy jismoniy boshqarishni o'z ichiga oladi. Zaxiralarni boshqarishning ushbu jihatida yirik va o'rta kompaniyalarda keng qo'llaniladi, bu yerda jo'natmalar kuniga bir necha marta jo'natiladi va keladi. Tovar-moddiy zaxiralarni saqlash birliklarini to'plamlarni qayta o'rash, jo'natish va shtrixli kodlash tovar-moddiy zaxiralarni jismoniy nazorat qilishning barcha jihatlari hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu jarayon ma'lumotlarni kiritish va uni kundalik boshqarish mas'uliyatini ham o'z ichiga oladi.

"Korxona oladigan va jo'natadigan barcha mahsulotlar ERP tizimlari orqali kuzatib boriladi. Ushbu ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'g'ri hisobga olish juda muhimdir"¹⁴⁵. Bundan tashqari, tovar-moddiy zaxiralar menejerlari muntazam ravishda jismoniy inventarizatsiya o'tkazadilar yoki qat'iy tsikllarni hisoblash jadvaliga rioya qiladilar. Bu kompaniyalarga zaxiralar miqdori va joylashuvining

¹⁴⁴ Lee C. C. Two-warehouse inventory model with deterioration under FIFO dispatching policy //European Journal of Operational Research. – 2006. – T. 174. – №. 2. – C. 861-873.

¹⁴⁵ Barwa T. M. Inventory control as an effective decision-making model and implementations for company's growth //International journal of economics, finance and management sciences. – 2015. – T. 3. – №. 5. – C. 465-472.

kompyuterlashtirilgan yozuvlari haqiqiy zaxiralarga mos kelishini qo'lda tekshirish imkonini beradi.

Ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan adabiyotlarga asoslanib, tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish va nazorat qilish murakkab va qiyin vazifa bo'lsa-da, yuqori rahbariyatning xarajatlarni kamaytirish va mijozlarning qoniqishini oshirish bo'yicha bosimi tovar-moddiy zaxiralar menejerlarini ilg'or va murakkab tovar-moddiy zaxiralar va inventarizatsiyani boshqarish tizimlarini qabul qilish va joriy etishga undamoqda. Ushbu tizimlar ularga zaxiralarni nazorat qilish bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida yuqori zaxira xarajatlariga olib keladigan omillarni kamaytirishga yordam beradi.

Tadqiqot ishining oldingi qismlarida inventarizatsiyalash borasida olib borilgan o'rgnaishlarimiz asosida inventarizatsiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat, degan xulosaga kelimiz:

a) Asosiy vositalar, yer, nomoddiy aktivlar, moliyaviy investitsiyalar, tovar-moddiy zaxiralar, pul mablag'lari, amalga oshirilayotgan loyihalar, debitorlik qarzlari va majburiyatlarning haqiqiy mavjudligini aniqlash.

b) Aktivlarning haqiqiy holatini hisobga olish ma'lumotlari bilan taqqoslash orqali nazorat qilish.

v) Dastlabki sifatlarini qisman yo'qotgan yoki ma'naviy eskirgan aktivlarni aniqlash.

g) Foydalanilmayotgan va sotilishi mumkin bo'lgan aktivlarni aniqlash.

d) Tovar-moddiy zaxiralarni, pul mablag'larini saqlash, mashinalar, asbob-uskunalar va boshqa asosiy vositalarni saqlash hamda ulardan foydalanish qoidalari va shartlariga rioya etilishini tekshirish.

Zamonaviy jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhim rol o'ynaydi va ular davlat tomonidan faol ravishda rag'batlantiriladi hamda qo'llab-quvvatlanadi.

“Boshqa ilmiy-texnik yutuqlarga nisbatan, informatika va hisoblash texnologiyalari inson faoliyatining har bir sohasida turli darajada qo'llaniladi, bu esa texnikaning jadal rivojlanishiga hissa qo'shmoqda. Hozirgi sharoitda har qanday

korxonaning ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyati axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan chambarchas bog‘liq. Buxgalteriya hisobida AKT samaradorlikni oshirish, mehnat sarfini kamaytirish va ko‘plab faoliyat turlarini (ishlab chiqarish, qurilish, xizmat ko‘rsatish, tibbiyot va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar) amalga oshirishda axborotdan foydalanish jarayonini takomillashtirish uchun qo‘llaniladi. Bugungi kunda jadal rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotda buxgalteriya hisobini AKTsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuni ta’kidlash joizki, buxgalteriya hisobi tizimining faol rivojlanishi va doimiy takomillashuvi axborot texnologiyalarini rivojlantirishni taqozo etadi”¹⁴⁶.

Qishloq xo‘jaligi faoliyati sohasidagi qonunchilikning doimiy ravishda o‘zgarib turishi sharoitida buxgalterlardan zudlik bilan munosabat bildirish va buxgalteriya hisobini qonunchilik talablariga muvofiq tuzish talab etiladi. Shuning uchun bugungi kunda ko‘plab qishloq xo‘jaligi tashkilotlari bir qator muammolarga duch kelmoqda, jumladan:

- Top-menejerlar va o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarining malakasi pastligi;
- korxonalar faoliyati uchun dasturiy mahsulotlarni noto‘g‘ri tanlash;
- tezkor ma’lumotlarni olishni qiyinlashtiradigan qonunchilikdagi o‘zgarishlarga sekin munosabat bildirish va eski qoidalar bo‘yicha hisob yuritish yoki katta hajmdagi ma’lumotlarni qo‘lda kiritish;
- tashkilotning tarkibiy bo‘linmalari o‘rtasida buxgalteriya hisobining tarqoqligi va turli dasturiy mahsulotlar bo‘yicha xizmat ko‘rsatish, bu unifikatsiyaga to‘sqinlik qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tasniflash buxgalteriya hisobini tashkil etishning dolzarb vazifasidir. Ko‘plab manbalar uning turli xil variantlarini ko‘rib chiqadi. Buxgalteriya hisobi biznesning poydevori bo‘lib, kompaniya moliyaviy farovonligi uni yuritishning to‘g‘riligiga bog‘liq.

Klassik buxgalteriya hisobi buxgalterlardan murakkab va mashaqqatli mehnat talab qiladi. Ular muntazam ravishda turli operatsiyalarni bajaradilar, bir xil ketma-

¹⁴⁶ Губачев В. А. и др. Анализ использования цифровых технологий управления на предприятиях сельского хозяйства. – 2023.

ketlik va hisoblash tartiblarini takrorlaydilar, turli xil hujjatlar, registrlar, jurnallar va hisobotlarni tayyorlaydilar. Axborot texnologiyalari qo‘l mehnatini avtomatlashtirilgan mehnat bilan almashtirish imkonini beradi. Hozirda buxgalterlardan axborotni kiritish va qayta ishlash operatorlari sifatida emas, balki ko‘proq tahlilchi va nazoratchi sifatida foydalanilmoqda.

Albatta, dasturiy ta‘minot bosh buxgalterning o‘rnini bosa olmaydi. Lekin hisobdagi barcha matematik xatolarni topib, ularni bartaraf etish hisobiga ularning ish vaqtini tejash mumkin. Shuningdek, u korxonaning hozirgi moliyaviy ahvoli va uning istiqbolini baholay oladi. Dasturiy ta‘minot tez-tez o‘zgarib turadigan qonunchilikni o‘rganishi va funksiyalarni boshqarish uchun vaqt ajratishi mumkin. Agar buxgalteriya hisobida uchrashi mumkin bo‘lgan xatoliklarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ular quyidagi sabablarga ko‘ra yo‘l qo‘yilishi mumkin:


- e‘tiborsizlik tufayli (masalan, arifmetik xatolar);
- tajriba va mahoratning yo‘qligi sababli (kadrlar bilan bog‘liq muammolar);
- qasddan noqonuniy harakatlar tufayli.

“E‘tiborsizlik tufayli sodir etilgan xatolar axborotni qayta ishlash bo‘yicha maxsus buxgalteriya dasturlarini kiritish orqali bartaraf etilishi mumkin, albatta, xatolarni 100% bilan yo‘q qilib bo‘lmaydi, ammo katta ehtimol bilan bo‘lishi mumkin.

Garchi dunyoda buxgalterlar uchun mingdan ortiq dasturiy ta‘minot mavjud bo‘lsada, buxgalterlar va tadbirkorlar bugungi iqtisodiyot sharoitlari uchun mos keladigan, mamlakatda ishlab chiqilgan paketlarni, buxgalteriya hisobini tartibga soladigan qonunchilik o‘zgarishi variantlarini va mahalliy ishlab chiqaruvchilarda foydalanish imkoniyatlarini afzal ko‘radi”¹⁴⁷.

Sifatli va tizimli buxgalteriya hisobi avtomatlashtirishi korxonani samarali boshqarishning asosini tashkil etadi.

¹⁴⁷ Конева М. В. Использование информационных и коммуникационных технологий в бухгалтерском учете строительных компаний //Естественно-гуманитарные исследования. – 2020. – №. 3 (29). – С. 444-450.



3.6-rasm. Buxgalteriya hisobi tizimida axborot¹⁴⁸

To'g'ri ishlov berilgan, tizimlashtirilgan va tuzilmali axborot tashkilotni samarali boshqarish kafolatidir. Aksincha, aniq va ishonchli ma'lumotlarning yetishmasligi noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga va ehtimol, jiddiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Uzoq vaqt davomida axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi mavjud edi.

Axborot xavfsizligi - bu maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha turli chora-tadbirlar o'rganiladigan, ishlab chiqiladigan va amalga oshiriladigan faoliyat sohasi hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi tizimi jadal rivojlanmoqda va doimiy ravishda takomillashmoqda. Buxgalter qo'l mehnatiga murojaat qilmasdan imkon qadar tezroq ma'lumot olish imkoniyatiga ega. "Dasturiy mahsulotlarda ma'lumotlarni guruhlash tartibi qo'lda bajariladigan usullardan shunisi bilan farqlanadiki, bir xil ma'lumotlar turli hisobot shakllarida bir necha marta aks ettirilishi mumkin, bu esa

¹⁴⁸ Muallif ishlanmasi.

hisob-kitob jarayonini soddalashtirish va sezilarli darajada tezlashtirishga yordam beradi”¹⁴⁹.

Zamonaviy korxonaning muvaffaqiyati, eng avvalo, boshqaruv hisobi uchun mustahkam “poydevor” yarata olishiga bog‘liq. Bunday poydevorning asosi sifatida sifatli shakllantirilgan buxgalteriya axborot tizimi xizmat qiladi. Chunki barcha amaliy xo‘jalik operatsiyalari va moliyaviy ko‘rsatkichlar aynan buxgalteriya tizimida aks ettiriladi. Boshqaruv hisobi esa bu ma’lumotlarga tayanadi, ularga rejalashtirilgan ko‘rsatkichlarni qo‘shadi va tahlil uchun asos yaratadi.

Sifatli buxgalteriya axborot tizimi quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

Rejalashtirish va hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirish uchun puxta ishlab chiqilgan uslubiy asosga ega bo‘lishi;

Xo‘jalik jarayonlari va operatsiyalarining maksimal darajada avtomatlashtirilganligi;

Hisob ma’lumotlari va ularning asosidagi axborotlarning ishonchliligi;

Hisob operatsiyalarining bajarilish tezligi va o‘z vaqtida yangilanib borilishi;

Umuman buxgalteriya hisobining tashkil etilish darajasi va samaradorligi.

Ushbu omillar muvaffaqiyatli boshqaruv hisobi tizimini shakllantirish, samarali qarorlar qabul qilish va korxona faoliyatini barqaror olib borishda muhim ahamiyatga ega.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning eng muhim tomoni tegishli dasturiy yechimni tanlashdir. Texnikaning jadal rivojlanishi bilan buxgalteriya hisobi sohasida jarayonlarni avtomatlashtirishga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Buning natijasida ko‘plab buxgalteriya dasturlari ishlab chiqildi va to‘yingan bozor paydo bo‘ldi.

Lekin buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishni joriy etish bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Yaxshi dasturni tanlashning o‘zi yetarli emas, balki barcha biznes-jarayonlarni tashkil etish va optimallashtirish zarur. Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish qimmatga tushadigan, ko‘p vaqt talab

¹⁴⁹ Конева М. В. Использование информационных и коммуникационных технологий в бухгалтерском учете строительных компаний //Естественно-гуманитарные исследования. – 2020. – №. 3 (29). – С. 444-450.

qiladigan, murakkab ish bo'lib, u hech qachon tugamaydi, chunki doimo yangi jarayonlar paydo bo'lib turadi. Barcha foydalanuvchilarning talablariga to'liq javob beradigan dasturni yaratish deyarli mumkin emas. Dasturlar amal qiladigan muhit va ular bajarishi lozim bo'lgan talablar doimo o'zgarib turadi.

Avtomatlashtirishda eng muhimi vaqt tejalishi aniq. Bu avtomatlashtirilgan inventarizatsiya jarayonining asosiy va eng muhim afzalligidir. Inventarizatsiya jarayonini avtomatlashtirishning boshqa ijobiy jihatlariga quyidagilar kiradi:

Tovar-moddiy zaxiralar va mulkni boshqarishning boshqa vazifalari uchun mehnat xarajatlarini minimallashtirish.

Mulkni yo'qotish yoki o'g'irlash xavfini kamaytirish.

Mol-mulkning yaroqlilik muddatini O'z vaqtida aniqlash.

Asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralar ustidan tezkor nazoratni takomillashtirish.

Asosiy vositalarni qabul qilish yoki tasarruf etishda yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf etish.

Mas'ul shaxslar tomonidan moliyaviy suiiste'molliklarni aniqlash.

Analitik va sintetik hisobda hujjatlarning to'g'riligini tekshirish.

Qo'shimcha mulkiy ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish.

Tovar-moddiy zaxiralarni boshqarishni avtomatlashtirish monitoring bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishi yoki iqtisodiy foyda miqdoriga ta'sir ko'rsatadigan audit jarayonining xususiyatini o'zgartirishi mumkin. Shuning uchun avtomatlashtirilgan inventarizatsiya tizimini joriy etishning ta'sirini ikki toifaga bo'lish mumkin: miqdoriy va miqdoriy bo'lmagan.

Agar biz axborot tizimini joriy etishning maqsadga muvofiqligini baholashda faqat investitsiyalarning rentabelligiga tayanadigan bo'lsak, biz nazorat va audit jarayonlarini takomillashtirish maqsadini buzish yoki yo'qotish xavfi ostida qolamiz.

Asosiy vositalar va moddiy boyliklar harakatini tezkor nazorat qilish darajasini oshirish, analitik va sintetik hisobda ma'lumotlarni qayd etishdagi noaniqliklarni aniqlash, inventarizatsiya o'tkazishda ma'lumotlarni qayta ishlash

aniqligi va tezkorligini oshirish, aktivlar foydali xizmat muddatining tugashini o'z vaqtida aniqlash kabi maqsadlarga erishish uchun sarflangan xarajatlarni aniq miqdoriy baholash mumkin emas. Ta'sirni inventarizatsiya xarajatlarini qo'lda va avtomatlashtirilgan tarzda taqqoslash orqali hisoblash mumkin.

Umuman olganda, nazorat-taftish faoliyati bilan bog'liq xarajatlar ichki auditorlar, auditorlar, nazoratchilar mehnatiga haq to'lash xarajatlari va ularning ishini axborot bilan ta'minlash xarajatlarini o'z ichiga oladi.

Tovar-moddiy zaxiralar uchun mehnat xarajatlarini hisoblash uchun tovar-moddiy zaxiralarga sarflangan umumiy soatlarni ular ustida ishlayotgan odamlar soniga va har bir xodimning soatbay ish haqiga ko'paytirish kerak. Avtomatlashtirilgan inventarizatsiya tizimida asbob-uskunalar va dasturiy ta'minot narxi, shuningdek, tizimni joriy etish hisobiga xarajatlar ham oshadi. Biroq, qo'l soatlari soni sezilarli darajada kamayadi, bu avtomatlashtirishning asosiy afzalligi bo'ladi. Zamonaviy inventarizatsiya texnologiyasining asosiy g'oyasi ma'lumotlar bazasida elementlarni kuzatish va qayd etish uchun shtrix-kodlardan foydalanishdir.

G'arbda obyektlarni identifikatsiyalashga yangicha yondashuv - obyektlarga biriktirilgan teglarda saqlanayotgan ma'lumotlarni o'qish va yozish uchun radiosignallardan foydalanadigan usulga intilish kuchaymoqda. Ushbu texnologiya fazodagi barcha radiochastotali teglarni skanerlash imkonini beradi, bu esa har bir elementni alohida skanerlash zaruratini yo'q qiladi.

Respublikada tobora ko'proq korxonalar samarali va aniq inventarizatsiya o'tkazishga intilayotganligi sababli, inventarizatsiyani boshqarishning zamonaviy texnologiyasini qo'llash tobora kuchayib bormoqda. Avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish inventarizatsiya jarayonida ma'lumotlarni qayta ishlash aniqligi va tezligini oshiradi, inson xatosi xavfini kamaytiradi va buxgalteriya hisobi jarayonlarining ishonchliligini oshiradi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali faoliyati bevosita ularning moliyaviy ko'rsatkichlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu ko'rsatkichlar korxona faoliyati natijasida shakllangan muhim iqtisodiy mezonlar hisoblanadi.

Moliyaviy natijalar korxonaning daromadlilikini, moliyaviy barqarorligini va investitsiyaviy jozibadorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, sof foyda, rentabellik koeffitsiyentlari, aktivlardan foydalanish samaradorligi, O'zlik kapital rentabelligi kabi ko'rsatkichlar korxona moliyaviy natijalarining asosiy indikatorlari hisoblanadi.

2. Inventarizatsiyaning asosiy kamchiligi shundaki, u ko'p vaqt talab qiladi, ammo moliyaviy hisobotning to'g'riligini ta'minlash uchun zarur.

3. Zaxiralarni nazorat qilishning an'anaviy usuli haqiqiy nazoratning boshqa usullari bilan to'ldirilishi mumkin. Ba'zi hollarda bu ichki nazorat tuzilmasini mustahkamlashi va sifat jihatidan yangi ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Buning uchun ko'pincha ekspertiza, ekspertiza, yozma tushuntirishlar olish, ma'lumotnomalar olish kabi usullardan foydalaniladi.

4. Inventarizatsiya buxgalteriya hisobi usulining bir qismi sifatida, dastlabki hujjatlarda aks ettirilmagan hodisa va operatsiyalarni kuzatish hamda keyinchalik qayd etish vositasidir.

5. Ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan adabiyotlarga asoslanib, tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish va nazorat qilish murakkab va qiyin vazifa bo'lsa-da, yuqori rahbariyatning xarajatlarni kamaytirish va mijozlarning qoniqishini oshirish bo'yicha bosimi tovar-moddiy zaxiralar menejerlarini ilg'or va murakkab tovar-moddiy zaxiralar va inventarizatsiyaning boshqarish tizimlarini qabul qilish va joriy etishga undaydi.

XULOSA

Mazkur qishloq xo'jaligi korxonalarida inventarizatsiya o'tkazish amaliyotini takomillashtirish masalalariga oid tadqiqot ishida qishloq xo'jaligi korxonalarida inventarizatsiya o'tkazishning ilmiy-nazariy va tashkiliy asoslari tadqiq etildi. Inventarizatsiyani o'tkazishga oid uslubiy yondashuvlar tizimlashtirilib, turli maqsadlarda inventarizatsiya o'tkazishning amaliy va uslubiy jihatlari yoritib berildi. Asosiysi, olib borilgan tadqiqotlarimiz natijalari asosida qishloq xo'jaligi korxonalarida tovar-moddiy zaxiralarni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalariga asoslangan ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot davomida ko'rib chiqilganlar yuzasidan quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirildi:

1. Hududiy tafovutlar qishloq xo'jaligi korxonalari moliyasini tashkil etish usullariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi va turli hududlardagi ishlab chiqarish tarmoqlarining faoliyat sharoitlari o'rtasidagi farqlanishlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mavsumiy xususiyati tashkilotlarning pul oqimiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu daromadlarning notekis shakllanishi va to'lovlarni olish muddatining chO'zilishida namoyon bo'ladi, natijada korxonalar qisqa muddatli moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishi va kreditlarga tayanib qolishi mumkin.

3. Qishloq xo'jaligi korxonasining moliyaviy-iqtisodiy ahvolini tahlil qilishda, uning moliyaviy holatini ishlab chiqarishning aniq yo'nalishlari va tashkilotdagi ixtisoslashuv darajasidan kelib chiqqan holda baholash muhimdir. Bunday yondashuv korxonaning moliyaviy ahvolini to'g'riroq tushunish imkonini beradi va takomillashtirish lozim bo'lgan sohalarni aniqlashga yordam beradi.

4. Qishloq xo'jaligi tashkilotlarining moliyaviy ahvolini kompleks tahlil qilish ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili bilan birgalikda olib borilishi kerak. Bu moliyaviy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi, shuningdek, tashkilotning moliyaviy holati sifatini belgilovchi omillarni aniqlaydi.

5. Inventarizatsiya jarayoni korxonaning ma'lum bir vaqtdagi aktivlari va majburiyatlarini baholashning tizimli usulidir. Bu tashkilotning qoidolari va ichki siyosatiga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi kerak bo'lgan muhim nazorat vositasidir. Inventarizatsiya va buxgalteriya hisobi ma'lumotlarida aniqlangan qiymatlar o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar tashkilot rahbariga ko'rib chiqish uchun taqdim etilishi lozim.

6. Qishloq xo'jaligi korxonalarida inventarizatsiya o'tkazishni takomillashtirish bo'yicha quyidagilar taklif etiladi:

qishloq xo'jaligi korxonalarida inventarizatsiya jarayoni samaradorligini oshirish borasida zamonaviy raqamli texnologiyalarni izchil qo'llash;

korxonalarda inventarizatsiyani o'rinli o'tkazish maqsadida xodimlarni maxsus o'quv dasturlari orqali tayyorlash. Bunday dasturlar inventarizatsiya qoidolari, texnologiyalari va usullarini o'rgatish bilan birga, xodimlar malakasini oshirish va hisob yuritishning ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

7. Korxonalar o'z faoliyatining samaradorligini oshirish uchun o'z aktivlarini hisobga olish va boshqarishning mustahkam tizimiga ega bo'lishi lozim. Bu, ayniqsa, ishlab chiqarish jarayoni yer va hayvonlar, o'simliklar kabi tirik mavjudotlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasida juda muhimdir.

8. Qishloq xo'jaligining chorvachilik majmuida joriy biologik aktivlari bilan operatsiyalarni nazorat qilishda quyidagi bosqichlarga amal qilish o'rinli sanaladi: a) chorva va parrandaning harakati to'g'risidagi boshlang'ich hujjatlar va fermalar hisobotlarini tekshirish; b) chorva va parrandalarning to'liq va o'z vaqtida kirimini nazorat qilish; c) chorva va parrandar bosh sonining chiqib ketishi nazoratini yuritish d) chorva va parrandaning saqlanishi hamda xatlovdan o'tkazilishi nazoratini yo'lga qo'yish.

9. Inventarizatsiyani boshqarishni takomillashtirish uchun-yiliga ikki marta tayyor mahsulot, urug'lik, ozuqa va o'g'itlarning fizik inventarizatsiyasini o'tkazish, shuningdek, ehtiyot qismlar va tezkor inventarizatsiyaning mavjudligi va holatini tekshirish tavsiya etiladi. Inventarizatsiya jarayonida har bir buyumning turi,

miqdori va boshqa ma'lumotlarni (masalan, artikullar, navlar va h.k.) yozib borish zarur.

10. Qishloq xo'jaligidagi amortizatsiya xarajatlarning umumiy tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani bois, uni alohida e'tiborga olish zarur. Chorva mollarini inventarizatsiyalash qishloq xo'jaligi sohasining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, hayvonlar sonining o'zgarishi tufayli maxsus yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu usullar qishloq xo'jaligining o'ziga xos jihatlarini to'g'ri aks ettirish uchun moslashtirilishi lozim.

11. Qishloq xo'jaligi korxonalarida inventarizatsiya sifati va samaradorligini oshirish maqsadida korxona hisob siyosatida inventarizatsiya o'tkazish va natijalarini rasmiylashtirish borasida takliflar ishlab chiqildi.

12. Tahlil natijalariga asoslanib, biz korxonaning sof daromadiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillarni aniqladik. Ularga xususiy kapital, joriy aktivlar va uzoq muddatli aktivlar kiradi. yniqsa, oz_mablag o'zgaruvchisi modelda yuqori statistik ahamiyatga ega bo'lib, korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi. Ushbu natijalar asosida korxona faoliyatini rejalashtirishda ichki moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, aktivlar strukturasini optimallashtirish zarurligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR R O'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston” 2023 y.
- 1.2. “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi O'zR qonuni (yangi tahrir). 13.04.2016 y. № O'zRQ-404 (O'zgartirishlar va ilovalar bilan).
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida” O'RQ-1011-son Qonuni.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158 sonli “O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020-yildagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” Qarori.
- 1.6. O'zR 4 – son BHMS “Tovar-moddiy zaxiralar (yangi tahrirda)” (O'zR Adliya vazirligida 2020-yil 30 iyunda 3529 raqam bilan ro'yxatga olingan) (O'zgartirishlar va ilovalar bilan).
- 1.7. O'zR 9-son BHMS “Pul oqimi to'g'risidagi hisobot” (O'zR Adliya vazirligida 2024 -yil 27 dekabrda 3592 raqam bilan ro'yxatga olingan).
- 1.8. O'zR 10 – son BHMS “Davlat yordamining hisobi va u to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritib berish” (O'zR Adliya vazirligida 2024-yil 24 iyulda 3534 raqam bilan ro'yxatga olingan).
- 1.9. O'zR 11 – son BHMS “Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlab chiqishlarga xarajatlar” (O'zR Adliya vazirligida 2024-yil 25 iyulda 3535 raqam bilan ro'yxatga olingan).
- 1.10. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi Nizom (AV tomonidan 04.11.2024 y. 3567-son bilan ro'yxatga olingan iqtisodiyot va moliya vazirining 08.10.2024 y. 181-son buyrug'i bilan tasdiqlangan).

II. Darslik, o‘quv qo‘llanma, monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

- 2.1. Abdusalomova N.B. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 944 b.
- 2.2. Abduvaxidov F.T., Qoziyev I.N., Dadabayev Sh.X. Buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: TDIU, 2019. - 403 b.
- 2.3. Xasanov B.A., Xashimov A.A., Muxametov A.B., Abduvohidov A.A. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: “Sharq”, 2021 – 720 b.
- 2.4. ХАШИМОВ Б.А., ЭШМАМАТОВА М.М. «Теория бухгалтерского учета» / учебное пособие. - Т.”Iqtisodiyot”, 2022. - 180 стр.
- 2.5. Ergasheva Sh.T., Temirov F.T., Mavlyanova D.M. Buxgalteriya hisobi: o‘quv qo‘llanma / T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021-290 b.
- 2.6. Богаченко В. М., Кириллова Н. А. Бухгалтерский учет. Учебник. — М.: Феникс, 2018. — 538 с.
- 2.7. Бабаев Ю. А., Петров А. М. Теория бухгалтерского учета. 6-е изд. — М.: Проспект, 2021. — 256 с.
- 2.8. Керимов В.Э. Теория бухгалтерского учета. Учебник для бакалавров. 2-е изд., стер. — М.: Дашков и К, 2020. — 582 с.
- 2.9. Конева М. В. Использование информационных и коммуникационных технологий в бухгалтерском учете строительных компаний //Естественно-гуманитарные исследования. – 2020. – №. 3 (29). – С. 444-450.
- 2.10. Кондраков Н.П. Бухгалтерский учет: Учебное пособие / Н.П. Кондраков. — М.: ИНФРА-М, 2019. — 841 с.
- 2.11. Нечитайло, А.И. Методология и концепции бухгалтерского учета / А.И. Нечитайло. - М.: Феникс, **2019. - 818 с.**
- Abduvoxidov A., Rasulov S. Sug‘oriladigan yerlardan foydalanishni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2023. – T. 24. – №. 4. – S. 366-376.

2.12. Bonuedi I., Kornher L., Gerber N. Agricultural seasonality, market access, and food security in Sierra Leone //Food Security. – 2022. – Т. 14. – №. 2. – С. 471-494.

2.13. Ishankulov N.F. Real Estate Value and Mechanisms of Its Market Evaluation. //“American Journal of Business Practice”, 1(3), 18–24. (2024). <https://semantjournals.org/index.php/AJBP/article/view/108>

2.14. Ishonkulov N.F. Ko'chmas mulk qiymatini baholashning xoriyiy tajribalaridan foydalanish imkoniyatlari. //“Muhandislik va iqtisodiyot” ilmiy elektron jurnali. 2025 yil 1-son. 276-286 b. <https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal/issue/view/10>.

2.15. Pirnazarovich, Abulqosimov Hasan. "O'zbekiston qishloq xo'jaligi yerlaridan unumli foydalanish masalalari." *Ekonomika i finansi (Uzbekistan)* 9 (2015): 10-16.

2.16. Hazell P., Varangis P. Best practices for subsidizing agricultural insurance //Global Food Security. – 2020. – Т. 25. – С. 100326.

2.17. Lal R. Integrating animal husbandry with crops and trees //Frontiers in Sustainable Food Systems. – 2020. – Т. 4. – С. 113.

2.18. Zhao B., Zhao F., Wang L. Optimizing Growth in the Agriculture Commodity Exchange Market: A Game-Theoretic Analysis of Transformation Strategies for Chinese Enterprises //Journal of Agricultural Science and Technology. – С. 0-0.

2.19. Tomchuk Olena, Tomchuk Victor APPROACHES TO THE IMPROVEMENT OF THE FINANCIAL CONDITION ANALYSIS AT THE AGRICULTURAL ENTERPRISES // Colloquium-journal. 2021. №12 (99). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/approaches-to-the-improvement-of-the-financial-condition-analysis-at-the-agricultural-enterprises> (дата обращения: 31.03.2025).

2.20. Davydenko N., Skryphyk H. Evaluation methods of investment attractiveness of Ukrainian agricultural enterprises //Baltic Journal of Economic Studies. – 2017. – Т. 3. – №. 5. – С. 103-107.

2.21. Алексеева А. В., Золотарева Г. И. Проблемы проведения инвентаризации основных средств //Менеджмент социальных и экономических систем. – 2018. – №. 2 (10). – С. 40-45.

2.22. Абдусаломова Н. Корхоналар бухгалтерия ҳисобида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш //Экономика и инновационные технологии. – 2021. – №. 4. – С. 73-79.

2.23. Арбатская Т. Г. Роль инвентаризации в обеспечении достоверности бухгалтерской отчетности организаций бюджетной сферы //Финансовый журнал. – 2020. – Т. 12. – №. 2. – С. 96-110.

2.24. Bakhodirovna A. N. DIRECTIONS FOR DEVELOPMENT AND IMPROVEMENT OF A MANAGEMENT ACCOUNTING SYSTEM //Economics and Innovative Technologies. – 2019. – Т. 3. – №. 10.

2.25. Ruziyeva D. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya natijalari tahlilining nazariy asoslari //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – Т. 2. – №. 7.

2.26. Рузиева Д. Ф. Қишлоқ хўжалиги корхоналарида тайёр маҳсулотлар инвентаризацияси натижаларини бухгалтерия ҳисобида акс эттириш хусусиятлари //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – Т. 4. – №. Maxsus son. – С. 334-343.

2.27. Luo M. Enterprise internal control and accounting information quality //Journal of Financial Risk Management. – 2017. – Т. 6. – №. 1. – С. 16-26.

2.28. Baboyevich M. A., Ismailovna M. S. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini tahlil qilish //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 49. – С. 597-611.

2.29. Менгликулов Б. Совершенствование организационно-методических аспектов учета и аудита сельскохозяйственных животных //Экономика и инновационные технологии. – 2018. – №. 4. – С. 162-172.

2.30. Мустафина А. Ф., Хусаинова А. М. Инвентаризация и документация как элемент метода бухгалтерского учета //Хроноэкономика. – 2018. – №. 5 (13). – С. 34-41.

2.31. Нурмухаммидова М. Х., Абдувохидов А. А., Мамажонов С. В. Иқтисодий ислохотларнинг ҳозирги босқичида қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантириш асослари //Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 401-417.

2.32. Чернушкин М. С. Формирование учетной политики организации //Экономика и бизнес: теория и практика. – 2018. – №. 3. – С. 145-147.

2.33. Сеченова Л. П., Цомаева И. В., Любичкая В. А. Методические подходы к процессу инвентаризации на промышленном предприятии на основе обобщения зарубежной и отечественной практики //Финансовый менеджмент. – 2019. – №. 6. – С. 53-61.

2.34. Eraliyev A. K. Chorvachilik korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditining metodologiyasini takomillashtirish // Ekonomika i sotsium. 2022. №6-2 (97).

2.35. Сеченова Л. П., Цомаева И. В., Любичкая В. А. Методические подходы к процессу инвентаризации на промышленном предприятии на основе обобщения зарубежной и отечественной практики //Финансовый менеджмент. – 2019. – №. 6. – С. 53-61.

2.36. Fofanov M. V. Theoretical and practical aspects of inventory management by economic entities of the EU and the USA //Industry: economics, management, technology. – 2012. – №. 5 (44). – Pp. 176-179.

2.37. Sytnik O. E., Kudaeva A. A. Inventory: theoretical aspects of its implementation in Russia and abroad //Bulletin of the Institute of Friendship of the Peoples of the Caucasus (Theory of economics and management of the national economy). Economic sciences. - 2017. – No. 4. – pp. 25-25.

2.38. Ибрагимова А. Х., Магомедова Р. М., Гасанов М. А. Вопросы ведения бухгалтерского учета в сельском хозяйстве по российским и международным стандартам //Управленческий учет. – 2025. – №. 2. – С. 74-81.

2.39. Мочалин С. М., Шамис В. А. Управление товарными запасами посредством внедрения автоматизированной системы учета //Концепт. – 2016. – №. 5. – С. 22-28.

2.40. Talatu Muhammad Barwa. Inventory Control as an Effective Decision-Making Model and Implementations for Company's Growth. *International Journal of Economics, Finance and Management Sciences*. Vol. 3, No. 5, 2015, pp. 465-472. doi: 10.11648/j.ijefm.20150305.18

2.41. Barwa T. M. Inventory control as an effective decision-making model and implementations for company's growth // *International journal of economics, finance and management sciences*. – 2015. – Т. 3. – №. 5. – С. 465-472.

2.42. Lee C. C. Two-warehouse inventory model with deterioration under FIFO dispatching policy // *European Journal of Operational Research*. – 2006. – Т. 174. – №. 2. – С. 861-873.

2.43. Яценко К. С., Моисеенко Е. С., Агафонова М. С. Инвентаризация как метод экономического контроля // *Научное обозрение. Экономические науки*. – 2016. – №. 5. – С. 61-65.

2.44. Alekseeva A. V., Zolotareva G. I. Problems of inventory of fixed assets // *Social and economic systems management*. 2018, No. 2, Pp. 40–45. (In Russ., abstr. in Engl.)

2.45. Крысанова Л. В., Стишкова Е. В. Инвентаризация имущества и финансовых обязательств в сельском хозяйстве // *Потребительский рынок: качество и безопасность товаров и услуг. Материалы национальной научно-практической конференции.-Рязань*. – 2019. – С. 128.

2.46. Куруленко Т. А. Контроль основных средств как инструмент управления сельскохозяйственной организацией и направления его совершенствования // *Вестник Белорусской государственной сельскохозяйственной академии*. 2023. №1.

2.47. Lavrina O. et al. Fixed assets as an element of the production potential of the agricultural sector in regions. – 2022.

2.48. Vander Donckt M., Chan P., Silvestrini A. A new global database on agriculture investment and capital stock // *Food Policy*. – 2021. – Т. 100. – С. 101961.

2.49. Panichpongpan N. Inventory management for uncertain demand of wholesale agriculture spare parts. – 2015.

2.50. Folinas D., Shen C. Y. Exploring links among inventory and financial performance in the agricultural machinery //International Journal of Food and Agricultural Economics (IJFAEC). – 2014. – Т. 2. – №. 4. – С. 1-12.

2.51. Foss M. F., Fromm G., Rottenberg I. Inventories in Agriculture, Public Utilities and Construction //Measurement of Business Inventories. – US Census Bureau, 1981. – С. 132-141.

2.52. Taneja S. et al. A panel analysis of the effectiveness of the asset management in Indian agricultural companies //International Journal of Sustainable Development and Planning. – 2023. – Т. 18. – №. 3. – С. 653-660.

2.53. Alimkhanova N. Товар-моддий захиралар аудитида тахлилий амалларни қўллаш //Economics and Innovative Technologies. – 2024. – Т. 12. – №. 3. – С. 29-38.

2.54. Курбанбаев Ж., Ризаев Н. ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕТНОЙ ПОЛИТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ //Экономическое развитие и анализ. – 2025. – Т. 3. – №. 1. – С. 341-352.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

3.1. SH. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.464 bet.

3.2. Алексеева Г. И. Бухгалтерский учет и отчетность. Учебник. — М.: КноРус, 2021. — 412 с.

3.3. Xolbekov R.O., Hikmatov S.U. Buxgalteriya hisobi nazariyasi fanidan masalalar to‘plami. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. - T.: TDIU, 2011- 63 b.

3.4. Isroilov B.I., Xajimurotov N.Sh., Ibragimov B.B. Biznesda buxgalteriya hisobi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021 - 160 bet.

3.5. NavrO‘zova K., Otamurodov X., Qurbonov R.. Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Fan va texnologiya”, 2015,168 bet.

3.6. Xolbekov R.O. Xalqaro buxgalteriya hisobi-T.:”Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”-2021,138 b.

3.7. Omonov A. A., Qoraliyev T. M. Banklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. TMI,-T.:”Iqtisod-Moliya”, 2014.241 b.

3.8. Андреев В.Д. Введение в профессию бухгалтера: Учебное пособие / В.Д. Андреев, И.В. Лисихина. — М.: Магистр, НИЦ ИНФРА-М, 2019. -192 с.

3.9. Гончарова Н.М. Бухгалтерский учет. Краткий курс: Учебное пособие / Н.М. Гончарова. — М.: Форум, 2018. — 160 с.

3.10. Смольникова, Ю.Ю. Бухгалтерский учет. Конспект лекций. Учебное пособие / Ю.Ю. Смольникова. - М.: Проспект, **2021. - 460 с.**

3.11. Трофимова Л. Б. Международные стандарты финансовой отчетности: учебник и практикум для бакалавриата, специалитета и магистратуры / Л. Б. Трофимова. — 5-е изд., испр. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2019. — 242 с.

3.12. Дусмуратов Р.Д., Ризаев Н.К., Назаров Х.Х–Молиявий ҳисобот ва аудитнинг халқаро стандартлари / Ўқув қўлланма – Т. 2020 –512 б.

3.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2024-yil yanvar-dekabr) // T. 2025.

3.14. OECD/FAO (2024), OECD-FAO Agricultural Outlook 2024-2033, OECD Publishing, Paris/FAO, Rome, <https://doi.org/10.1787/4c5d2c5b-en>.

3.15. www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti

3.16. www.mfi.uz- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti

3.17. www.cbu.uz- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti

3.18. www.lex.uz – Milliy qonunchilik bazasi

- 3.19. www.invest.gov.uz – Investitsiya portali
- 3.20. www.journal.bfa.uz- Bank va moliya ishi elektron jurnali
- 3.21. <https://openbudget.uz/> - ochiq byudjet portali
- 3.22. www.ziyonet.uz- ta'lim resurslari portal
- 3.23. www.norma.uz- Qonun hujjatlari to'plami
- 3.24. www.buxgalter.uz- amaliyotchi buxgalterlarning maslahat portal
- 3.25. www.bbc.uz- buxgalteriya va soliqqa tortish ekspert tizimi
- 3.26. www.uza.uz- O'zbekiston Milliy axborot agentligi
- 3.27. <https://e.nalogiuchet.mcfr.uz/>- "Soliq solish va buxgalteriya hisobi" jurnali
- 3.28. <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-16-property-plant-and-equipment.html/content/dam/ifrs/publications/htmlstandards/english/2025/issued/ias16/>
- 3.29. "Ahmadiy" fermer xo'jaligi ma'lumotlari
- 3.30. "Promillk" MCHJ ma'lumotlari
- 3.31. "BEK CHORVACHILIGI" MCHJ ma'lumotlari

Hisobot ma'lumotlariga inventarizatsiyaning ta'siri

Hisobot ma'lumotlarining sifat xususiyatlari	Inventarizatsiyaning ta'siri
Muvofiqlik (relevantlik) axborotning bashorat qiluvchi va (yoki) tasdiqlovchi qiymatga ega ekanligini hamda undan foydalanuvchilarning qarorlariga ta'sir ko'rsatishi mumkinligini anglatadi, bunda: — bashorat qiluvchi qiymat axborotdan kelajak voqealarni baholash uchun foydalanish mumkinligini bildiradi; — tasdiqlovchi qiymat esa axborotdan ilgari chiqarilgan xulosalarni tasdiqlash yoki tuzatish uchun foydalanish mumkinligini anglatadi.	Hisobga olish obyektining mavjudligini va hisobot sanasidagi qiymat baholashini tasdiqlovchi inventarizatsiya quyidagi ma'lumotlarni shakllantirish imkonini beradi: a) joriy voqealarni baholash uchun; b) kelajakdagi hodisalarni baholash uchun (ya'ni ma'lumot bashorat qilish qiymatiga ega); v) o'tmishdagi hodisalarni baholashni tuzatish uchun (ya'ni ma'lumot tasdiqlash qiymatiga ega).
Muhimlik, bunday ma'lumotning yo'qligi yoki noto'g'ri taqdim etilishi foydalanuvchilarning qarorlariga ta'sir ko'rsatishi mumkinligini bildiradi.	Yillik hisobot oldidan to'g'ri o'tkazilgan inventarizatsiya muhim xatolarni aniqlash va tuzatish imkonini beradi, shuningdek, iqtisodiy qarorlar qabul qilishda manfaatdor foydalanuvchilar tomonidan qo'llaniladigan hisobotning ishonchli ko'rsatkichlarini shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi noto'g'ri ma'lumotlarni bartaraf etadi.
O'z vaqtidalik shuni anglatadiki, axborot hisobot foydalanuvchilariga ular qabul qiladigan qarorlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan davrda taqdim etilishi kerak.	Moliyaviy hisobot ma'lumoti asossiz kechiktirilganda, u O'zining iqtisodiy ahamiyatini yo'qotadi. Ma'lumotni O'z vaqtida taqdim etish uchun bitimning yoki boshqa hodisaning barcha jihatlarini ma'lum bo'lgunga qadar hisobotga zarurat paydo bo'lishi mumkin, bu esa uning ishonchliligini buzadi. Boshqa tomondan, agar hisobot barcha jihatlar ma'lum bo'lgunicha kechiktirilsa, eng ishonchli ma'lumot ham kam foyda berishi mumkin, chunki foydalanuvchilar oldinroq qaror qabul qilishga majbur bo'ladi. Ahamiyatlilik va ishonchlilik o'rtasida muvozanatga erishish maqsadida iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qanday qilib yaxshiroq qondirishni hal etish kerak.
Ishonchlilik ma'lumotlarning to'liqligi, xolisligi va jiddiy xatolarning yo'qligini anglatadi. Xatolarning mavjud emasligi shuni ko'rsatadiki, hisob-kitob va hisobot ma'lumotlari subyektning me'yoriy talablari hamda hisob siyosatiga muvofiq tarzda shakllantirilgan.	Ma'lumotlarning ishonchliligi xo'jalik faoliyatining barcha faktlari buxgalteriya hisobida aks ettirilishi va moliyaviy hisobotda ularning korxona faoliyatiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishidan qat'i nazar to'liq ochib berilishi orqali ta'minlanadi. Agar-yillik hisobotlar

To'liqlik deganda, hisobot foydalanuvchisi qaror qabul qilishi uchun zarur bo'lgan, hisobot tayyorlanayotgan paytda mavjud barcha ma'lumotlar va (yoki) tushuntirishlar hisobot axborotiga kiritilganligi tushuniladi. Xolislik esa hisobotda taqdim etish uchun ma'lumotlar obyektiv tarzda tanlanishini bildiradi.	tayyorlanishidan oldin inventarizatsiya o'tkazilmagan yoki xatolik bilan o'tkazilgan bo'lsa, to'liq ma'lumot taqdim etish talabi bajarilmasligi mumkin. Bundan tashqari, korxona faoliyatining ayrim jihatlar (aktivlarning eskirishi, o'g'irlik, kamomad, tabiiy yo'qotishlar, qayta tasniflash va ortiqcha mahsulotlar kabi) faqat inventarizatsiya jarayonida aniqlanishi mumkin. Ma'lumotlar betarafligi shuni anglatadiki, oldindan belgilangan natijaga erishish yoki ma'lum qarorlarni qabul qilishni rag'batlantirish maqsadida axborotni taqdim etishda tarafkashlik bo'lmazligi kerak. Hisobotlar yagona, umumiy belgilangan talablar asosida, ularga ta'sir qiladigan maxsus axborot so'rovlarisiz tuzilishi lozim. Buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlarining betarafligi turli choralar, jumladan, inventarizatsiya o'tkazish va uning natijalarini-yillik hisobotlarda to'liq hamda O'z vaqtida ochib berish orqali ta'minlanadi. Inventarizatsiya haqidagi ma'lumotlarning yo'qligi, shuningdek hisobotlarda uning natijalarini to'liq ochib bermaslik ma'lumotlarni ataylab noto'g'ri talqin qilish va foydalanuvchilarni chalg'itishdan dalolat berishi mumkin.
Qiyosiylik shuni anglatadiki, turli hisobotlardagi ma'lumotlar taqdim etilgan ma'lumotlardagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash uchun taqqoslanishi va solishtirilishi mumkin.	Inventarizatsiya jarayoni hisobot ko'rsatkichlarining vaqt o'tishi bilan izchilligini va ularning tendentsiyalari to'g'ri aks ettirilishini ta'minlaydi, bunda buxgalteriya hisobi moddalari haqidagi ma'lumotlarni shakllantirish, baholash va ochib berish uchun bir xil usullar qo'llaniladi. Inventarizatsiya jarayonida oldingi-yillarda yo'l qo'yilgan jiddiy xatolar aniqlanganda, ular darhol tuzatilishi shart. Izchillikni saqlash maqsadida hisobot ko'rsatkichlari retrospektiv tarzda qayta hisoblanadi. Joriy hisobot davri uchun qiyosiy ko'rsatkichlar xato yuz bergan o'tgan-yildan boshlab tuzatiladi, bunday tuzatish imkonsiz bo'lgan holatlar bundan mustasno. Ba'zi hollarda inventarizatsiya jarayonida buyum yoki faoliyat turidan foydalanish maqsadi O'zgarganda hisobot ko'rsatkichlaridagi O'zgarishlar aniqlanishi mumkin.
Ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish va tasdiqlash. Bu jarayon bevosita yoki bilvosita usulda amalga oshirilishi mumkin. Bevosita tekshirish inventarizatsiya paytida bo'lgani kabi ma'lumotlarni hisoblashni O'z	Inventarizatsiyaning maqsadi hisobga olinayotgan obyektlarning haqiqiy ma'lumotlari - mavjudligi, holati va qiymati buxgalteriya hisobi

ichiga oladi. Bilvosita tekshirish esa ma'lumotlarni tekshirish uchun formulalar, modellar va boshqa usullardan foydalanishni nazarda tutadi.	ma'lumotlariga mos kelishini ta'minlashdan iborat. Buning natijasida quyidagilar amalga oshiriladi: - Har bir buyumning mavjudligi, holati, qiymati va tasnifi tasdiqlanadi (agar farqlar aniqlanmasa). - Har bir obyekt bo'yicha buxgalteriya hisobining moliyalashtirish manbalari kodlariga muvofiqligi tekshiriladi. - Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan ortiqcha, kamomad yoki qayta taqsimlashlar buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Ayrim obyektlar O'zaro hisob-kitoblarni solishtirish kabi jarayon orqali inventarizatsiya qilinishi mumkin, boshqalari esa belgilangan hisob siyosatidagi hisoblash uslubiyotini amalda qo'llanilgan usul bilan taqqoslash orqali aniqlanishi mumkin.
Moliyaviy hisobotlarda keltiriladigan ma'lumotlar foydalanuvchilar uchun ochiq va tushunarli bo'lishi kerak	Inventarizatsiyaning hisobot ma'lumotlari tushunarlilikiga ta'siri shundaki, u obyektlarni to'g'ri tan olish, tasniflash va baholashni tekshirish hamda hisobotda ular haqidagi ma'lumotlarni ochib berish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, tushuntirish xatida o'tkazilgan inventarizatsiya va uning natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar ham yoritilishi shart.